

81
N

Iminov M., Nu'monov T.,
Boboxonova D.

O'zbek tili üslubiyati masalalarri



O'zbekiston Respublikasi oliy va
o'rta maxsus ta'lif vazirligi

Namangan Davlat universiteti

Iminov M., Nu'monov T.,
Boboxonova D.

O'zbek tili uslubiyati masalalari

«Namangan» nashriyoti

2007

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Namangan Davlat universiteti ilmiy kengashining qaroriga asosan chop etilgan (7-bayonnomalar).

Taqrizchilar:

**Usmonova Huriniso,
filol.fan.nomzodi, dotsent,
Uluqov Nosirjon,
filol.fan.nomzodi, dotsent.**

Mas'ul muharrir:

**Sobirova Mahbubaxon,
ped.fan.nomzodi, dotsent.**



NG — 624-1410,66-1268100 — 2007
625-0,6-(04)-07

© Iminov M., Nu'monov T., Boboxonova D. "Namangan" nashriyoti

So'zboshi

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma, asosan, universitetlarning filologiya fakulteti bakalavr va magistr talabalariga, shuningdek kollej va akademik litsey talabalariga mo'ljalangan bo'lib, o'zbek tili uslubiyatining eng muhim masalalari yuzasidan nazariy ma'lumot berishni ko'zda tutadi.

So'nggi yillarda respublikamizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotidagi yuksalishlar, ta'lim sohasidagi islohotlar, oliy o'quv yurti, o'rta maxsus ta'lim tizimi sohasidagi o'zgarishlar bois o'zbek tilshunosligi fanining uslubiyat bo'limiga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalarga katta talab, ehtiyoj tug'iidi. Mazkur qo'llanma shuni e'tiborga olgan holda yaratildi.

Unda uslub, uslubiyat, adabiy til uslublari, til birliklarining uslubiy xususiyati, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik uslubiyat masalalari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Nazariy fikrlar badiiy adabiyotlardan, ommaviy nashrlardan va jonli so'zlashuvlardan olingan misollar yordamida asoslangan.

Qo'llanma o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari hamda o'zbek tili uslubiyati yuzasidan nazariy ma'lumot olish va fikr ifodalash imkoniyatlari bilan tanishishga havasmand bo'lgan barcha kishilarga ham ko'mak beradi, degan umiddamiz.

Kirish

Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.

Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa, tilning ofatidir.

Alisher Navoiy

I

Har bir individ, ya'ni shaxs tashqi olamdan o'zicha ta'sirlanadi-da, uni o'zicha tushunib, idrok etadi, hamda o'zgaga yetkazishga intiladi.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalariда aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatic va fonetik vositalarni tanlash va ishlatilishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Ha, umumxalq tili doirasida til vositalari ning bunday tanlab olinishi **nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga** olib keladi. Nutqning bu xilma-xil ko'rinishlari esa **nutq stillari** deb yuritiladi.¹

Stil (uslub) asli grekcha «stilos» so'zidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi **qalamdir**. Bunday qalam qadim zamonalarda va o'rta asrlarda yozish-chizish quroli bo'lib xizmat qilgan. Insonlar esa o'z fikr-mulohaza shaklini shu qalam vositasida chizganlar.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, u vaqtarda hozirgiday qalam, **qog'oz** bo'lмаган, balki hozirgidek **qog'oz o'rnida-mum surtilgan taxtakachu**, qalam (ruchka) o'rnida – ana shu «stil»²ni ishlatganlar. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtakachlarga shu tayoqcha bilan yozganlar. Xato yozilgan so'z yoki gaplarni tayoqchaning yassi tomoni bilan o'chirib tuzatganlar. Rimliklar ham, hindlar ham, arablar ham bunday tayoqchalardan o'z maqsadlarini ifodalashda foydalanganlar.

Davrlar o'tishi bilan u yoki bu yozuvchining **so'z tanlash, gap tuzish** usulini stil deb atay boshlaganlar. F. Nasriddinov o'zining «Til, uslub va obraz»³ maqolasida shunday deydi: «Biz tushungan stil mutlaqo boshqa ma'noda, ya'ni yozuvchining o'ziga

¹ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983, 9-bet.

² BSE, 41, 3-bet

³ O'zbek tili stilistikasi mazsalalari. Ilmiy sezarlar so'nalami, ARS – Toshkent: Toshkent Dövlati universiteti 1975, 44-bet

xos bo'lgan badiiy mahorati bo'lsa ham, lekin u o'sha genetik ma'no bilan qarindoshlik alomatlarini yo'qotgan emas. Chunki biz ham hozir **stil** deganda u yoki bu yozuvchining yozish yo'liyo'sinini anglaysiz. Faqat farqi shundaki, bunda yozuvchi yozgan asarlar ko'zda tutiladi». **Uslub** har bir yozuvchining o'ziga xos bo'lgan badiiy tasvir usulidir.

Akademik Ya. Gort tili bilan aytsak, **uslub** bu - tom ma'nda yozuvchining bayonlash xarakteri, **bu** - nutqqa munosabat, ya'ni yurganingizda gavdangiz qanday harakat qilsa, xuddi o'shangaga xos bir gap, yozishdagi husnixat, aftangoringiz va yuz ifodangizdir; bu har bir yozuvchining individual ko'rinishidir.¹

Tajriba va kuzatishlarimizdan ma'lumki, bir yozuvchining bir emas, bir necha asarlarini o'qir ekanmiz, ular orasida shakliy o'xshashliklar, u yoki bu darajada yaqinlik borligiga guvoh bo'lamiz. Shuning uchun ham u yoki bu yozuvchining uslubi haqida fikr yuritganimizda ana shu «o'xshash» tomonlarga, «yaqinliklarga» qarab, ulardagi umumiyligi tomonlarni aniqlab olamizda, «Bu Abdulla Qodiriyning tili», «Bu Oybekning tili», «Bu Abdulla Qahhorning tili», «Bu Said Ahmadning tili», «Bu O'tkir Hoshimovning tili», «Bu Tohir Malikning tili yoki uslubi», deya hukm chiqaramiz. Chunki har bir yozuvchining individual uslubi mazkur adibning faqat o'zigagina xosdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, **har qanday uslub** (so'zlashuv uslubi, rasmiy ish uslubi, ilmiy uslub, publisistik uslub, badiiy uslub va b.) ning **asosi**, **uning yuragi til hisoblanadi**. Bu - uslub, go'yo, shaxmat taxtasidagi shohdir. Agar Shoh yo'q ekan, hech qanaqa o'yin ham bo'lishi mumkin emas. **Til yo'q ekan - yozuvchi ham yo'q**.²

II

Turkiy tilda so'zlashuvchi urug'-qabilalar ittifoqi va ular tilining shakllanishi juda qadim zamonalardan boshlanadi.³ Uning

¹ Gort YA.. «Filiologicheskiye roziskaniya», 1899, str. 74-75.

² Go'zal qurashchilik. Tiedin. II. Go'zal munosabasi. - Moskva: Fisarel, iskussiva, Vremya. 1957. str. 538.

³ Qarang. Yaziki narodov, tom 2. Tyurkiskiye yaziki. - Moskva: 1966. str. 14-15.

asosiy fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari negizni uzoq vaqtlar davomida shakllangan va rivojlanib kelgan bo'lib, bu haqda Sibirda, Mo'g'ulistonda, Qozog'istonda va O'rta Osiyoning turli joylarida topilgan qadimgi turkiy yozma yodgorliklar juda yaxshi tasavvur beradi.¹ Masalan, Shimoliy Mo'g'uliston hududidan o'tgan **Yenisey va O'rxun** daryolari bo'ylaridan topilgan yozuv. Buni **O'rxun-Yenisey** yozuvlari deb yuritishadi. «Bu yozuv yodgorliklarini hozirgi turk xalqlaridan birortasi yaratgan deb aytish to'g'ri chiqmaydi, chunki u zamonlarda urug'-qabilachilik davrini boshidan kechirayotgan **turk xalqlari** (VI-VIII asrlar) hali mustaqil xalq sifatida uyushmagan edilar. Bu yodgorliklarning tili haqida ham xuddi shuni aytish kerak bo'ladi. Bu yozuv yodgorliklarini yaratishda so'nngi taraqqiyot davrlarida turk xalqlarining tashkil topishida ishtirok etgan juda ko'p turli-tuman qabila va urug'lar qatnashgan, desak haqiqatga yaqinroq bo'ladi».²

Tadqiqot va kuzatishlarga ko'ra, bizgacha yetib kelgan O'rxun – Yenisey (Enasoy) va shuning singari boshqa ko'pgina yozma yodgorliklar barcha turkiy urug'-qabilalarining hayoti va faoliyatida xizmat qilgan qadimgi turkiy tilning boy hamda har jihatdan taraqqiy etganligidan guvohlik beradi. Shuningdek, turkiy xalqlar adabiy tilining ilk taraqqiyot davri va uning uslubiy turxillarini aniqlashda ham bu yodgorliklarning ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlash joizdir.

A.Sh.Shomaqsudov yuqorida qayd etilgan maqolasida o'zbek xalq tili taraqqiyotining qadimgi davrini mavjud yozma yodgorliklar va ularni o'rganishga oid ilmiy tekshirish ishlari asosida ikkiga ajratishni ta'kidlaydi. Masalan, qadimgi o'zbek tilining tarkib topishi va yozma adabiy til an'alarining vujudga kelish davri (XI-XII asrlar). Bu davrning muhim yodgorliklari sifatida esa Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (XI asr), Ahmad

¹ Shomaqsudov A. SH. O'zbek tili va uning stilistik turlarining tarixiy ildizlari masalesiga doir, O'zbek tili stilistikasi masalalari, ilmiy asrlar to'plami, 486. – Toshkent, 1975, 3-bet.

² O'qish kitobi. Eski o'zbek yozushi namunalari, - Toshkent; O'z Davlat o'quv-pedagogik nashriyoti, 1960, 6-bet.

Yugnakiyning «Hibbatul xaqoyiq» (XII asr) asarlarini hamda bu davrda yaratilgan yuridik xujjatlarni¹ ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi davr esa (XII-XIV asrning yarmi) Sharqiy adabiy til an'anasi ta'sir doirasining kengayib borishi bilan xarakterlanadi. Bu davrning yodgorligi sifatida Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmati» (XII asr), Rabg'uziyning «Qissaul anbiyo» (XIV asr) asarini; shuningdek, adabiy tilning Oltin O'rda shaklida yozilgan Qutbning «Xisrav va Shirin», Xorazmiyning «Muhabbatnama» asarini hamda adabiy tilning chig'atoy ulusi tilida yozilgan «Yusuf va Zulayho», «O'g'uznama» kabi asarlarni ko'rsatish maqbuldir.²

Shuni ham aytish kerakki, eski turkiy tilning uslubiy turlari shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan masalalardan biri - «Qutadg'u bilig»da ishlatilgan «bug'raxon tilincha» ifodasiga berilgan izoh va tushuntirishga doxil mulohazalardir. E'tibor beriring. «Qutadg'u bilig» muallifi Yusuf Xos Hojib asarning nasriy muqaddimasida shunday yozadi: «Mochin olimlari va hakimlari qamug' ittifoq bo'ldilar, kim Mashriq viloyotinda Turkiston ellarinda Buxraxon tilincha bu kitobdin yoxshiroq hargiz kim ersa tasnif qilmadi»²

Tadqiqotchilardan biri - Qayum Karimov «Buxraxon tilincha» iborasini keng ma'noda tushunib, «Buxraxon qo'l ostida birlashgan turk davlati tarkibiga kirgan hamma asosiy qabilalar uchun tushunarli bo'lgan» tilni nazarda tutmoq zarurligini ta'kidlaydi.³ Turkiyshunos olim S.Ye.Malov esa o'z tekshirishlaridan birida bu iborani stil (uslub) ma'nosida ham tushunish mumkinligiga ishora qiladi⁴.

Muallifning o'zi ham «Qutadg'u bilig»ning she'riy muqaddimasida asarni «xon tilincha» tartib berib yozganini aytadi:

Bu Bug'raxon vaqt ichra ani

Yema xon tilincha bu etmish muni⁵

Malov, S.Ye. Pamyatniki drevneyturkskoy pismennosti, - M-A, 1951, str. 200-221

Qutadg'u bilig. - Toshkent: O'z «Fan», 1971, 48-bet.

Yu.X. Hojib. O'sha asar, 13-bet

Malov, S.Ye. Ko'sariigan asar, suz-bei.

Yu.X. Hojib. Ko'rsatilgan asar, 52-bet.

Mazmuni:

Bu Bug'raxon davrida uni (yoziib),

Shuningdek, **xon tilinda** bunga tartib berilgandir.

Yana asar muallifiga murojaat etar ekanmiz, u yuqorida ko'rib o'tganimizdek, «**xon tilincha**» tartib berib yozgan bu asarini Qoshg'orda yozib tugallaganini, kitob esa «**xonlar xoni** Tavg'och Qora Bug'ra»ga manzur bo'lganini aytib o'tganligining guvohi bo'lamiz¹.

Bulardan tashqari, Yu.X.Hojib «Qutadg'u bilig» asarini **qaysi tilda** yozganligi haqida ma'lumot berar ekan, **turkcha** degan terminni ishlataladi:

Arabcha tojikcha kitoblar o'qush

Bizning tilimizcha bu yumg'i o'qush

Bu **turkcha qo'shuqlar** tuzattim senga

O'qurda unitma duo qil menga.²

Mazmuni:

Arabcha-tojikcha bunday kitoblar talaydir,

Bizning tilimizda esa bu jamlangan zakovatdir.

Senga bu turkcha qo'shiqlarni tartib berdim,

O'qirda unutma, mening haqimga duo qil.

Muallif asarining oxirgi bobida **turkcha so'zga** ishllov bergenini, uni yig'ib-terib to'planganini; bu **turkcha so'zni yovvoyi tog' kiyigiga o'xshatganini**, ularni **ohista ushlab**, aldab o'ziga yaqinlashtirgani, ya'ni o'rgatganini badiiy misralarda ifodalab beradi.³

Ko'rindiki, Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarini yuqoridagi «**turkcha**» deb nazarda tutilgan tilda, ya'ni Bug'raxon saltanati tarkibiga kirgan qabilalar uchun tushunarli bo'lgan tilda yozgan. Uning «**Bug'raxon tilincha**» deyishidan maqsadi, S.Ye.Malov ishora qilganidek, **oliy, mo'tabar uslub** (visshiy stil) ni, ya'ni

¹ Qarang. Yu.X.Hojib, O'sha asar, 66-bet.

² Yu. X. Hojib, Ko'satilgan asar, 58-bet

³ Qarang Yu. X. Hojib, Ko'satilgan asar, 948-bet

o'sha davr xon saroyiga mansub **rasmiy-kitobiy** nutqni tushungan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas¹.

Yozuvchi jamiyatdagi turli aloqa ehtiyojlarini qondirishda yozuvning ahamiyatini ham alohida ta'kidlaydi.²

Bu yerda ham Yu. X. Hojibning tilni ekspressiv-uslubiy jihatdan **og'zaki nutq** («tilin so'z») va **yozma nutq** («bitig so'z») deb farqlash haqidagi ishorati ham o'sha davr nutqining ma'lum uslubiy turlarini o'rganish nuqtai nazaridan juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, tilshunos olim A.Sh. Shomaqsudovning ta'kidlashicha, qadimgi yozma yodgorliklar tilini lingvo-stilistik aspektda tekshirish turkiy xalqlar adabiy tillarining stilistik tur-xillarini, turli stil elementlarining tarkib topishi jarayonini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu o'zbek tili vazifaviy uslublarining shakllanish jarayonining tarixiy ildizlarini obyektiv tarzda hal etishning zarur shartlaridan biri hamdir.

III

O'zbek tilshunosligida uslubiyatning fan sifatida shakllanishi, asosan, 1950 yillardan so'ng boshlangan bo'lsa ham, uning kurtaklari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Masalan, yuqorida qayd etganimizdek, «Qutadg'u bilig», «Hibbat-ul-haqoyiq», «Devonu lug'otit turk» kabi yodnomalarda tilga e'tibor, so'z tejash, mantiqiy va qisqa gapirishga da'vat etish motivlari borki, bular mazmuni jihatidan **uslubiy mohiyat** kasb etadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlari, ayniqa, uning «Muhokamatul lug'otayn», «Xazoyinul-maoniylar» kabi risolalari fikr ifodalashda, so'z tanlash va uni o'z ornida ishlatisch, so'zga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undaydiki, buni uslubiy ta'limot demay bo'lmaydi.

¹ O'zbek iqtisodiyatni masajidlar, imtiy ishlari lo planni, - Toshkent, 1975, 5-ber.

² Qarang. Yu.X.Hoib. O'sha asar. 431-432-beftlar.

O'zbek tili uslubiyati fani bevosita rus tili stilistikasi ta'sirida, uning qolip va modellari zaminida vujudga keldi va rivojlanma boshladi, desak xato bo'lmas.

Jahon tilshunosligida, shu jumladan rus tilshunosligida ham **stilistika** tilning mohiyati va vazifalarini chuqur tahlil qilish natijasi o'laroq fan sifatida ajralib chiqdi va rivojlanish yo'liga kirib oldi. V.Gumboldt, I.A. Boduen de Kurtene, F. Sossyur, G.O. Vinokur, A.P. Yakubinskiy, Ya. Gort, V.V. Vinogradov, N.Yu. Shvedova kabilar nutqni o'rganishga katta e'tibor berdilar. **Va nihoyat, lingvistik stilistika shakllandi.** Nutq hodisalari chuqur o'rganila borgan sayin ilmiy tadqiqot obyektiga aylana boshladi.

Nutq, nutq jarayoni va uni qabul qilish kabi hodisalarni psixologiya, fiziologiya kabi fanlar ham o'rganadi. Lekin tilshunoslik tilning faoliyat shakllari, bularning kommunikativ, emotsional va tarbiyaviy-ta'limiylar tomonlari yuzasidan bahs yuritadi. Tilning bu xususiyatini chuqur o'rgangan rus olimlari rus tili stilistikasi bo'yicha talaygina asarlar yaratdilar.¹

O'zbek tilshunosligida ham uslubiyatga oid ilmiy ishlar yaratildi, maqolalar yozildi. 1980 yillarga kelib, vazifaviy uslublar bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi hamda qilinmoqda. Masalan, R.Qo'ng'urov, I.Qo'chqortoyev, B. O'rincev, M. Mukarramov, E. Qilichev, A.Shomaqsudov va boshqalarning ilmiy maqolalari, monografiya va risolalari o'zbek tili uslubiyatining fan sifatida shakllanishiga hissa bo'lib qo'shildi.²

Rus tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham uslubiyatning predmeti, tekshirish obyekti bir tomonlama ko'rsatiladi. Deyarli, barcha manbalarda ekspressiv bo'yoq kasb etgan til hodisalarigina uslubiy obyekt sifatida talqin etiladi. Bunday talqin uslubiyatning mazmun va imkoniyatlarini ancha toraytirib qo'ydi.

¹ Vinogradov V. V., Stilistika, Teoriya poeicheskoy rechi. Poetika, - Moskva: 1963; Sherba L.V. Sovremennyy russkiy literaturnyy yazik. - Moskva: Uchpedgiz., 1957; Cheremisin P. G., Posobiye po stilistike russkogo yazika, - Moskva, 1971; Bondaletov V. I Drug., Stilistika russkogo yazika, Leningrad, 1982 kabilar.

² Shomaqsudov A., Resulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek illi stilistikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1983; Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. - Toshkent:

Shuni e'tirof etish kerakki, tilda uslubiyat mohiyat kasb etmaydigan hech narsa yo'q. Demak, uslubiyat tushunchasi «til», «nutq», «ekspressiya» tushunchalariga nisbatan juda keng, hatto cheksiz chegarasizdir. Biroq uslubiyat tahlil jarayonida tilning umumlash-tirish xususiyatlarini hisobga olib, fonetika, leksika, morfemika, morfologiya va sintaksislarda alohida o'rganilishi lozim bo'lgan hodisalar chetlab o'tiladi, punktuatsiya esa deyarli tilga olinmaydi.

Uslubiyat, eng avvalo, normativ grammatika bilan chambar-chas bog'langan. Normativ grammatika qonun-qoidalariga to'la amal qilish yoki uni buzish ham uslubiyat o'rganadigan sohadir.

Egalik, kelishik, zamon, mayl va boshqa qo'shimchalarni o'rinsiz yoki almashtirib ishlatish, olmoshdan foydalanmay, ot, sifat yoki sonni takrorlash kabilar ham uslubiy obyekt, uslubiy xulosalar manbaidir. Buni shartli ravishda «oddiy» yoki «normativ» uslubiyat deb ataymiz. «Normativ» («oddiy») uslubiyat ekspressiya bilan bog'liq bo'limgan, tamomila neytral bo'lgan til-nutq hodisalarini o'rganadi. Masalan, ...Muhammadjonni peshonasidan o'pdi. (A.Q.) – Muhammadjonning peshonasidan o'pdi. O'quvchilarga ajratildi. – O'quvchilar uchun ajratildi kabi gap-larda qo'llangan shakllarning qaysi biri qanday holatda ishlatilishi aniqlanadi.

Bundan tashqari, arxaizm, istorizm, dialektizm, kasb-hunarga oid leksik qatlam so'zlari, fanga oid terminlarning ishlatilishi ham ekspressivlik hosil qilmaydi. Demak, ular ma'lum bir nutq uslubiga xoslanganligi bilan ajralib turadi, xolos. Shu sababli bular ham «normativ» («oddiy») uslubiyatning tekshirish obyektidir.

Og'zaki va badiiy publitsistik uslubda tashqi olam voqeahodisalarini atayin bo'rttirib, kuchaytirib ko'rsatish, shu yo'l bilan tinglovchi (o'quvchi)ga, uning ruhiy holati, ong-tushunchasiga biror yo'sinda ta'sir etish maqsadlarida **tovush**, **so'z**, **birikma** va **gap** tanlash ham borki, buni biz ekspressiv uslubiyat deb ataymiz. Ekspressiv uslubiyat vositalari obraz yaratishda, voqelikni obrazli

tasvirlashda, kishida salbiy yoki ijobiy his-tuyg'u uyg'otishda muhim rol o'ynaydi.

Biz yuqorida uslubiyat obyekti bo'lmaydigan hech qanday til va nutq hodisasi yo'qligini aytib o'tdik. Tilshunoslikning har bir bo'limi u yoki bu darajada, yo normativ, yo ekspressiv uslubiyatning obyekti bo'lib xizmat qiladi. Masalan, unli va undoshlarning ishlatalishi, talaffuzi, urg'u, pauza, takt va boshqalar normativ uslubiyat obyekti bo'lsa; unlini cho'zish, undoshni ikkilantirish, maxsus urg'u berish, maxsus pauza, takt o'rnini almashtirish, unliga, ba'zan undoshga maxsus rang berish (fonologik sintagmatika) kabilar ekspressiv uslubiyat obyektidir.

Morfemikada so'z o'zgartuvchi affikslar normativ, shakl yasovchilar ekspressiv uslubiyat obyektidir. So'z yasalishida rus tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham uslubiy mohiyat bor deb qaraladi. Biroq uslubiyat so'zni **o'zak+yasovchi** (**o'zak+o'zak**)ga ajratib tekshirmaydi. Demak, so'z yasalishi uslubiyat obyekti bo'la olmaydi. Lekin, **toshbag'ir**, **otashqalb** kabi (murakkab so'z) ko'chma ma'noli yasalishlar bir butun holda ekspressiv uslubiyat obyekti bo'lishi ham mumkin.

So'z turkumlaridan foydalanish ham normativ uslubiyat obyektidir. So'z o'zgartuvchi va shakl yasovchilardan foydalanish ham morfologik vositalar tushunchasiga kiradi. So'z o'zgartuvchi va shakl yasovchilarning vazifaviy almashinuvi ma'lum uslubiy maqsadlarga xizmat qildiriladi: **nondan yeng** deyish bilan **butundan qism** va **hurmat**; **ovqatga qarab** **o'tirilsin** deyish bilan **hurmat**; **qani, ketdik** deyish bilan da'vat kabi ma'nolar ifoda etiladi.

Til sintaktik vositalarining imkoniyati va ekspressiv – emotsional xususiyatlari beqiyosdir. Sintaktik kategoriylar normativ uslubiyatning ham, ekspressiv uslubiyatning ham obyektidir. **Biz** keldik gapi **tinch ohang** bilan **aytilganda** oddiy uslubiyat obyekti, alohida **kuchli ohang** bilan **aytilganda**, axborot tushunchasiga quvonish tushunchasi qo'shiladi va ekspressivlik hosil qiladi.

Tinish belgilari ham uslubiy vositadir. Ularning aksariyati bevosita emas, balki gap, gaplar semantikasi orqali uslubiy vazifa bajaradi. Qo'shtirnoq, qavs ichida berilgan so'roq va undov belgilari, ko'p nuqta kabilar gap mazmuniga biror jilo (ekspressiya) qo'shishi bilan ajralib turadi.

Xullas, uslubiyat nutqning barcha faoliyatini tekshiradi va o'z xulosalarini bayon etadi.

Nu'monov T., O'zbekistonda
xizmat ko'rsatgan xalq
ta'limi xodimi, dotsent.

NUTQ USLUBLARI

«Stil» so'zi barcha sohada ishlataladi. Ma'lum bir sohaning ish yuritishida bir xil takroriylik, muntazamlik bilan ajralib turiishi va mana shu o'ziga xoslik stil (uslub) nomi bilan yuritiladi. Masalan, Sharq uslubidagi bino, Sharq uslubidagi muzika, Yevropa uslubidagi kiyim va boshqalar.

«Nutq uslubi» tushunchasi ham ma'lum bir shaklning fikr almashuv jarayonida ko'p yoki oz ishlatalishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xoslikka aloqador.

Kishilar o'zaro aloqa-munosabat jarayonida tilning fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan tanlab foydalana-dilar. «... Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi».¹ Umumxalq tili vositalarining bunday tanlab ishlatalishi nutqning turlicha ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladiki, bu «nutq uslublari» deb yuritiladi.

Nutq uslublari leksik-grammatik jihatdan farqlanib turadi. Masalan, so'zlashuv uslubida odatdag'i tartib turlicha o'zgarib tursa, terminlar, murakkab tuzilgan qo'shma gaplar kam ishlatsa, ilmiy uslubda buning aksi kuzatiladi.

Nutq uslublarining har biri tilning bir butun yaxlit tizimi doirasida ish ko'radi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, ot, kelishik, egalik, sifat, asliy, nisbiy, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak va hokazo terminlarning tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda qo'llanishi, uyushishi va takrorlanishi ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Nutq uslublarini belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinadi. Masalan, kichraytirish-erkalash jilosini beruvchi grammatik kategoriylar, **shamol**, **kuldi**, **aytdi**, **gapirdi** kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa; **tabassum** **qildi**, **so'zladi**, **sabo**, **boda** kabilar badiiy

¹ Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. - Toshkent: O'qituvchi, 1969, 199-bet.

nutqqa xos. Shuningdek, **jilmaydi** kabi so'zlar ijobi; **tirjaydi**, **ishshaydi** kabilar salbiy munosabat bildiradiki, nutq jarayonida bu xususiyatlar hisobga olinadi.

Albatta, so'zning ijobi yoki salbiy munosabat ifoda etishi hamisha nutq uslubini belgilashga asos bo'la olmaydi. Biroq sinonimik qatorni hosil qiluvchi bunday so'zlarning ko'pchiligi so'zlashuv va badiiy uslubda ishlatilishi, rasmiy ish va ilmiy uslubda esa sanoqli hollardagina saylab olinishi mumkinligi bilan karakterlanadi.

Dialektizm, jargon, argo, varvar va vulgar so'zlar badiiy uslubda obraz yaratish maqsadida ishlatiladi. Ular boshqa nutq uslubi uchun xarakterli emas. garchi sotsiolingvistika nuqtai nazaridan ayrim guruhlarga, shevaga xos so'z va formalar tilning yashash formalaridan biri bo'lsa-da, umumxalq tili doirasidan chetdadir.

Demak, nutq uslublari, umumxalq tili materiallari zaminida jihatdan qaraladi va shu nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Bu jihatdan terminlar o'ziga xoslikni tashkil etadi: ular, asosan, ilm ahli utqida ishlatiladi. Biroq ilm-fan muayyan millat, muayyan xalqning ma'naviy mulki, shu xalqning taraqqiyot darajasini ko'rsavchi muhim belgi ekanidan, terminlarga umumxalq tili vositasi ifatida qaraladi.

Nutq uslublari davr o'tishi bilan mukammallahadi, o'zining jarqaror vositalariga ega bo'ladi, yangidan paydo bo'ladi. Masalan, rasmiy ish, badiiy uslub o'tgan asrning 50-yillaridan so'ng boyidi, avjlandi, publitsistik va ilmiy uslub esa yangidan paydo bo'ldi.

Nutq uslublari yozma va og'zaki nutq shakllari bilan qat'iy bog'liq. Yozma nutq pishiq-puxta o'ylanganligi, har bir so'z, grammatik forma va qurilishning o'z o'rnidagi ishlatilishi, mantiqiy zchilligi, takrorlarning bo'lmasligi bilan og'zaki nutqdan farq qilib suradi.

Nutq uslublari qaysi shaklda va qaysi sohada bo'lmasin. Milliy adabiy tilning qonun-qoidalariga rioya qildi.

Nutq uslublari, asosan, beshta katta turga bo'linadi:

1. So'zlashuv uslubi.
2. Rasmiy ish uslubi.
3. Ilmiy uslub.
4. Publitsistik uslub.
5. Badiiy uslub.

So'zlashuv uslubi

So'zlashuv uslubi deganda kishilarning kundalik faoliyatida o'zaro aloqasini ta'minlovchi og'zaki nutq tushuniladi.¹ Bu uslubda sheva elementlari, passiv lug'atga xos so'z va iboralar, boshqacha aytganda, adabiy til normalariga mos kelmaydigan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalar erkin ishlatala beradi.

So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, u fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik jihatdan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi: fonetik jihatdan tovush o'rni almashadi: **yog'mir** (yomg'ir), **turpoq** (tuproq); tovush tushadi: **tasha** (tashla), **ke** (kel), **yudi** (yuvdi); tovush ortadi: **chechmoq** (yechmoq), **yilon** (ilon), **istakan** (stakan); tovush almashadi: **minan** (bilan), **sammi** (senmi), **mo'nchoq** (munchoq); o'zak-affiks o'zgarishi ro'y beradi: **opke** (olib kel), **qo'yvor** (qo'yib yubor) kabi.

Leksik-frazeologik jihatdan kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan osh, non, tuz, yer, osmon, quyosh, bola, xotin, o'rtoq, ko'z, qo'l, oyoq, men, sen, u, biz, siz, bir, besh, olti, o'n, ishladi, o'qidi, yetdi, keldi, ketdi, tez, sekin, kabi, shuningdek, san'at, adabiyot, siyosatga doir so'zlardan tashqari, so'zlashuv uslubida farzand, jujuq, churvaqa, zormanda, arzanda, pismiq, shalpar-pishiq, xomkalla, akillamoq, bobillamoq, to'ng'illamoq, po'ng'il-lamoq kabi uslubiy bo'yoqli so'zlar ko'proq ishlataladi.

¹ O'rbo'yev B. So'zlashuv nutqi. — Toshkent: Fan, 1979, 9-b.

So'zlashuv uslubiga yoe yana bir xususiyat so'zni qisqartish va ko'chma ma'noda qo'llashdir. Masalan, **kilo** (kilogramm), **foto** (fotografiya), **metro** (metropoliten), **avtomat** (avtomat telefon), **tushlik** (tushlik ovqat), **futbolga bormoq** (futbol o'yinini ko'rishga bormoq), **ovqatga o'tiring** (ovqat yegani o'tiring), **paxtani bajardik** (paxta rejasini bajardik) kabi. **Iskovich**, **tosh**, (odam), **chayon** (gap bilan kishini xafa qiladigan), **beliga tepmoq** (xalaqt bermoq), **loyini chiqarmoq** (sirini fosh qilmoq, ishni chigallash-tirmoq) kabilar ham, asosan, so'zlashuv uslubiga xosdir.

Ayrim eskirgan **patta**, **chipta**, **chek**, **pattachi**, **po'rim**, **shayton arava**, **miri** (bir pul, ikki pul) kabi so'zlar ham so'zlashuv uslubining leksik xususiyatlaridandir.

So'zlashuv uslubida nisbatan ko'proq ishlatiladigan morfologik formalar asosan, kichraytirish-erkalash oti, sifatlarning intensiv forma hosil qiluvchi affikslari va affiksoidlardir. Fe'llarning ayrim shakllarini «buzib» ishlatish – **borib edi (boruvdi)**, **boringizlar**, **kelingizlar** kabi qo'llanishlar ham so'zlashuv uslubiga xosdir.

So'zlashuv uslubi, asosan, dialogik xarakterda bo'lganidan, imo-ishoralar, qo'shimcha izohlar, takrorlar (so'zda), qaytariqlardan; (gapda), qo'l, bosh va gavda harakatlaridan fikr ifodalashda qo'shimcha vosita sifatida foydalaniladi.

Bu nutqning dialog xarekterda bo'lishi nutq vaziyatiga ko'ra ko'proq to'liqsiz gaplardan foydalanishi taqazo etadi. Bundan tashqari, so'zlashuv uslubida inversiya, sodda gaplar ko'chirma gapning avtor gapi o'rtasida kelgan formalari, qo'shma gapning «u aytdiki, bunday dedi» tipi ham ko'proq kuzatiladi.

Rasmiy ish uslubi

Huquqiy va diplomatik hujjatlar, davlat qonunlari, idora-tashkilotlarning qaror, buyruqlari, ahdnama, shartnomalar va kishi-

larning turli tashkilotlar bilan yozishmalaridagi o'ziga xos so'z tanlash usul va fikr ifodalash vositalarida rasmiy ish uslubining xususiyatlari aks etadi. Rasmiy ish uslubi juda keng va xilma-xil bo'lsa-da, so'z saylash va ifoda vositalarining yaxlitligi bilan umumiy tizimga birlashadi. Ushbu uslub keng ma'noda barcha yozishmalarni o'z ichiga oladi.¹

Rasmiy ish uslubi uchun shtamp holiga kelib qolgan ibora-ifodalar xarakterlidir. Masalan, qaror, buyruq va farmonlarda gapning kesimi ko'pincha majhul nisbatdagi buyruq fe'li formasida bo'ladi.

Bu uslubda har bir sohaning o'z terminlari bo'ladi. Umum-xalq tilida shlatiladigan ayrim so'zlar rasmiy ish uslubida termin-ga, faqatgina bir ma'no anglatuvchi (monosemantik) so'zga aylanishi mumkin. Masalan mehnat qilish, dam olish, o'qish kabi umumxalq tilida so'zlashuv uslubida qo'llanadigan so'zlar «O'zbekiston fuqarolari mehnat qilish, o'qish, dam olish huquqiga egadirlar». O'zbekiston Konstitusiyasi, modda, deganda «jamiyat manfaatlari yo'lida halol mehnat qilish, o'qib ilmli bo'lish va 10-11 oy ishlagandan so'ng pul bilan ta'minlangan dam olish (mehnat ta'tili)» degan yagona tushunchani aks ettiradi.

Rasmiy ish uslubida ko'chma ma'noli, polisemantik, tantanali (badiiy) so'zlar ishlatilmaydi.

Aksincha, aniq ma'noli so'z va iboralar, murakkab gaplar, tarkibi qism va paragraflardan iborat bo'lib, yaxlit bir maqsadga xizmat qildirilgan periodlar ko'p kuzatiladi.

Rasmiy ish uslubida ichki bo'linish (podstil) ning ham o'z termin va iboralari, sintaktik qurilishi bo'ladi. Masalan, sud ishlarida **oliy sud, ochiq sud, yopiq sud, o'rtoqlik sudi, hakamlar sudi, aybdor, oqlovchi, qoralovchi, ijrochi** kabi so'z-

¹ Boboxonova D. Ofitsialno-delovoy stil uzbekskogo literaturnogo vazika, AKD, - Toshkent. 1987. 5-b.

terminlar; diplomatik sohada dekleratsiya, ratifikatsiya, shart-noma, bitim, konsul, konsulxona, status, vizit, ultimatum kabi so'z-terminlar; rasmiy-idoraviy aloqalar shartnoma, akt, pudrat, shirkat, fermer, pudratchi, shtraf, to'lov, kredit, debitor qarz, haq kabi so'z-terminlar ishlatiladi.

Idoraviy yozishmalar: spravka, tilxat, chaqiriq xati, tushuntirish xati, taklifnomा, ishonch qog'ozи va boshqalarning ham standart formalari, shtamplari bo'lib, bular yozuvni osonlashtiradi. Masalan, spravkada «Berildi ushbuni ...ga shu haqdakim» deb boshlanuvchi hujjatlarning tayyor nusxalari ham bo'ladiki, kerak bo'lganda, u to'ldiriladi, xolos.

Ilmiy uslub

Ilmiy uslubda obyektiv olam voqeа-hodisalarining ichki-tashqi xususiyatlarini ochib, biror xulosaga kelish va buni ta'riflash xarakterli. Ilmiy uslub uchun xos forma masalaning qo'yilishi, ahamiyati, ilmiy izlanishlar, uning natijalari va tegishli xulosa chiqarishdir. Har qanday ilmiy ish ana shu mushtaraklikni aks ettiradi.

Ilmiy uslub har bir sohaning terminlari ko'proq ishlatilishi, grammatick qurilishida mantiqiy bog'liqlik, izchillik, aniqlik, bo'laklar to'laligi bilan farqlanadi.¹ Umumxalq tilida-so'zlashuv uslubida go'llanadigan bir qator so'zlar ilmiy uslubda termin sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, tilshunoslikdagi ovoz, tovush, bo'g'iz, pt, son, gap, ega kabilar; biologiyada oq tuproq, qora to'proq, sariq tuproq, o'zak, tomir kabilar.

Ilmiy uslub tabiiy fanlarda formulalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu formulalar ideomatik vazifa bajarib, fikr aniqligi, sodda foda uchun xizmat qiladi.

¹ Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stil. —Toshkent: Fan, 1984, 4-b.

Ilmiy uslubda badiiy tasvir vositalari, tantanali leksika kabilardan, deyarli, foydalanimaydi. Biroq ilmiy-ommabop asarlar ham mavjudki, bunda so'zlovchi (yozuvchi) sof ilmiy bayondan chekinadi, o'z fikr-mulohazalarini, ilmiy xulosalarining tushunarli bo'lishi uchun badiiy-publitsistik, shuningdek, so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan so'z, ibora va gaplardan foydalanishga harakat qiladi. Ilmiy-ommabop asarlar bunga yorqin misol bo'la oladi.

Publitsistik uslub

Ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritgan barcha asarlar publitsistik asarlar jumlasiga kiradi.¹ Bu janr o'zbek adabiy tili sistemasida XX asr boshlarida paydo bo'ldi. «Turkiston viloya-tining gazetasi» chiqa boshlashi, so'ng matbuot va nashriyot ishlarining kengayishi, Furqat, Hamza, Ayniy, Sattorxon kabi demokrat shoirlarning ijodida targ'ibotning o'rinni olishi publitsistikating shakllanishiga turtki bo'ldi.

Vaqt o'tgan sayin bu janr yanada rivojlandi. Ayniqsa, keyin-gi davrda radio, matbuot televideniye va boshqalarning xalq hayotiga kirib borishi, ma'ruza, suhbatlarning o'tkazilib turilishi kabi omillar publitsistika taraqqiyotida muhim omil bo'ldi.

Publitsistik uslub yozma va og'zaki shaklga ega bo'lib, yozma shakli gazeta-jurnallarning bosh maqolalari, felyetonlar, pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, dekleratsiyalardan iborat, og'zaki shakli esa, notiqlik san'atidir. Og'zaki shaklga kundalik axborotlar, sharhlovchining chiqishlari ham kiradi.

Har ikki formada ham siyosiy faoliy, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan nutq, mantiqiy salobat, targ'ibot-tashviqot kabi xusu-siyatlar mavjud bo'ladi.

¹ Abdusaidov A. Gazeta janrinining til xususiyatlari. DDA, -Toshkent, 2005, 11-b.

Publitsistik uslubda avtorning voqelikka munosabati aniq sezilib turadi. Avtor hayotiy masalalarni chuqur mulohaza yuritib tahlil qiladi, isbotlaydi, asoslab tushuntirishga urinadi, tinglovchini ishontiruchi detal va faktlar keltirish bilan kishida tasvirlanayotgan voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabat tug'diradi, unga ta'sir etadi. Shuning uchun ham bu uslubda tilning barcha vositalaridan foydalanish mumkin.

Badiiy uslub

Badiiy uslub inson amaliy faoliyatining barcha sohasini qamrab olishi, umumga qaratilganligi, barcha kasbkor egasi uchun mo'ljallaganligi bilan boshqa nutq uslublaridan farqlanib turadi.¹ Badiiy uslubda hayot voqealari va kishilar to'g'risida oddiy axborotlar berilmaydi, aksincha, ular o'quvchi ko'z o'ngida, jonli tarzda, so'z bo'yoqlari yordamida barcha detal va xarakter-xususiyatlari xayol pardasi ortida gavdalantirilib, o'quvchida estetik zavq uyg'otiladi, salbiy yoki ijobiy shaxs, hodisalarga nisbatan jiddiy qarash, kurash tuyg'usi hosil etiladi, shuningdek, o'quvchi voqelik ichiga tortiladi va natijada yuksak badiiy zavq oladi.

Demak, badiiy uslubning vazifasi estetik zavq va voqelikka biror yo'sinda munosabat uyg'otishdir.

Badiiy uslub boshqa uslublar kabi o'z ichki bo'linishlariga (podstilleriga) ega. Masalan, **poetik uslub**, **masal uslubi**, **ertak uslubi** kabilarga bo'linadiki, ularning har biri o'ziga xos tasvir vositalariga ega.

Badiiy uslubning vositasi ham tildir. Lekin bunda til aloqa vazifasini obraz, xarakter va nafis manzaralar yaratish orqali bajaradi, shu yo'l bilan uning ta'sir etish, harakatga keltirish vazifasi namoyon bo'ladi.

¹ Doniyorov A. Bodiv nuta stilistikasidan materiallar. Guliston. 1988. 10-b.

Badiiy uslubda so'z, ibora va gaplar sayqal topadi, yangi-yangi ottenka va mazmun kashf etadi. Masalan «**Quyosh g'uborsiz ko'kda taltayib porlaydi**» (O.) gapida «taltayib», «porlaydi», «g'uborsiz» so'zlari alohida sayqal topgan, alohida jilo, alohida jozba kashf etgan. Gap esa bir butun holda aloqa vazifasi (Quyosh osmonga ko'tarilgan)dan tashqari estetik zavq, badiiy taassurot, ko'tarinkи ruhiyat baxsh etishga xizmat qilgan. Bunday misollar yuksak mahorat bilan yaratilgan har qanday asardan ham istagancha topiladi.

Ma'lumki, obrazlilik har qanday san'at asarining bosh mezonidir. Badiiy obrazlilik so'z (ibora, gap) ishlatalish san'ati va mahorati demakdir. Adabiyot shu xususiyati bilan san'atning boshqa turlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham «bo'sh asar», «sayoz asar» deyilganda, birinchi navbatda, yozuvchining voqelikni so'z bo'yoqlari orqali o'z holicha, ya'ni, biqiq holda tasvirlay olmaganligi nazarda tutiladi.

Har bir yozuvchining o'ziga xos so'z tanlash va ishlatalish usuli bo'ladi. A. Qahhor ijodi uchun xarakterli xususiyat so'zni tejab-tergab ishlatalishdir. Yozuvchi har bir so'zga alohida vazifa yuklaydi.

Uyg'un ijodiga xos xususiyat: «o'nlab misollar bir xil so'zlar bilan boshlanadi va tugaydi» va hokazo.

Badiiy uslubga xos bo'lgan eng muhim xususiyat unda tantanali-emotsional so'zlarning ko'p ishlatalishidir. **Sabo, yel, chehra, tabassum, takalluf, muhabbat, muyassar, alvon, moviy, silsila** kabilar shular jumlasidandir. Badiiy asar turli mavzularda bo'lishi va turli davrning xilma-xil faoliyatini aks ettirishi mumkin. Shunga ko'ra, badiiy uslubda tilning leksik qatlamiga oid barcha so'z, ibora va frazeologik birikmalardan erkin foydalaniлади. Masalan: tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarda arxaizm, istorizmlar va o'sha davr tiliga xos grammatik formalardan erkin foydalaniлади. Zamonaviy mavzuga oid asarlarda ular qo'llanmaydi, aksincha, bugungi til leksik qatlamidan, shu jumladan, o'miga kota,

dialektizm, jargon, argo va boshqalardan foydalaniladi. Bu bilan obraz yaratishda bevosita ifodaga-obrazning qaysi sheva yoki kasb-hunar vakili ekanini qo'shimcha izohsiz tasvirlashga erishiladi.

Badiiy uslubda yozuvchining individual tasviri va ifoda vositalari sezilib turadi. Masalan, H. Olimjon asarlaridan sho'x va o'ynoqi ohang, G'.G'ulom ijodida masalaga tarixiy-falsafiy yondoshish, M. Shayxzoda ijodida ham falsafiy mushohada, Uyg'un ijodida peyzaj bilan bog'liqlik, A.Qahhor ijodida siqiqlik, A. Qodiriy ijodida batapsil tafsilot, Erkin Vohidov ijodida mantiqiy-qiyosiy tasvir sezilib turadi.

Badiiy uslubda so'z yaratish, so'zni ko'chgan ma'noda ishlatish, iboralarni qayta ishlash kabi jarayon kechadi. Bular yozuvchining mahoratiga, ijodiy qobiliyatining darajasiga bog'liq. Bunda yozuvchi xalq jonli tilidan keng foydalanadi. A. Qahhor A.P. Chexovning «Chelovek v futlyare» asarini «G'ilof bandasi» deb tarjima qilishi, G'.G'ulomning «Ko'kan o'zi mening bilan ko'p og'ayni» deb ta'riflashi, A.Oripovning «Qachon xalq bo'lasan, ey, olomon» deb murojaat etishi va boshqalar yuqorida nomi tilga olingan yozuvchi, shoirlarni xalq tili, xalq iboralarini naqadar chuqur bilishini ko'rsatadi.

So'z tanlash badiiy asarning janr xususiyatlariga ham bog'liq. Masalan, arxaik so'zlar ba'zan davr koloriti, shaxs xarakterini ko'rsatish uchun ishlatilsa, ba'zan kulgi-mazax uchun xizmat qiladi. Masalan, A.Qodiriyning romanlarida ishlatilgan arxaik so'zlar davr koloritini ko'rsatishga, satirik asarlarida esa shaxslar ustidan kulishga, mazaxga xizmat qildirilgan.

Badiiy uslubda grammatik shakllardan ham obraz yaratish va kolorit berish maqsadlarida foydalaniladi. Masalan, Oybekning «Navoiy», P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanlarida **-ur**, **-erdi**, **andoq**, **shulkim** kabi formalar ishlatilganini kuzatish mumkin.

LEKSIK USLUBIYAT

Tilshunoslikning leksika qismi uslubiyatda muhim o'r'in tutadi. Mohiyat e'tibori bilan leksik qatlam fikrni to'g'ri, aniq ifodalashning asosiy shartlaridan bo'lib, sintaksisdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. demak, fikrning aniq va ravshan bo'lishi so'zdan to'g'ri foydalanishga bog'liq. So'zdan to'g'ri foydalanish uchun esa, avvalo uning lug'aviy ma'nosini anglash zarur. Lekin buning o'zi yetarli emas. Fikrni to'g'ri, aniq ifodalash va tushunish uchun so'z ma'nolari doirasini, uning matnda ifoda etgan ottenkalari va ma'no ekvivalentlarini ham chuqur bilmoq kerak. Masalan, «**yurmoq**» fe'li «odimlab harakatga kelmoq»dan tashqari «**harakatlanmoq**» (poyezd yurdi), «**suzmoq**» (paroxod yurdi), «**ermalamoq-sudralmoq**» (ilon yurdi), **mavjud bo'lmoq** (u shu yerda yurdi) kabi ma'nolarni bildiradiki, buni anglamagan kishi fikrni to'g'ri ifodalay olmaydi va to'g'ri tushunmaydi.

Ona tilini, uning barcha bo'limlarini mukammal bilmay turib, uslubiyatni o'rganish mumkin emas. Ha, uslubiyatni yaxshi bilmay turib ona tilimizning har qanday fikr, tushuncha, his-tuyg'u, voqe'lik va boshqalarining eng nozik nuqtalarigacha to'la va nafis ifoda eta olishi mumkinligini anglab bo'lmaydi.

Ma'lumki, fikr og'zaki va yozma ravishda bayon etiladi. Har ikki shaklda ham so'z ishlatishda ehtiyojkorlik, mas'uliyat kerak. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur kabi shoirlarimiz asarlarida so'zni o'ylab ishlatish zarurligi ta'kidlangan, bu fikr xalqimizning «Aytilgan so'z-otilgan o'q» maqolida ham o'z aksini topgan.

Og'zaki nutqda so'z qo'llashdagi ayrim nuqsonlar umumiyl fikr ichida sezilmay qolishi yoki tinglovchi uni to'g'ri tushuna bilishi mumkin. Lekin yozma nutqda bunday qilib bo'lmaydi. Yozma nutqda har bir so'zning nominativ, denotativ va konnotativ ma'nolari jiddiy hisobga olinishi lozim. Aks holda fikr noaniq yoki xira bo'lib qolishi mumkin.

Se'z tanlashda quyidagi xatolar sodir bo'lishi mumkin:

1. So'zni noto'g'ri qo'llash.
2. So'zni o'rinsiz takrorlash.
3. So'zni ortiqcha qo'llash.
4. So'zni tushirib qoldirish.

1. **So'zni noto'g'ri qo'llash** so'zning denotativ ma'nosini hisobga olmaslik, konnotativ ma'nosini o'zi bilgancha ishlatish bilan xarakterlanadi. Masalan: O'zbekiston xalqi va uning yengilmas armiyasi terrorchilarning kulini ko'kka sovurib, poytaxt minorasi ustiga tinchlik bayrog'ini qadadi (Gaz.). Bu gapda «g'alaba» o'rninga, «tinchlik» so'zi ishlatilganki, bu so'z matn mazmuniga ham to'g'ri kelmaydi. Aslida, jangdan so'ng g'olib g'alaba bayrog'ini tiklaydi. Yana misollar: O'tgan yili shu **odam qaynamaydigan** joyda bir-t'iki iparta kino ko'rsatildi-yu kutubxonalarining ham eshidiga qulfi urildi. (Og'z.so'zl.). **Hayhotdek** xonada 145 dona kitob...o'quvchi poylab yotibdi. (Og'z.so'zl.). Biz o'z ravbatida **yiroq avlodlarimizga** nimalarni meros qoldiramiz... (Gaz) kabi.

2. **So'zni o'rinsiz takrorlash** nutqni buzadi, siyqalashtiradi, fikrni xiralashtiradi. Shuning uchun ham yozishdan oldin aytimoqchi bo'lingan fikrni aniq-ravshan bayon etishda qaysi so'zdan qayerda foydalanishni o'ylab olmoq lozim. Misollar: o'z-o'zidan **yo'qolayotgan** kiyimlarni **yo'qotishga** chek qo'yish, kerak. (Gaz.) ...she'riy falsafani **nazarimda** ikki she'r...belgilab beradi. **Nazarimda**, bu o'tmish, hozirgi, kelajak avlod oldiga qo'yilgan hisobkitobdir. (Gaz.)

She'riy asarlarda takror (anafora) maxsus usul bo'lib¹ musiqiylik, ma'no kuchaytirish, badiiy zavq uyg'otishga xizmat qiladi. H. Olimjon, Uyg'un, G'.G'ulom asarlarida bunday takror (anaforalar) ko'plab uchraydi.

¹ Qarang: Ishoaoov Yo., Qavtarish san'ati O'TA. – Toshkent: 1972. 2. 83-87-betlar.

Takrorlar turlicha formada har xil ma'nolarni anglatishga xizmat qilishi mumkin.¹

Takrorlar prozaik asarlarda personajlar nutqida kamroq uchraydi, dramatik asarlarda esa ko'plab ishlataladi. Ular ma'noni kuchaytirish, intensivlik va emotSIONallikka xizmat qiladi. Ba'zilari esa o'ylanish, aniqlik, izoh kabi qiymatga ega bo'lishi mumkin. Misollar: **Menga** qiyin, **menga!** (A.Q. ... Kalla deb **jun chiqqan qovoqni** kiyib yurgan ekanman, **jun chiqqan qovoqni!** (A.Q.). Nima qipti, **bo'lishi** mumkin, mumkin. (A.Q.). Juda **o'zgarib ketibdi**, - o'ylardi Abdulla...-juda **o'zgarib ketibdi** (O.U.). **Suvni**, to'lib-to'lib oqqan **suvni** ko'rsam (Y.Sh.).

3. **So'zni ortiqcha qo'llash** muayyan nutq paytida mutlaqo keraksiz bo'lgan so'zning gap ichiga kirib qolishidir. Bu ham nutqni buzishi, noaniqlik va chalkashlikka olib kelishi mumkin. Bunday nuqsonlar ko'pincha mexanik ravishda yoki gapni murakkab tuzishda ro'y beradi. Masalan: Men esa **sizga** o'tgan yilda qilinmay qolgan ishlarning ayrimlarini nima sababdan bajarilmayotganini aniqlab, bunaqa nuqsonlarning takrorlanmaslik chorasini o'playapman (Gaz.).

4. **So'zni tushirish va so'z tanlashdagi noaniqlik** eng qo'pol xatolardan bo'lib, fikriy chalkashlikni keltirib chiqaradi, hatto noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Bunday xatolar ba'zan matbuot xodimlarining maqola-matn hajmini qisqartirishga urinib «tuza-tishi», ba'zan esa muallifning e'tiborsizligi oqibatida sodir bo'ladi. Masalan: Avlodlarga bizdan **ruhimiz** va **ruhimizning moddiy ko'rinishlari** meros qoladi. (Gaz.) Bu gapda «ruhimiz» so'zida noaniqlik bor, «va» dan so'ng esa «shu» so'zlari tushib qolgan. Holbuki, bunday tushirish shu o'rinda mutlaqo mumkin emas edi. Abdullaning she'ri ba'zan qanchalar baland qilib aytilgan qaramaqarshiliklardan xoli bo'lmasa-da, lekin u bizni...ogoh bo'lishga

¹ Qaratgi: Turabova M. Shovlarda gap bol'shikning tekrorlari // OTA, - Toshkent, 1971, 4, 62-64-betlar
Heldor: <http://www.ziyouz.com> // Xozir joy metallardan teljar bo'lgan qurʼon qutubxonasi, OTA, - Toshkent, 1974, 3, 60-63-betlar.

undab turadi (Gaz). Bu gapda ham so'z tanlashda, birikmalar hosil qilishdagi beparvolik sezilib turadi.

So'z qo'llashdagi xatoliklardan yana biri so'zlarni buzib, farqiga bormay ishlatishdir. Bunday nuqson radio va televide niye eshittirishlarida ham, matbuotda ham uchrab turadi.¹ Nutq mada niyatini yuksaltirish uchun kurash kuchaygan, kishilarning fikr bayonida aniqlikka talabi ortayotgan hozirgi kunda bunday xatolarga yo'l qo'yishni odatiy hol deb bo'lmaydi.

Polisemantik va monosemantik so'zlar

1. **Polisemantik so'zlar** barcha nutq uslublarida bemalol ishlatila boradi. Biroq so'zlashuv, publisistik va badiiy uslubda ko'proq, ilmiy, rasmiy ish uslubida nisbatan kamroq ishlatiladi. Masalan, **og'iz**, **burun**, **qulqoq**, **oyoq**, **qo'l**, **ishlamoq**, **o'yynamoq**, **yurmoq** kabi polisemantik so'zlar hamma nutq uslubida ishlatilishi mumkin.

2. **Monosemantik so'zlar**, asosan, termin xarakterida bo'lib, har bir sohaning o'ziga xos atamalari mavjud. So'zlovchi nutq jarayoni (xoh yozma, xoh og'zaki)da vaziyat va fikr yuritilayotgan mavzu talabiga ko'ra ulardan erkin foydalanadi. Biroq, bunda tinglovchi ham shu soha bilan tanish bo'lishi lozim, aks holda nutq tushunarsiz bo'lib qolaveradi. Masalan, vrach agronomga yoki agronom vrachga o'z sohasi terminlarini ko'p ishlatib, har qancha jon kuydirib gapirmasini, nutq tushunarsiz bo'ladi. Shuning uchun ham nutq jarayonida tinglovchining kasbi-kori, ma'lumoti kabilar jiddiy hisobga olinishi zarur.

3. Ayrim polisemantik so'zlar biror nutq uslubida terminga aylanishi yoki termin kabi yagona ma'no ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Masalan, «O'zbekiston fuqarolari dam olish huquqiga ega» deganda «dam olish» birligi yagona ma'no anglatadi. Bu

¹ Sardiy, Karimovcha S. Nauq madaniyeringo so'z masalalari. — Toshkent. Fan, 1975, 17-18-betlar. Maturov A. Nutq mada niyatining ba'zi masalalari. 1972. 34-36-betlar.

ibora jamiyat manfaatlari yo'lida halol mehnat qilib, so'ng o'rtacha ish haqi saqlangan holda mehnat ta'tili shaklidagi «dam olish» tushunchasini ifodalaydi. Ish paytida, ishdan keyin «dam olish» kabilar bu tushunchaga kirmaydi. Demak, bir qator polisemantik so'zlar ilmiy yoki rasmiy ish uslubida monosemantik xususiyat kasb etishi mumkin.

So'zni ko'chma ma'noda qo'llash

1. So'zlovchi fikr ifodalash jarayonida narsa va hodisalarning turli xususiyat va belgilarini bo'rttirish, tinglovchida yanada aniq-roq, ta'sirliroq tushuncha hosil qilish, shu bilan unda emot-sional tuyg'u uyg'otish maqsadida so'zni ko'chma ma'noda qo'llaydi. Bunda u predmet, jonivor va hodisalarga xos bo'lgan xususiyat – belgini insondagi shunga o'xhash belgi-xususiyatga, harakatga qiyoslaydi. Shunday qilib, ko'chma ma'noda ishlataligan so'z uslubiy bo'yoq oladi va tinglovchida fikr obyekti haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Masalan: **tosh yurak**, «**Lola»da ovqatlandik kabi.**

2. **Metafora**¹ (gr.metafora) narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zni ko'chma ma'noda ishlatalishdir. O'zbek tiliga oid barcha manbalarda polisemantik so'zlar ham metafora usuli bilan ko'chish deb talqin qilinadi. Lekin polisemantik so'zlarda, ma'no ko'chishi sezilmas holga kelib qolgan bo'ladi va ularning har biri nominatsiya vazifasini bajaradi. Shu sababli ularni metaforalar sirasiga qo'shish to'g'ri emas. Metafora ma'lum so'zning nutqda gap tarkibida boshqa ma'no uchun vaqtincha xizmat qilishidir! **Olmos qilich** dastimda (A.U.), O'zbekiston **oq oltin** diyori (Gaz.)

Kumush choyshab yopib dala, qir
Qor qo'yнida uxlab yotadi.

* Qarang: Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalaniishi. –Toshkent: Fan, 1983. 22-27-betlar.

Ufqlarga qizil xol tashlab

Zar soch tarab quyosh botadi. (U.)

Metaforalar nutqni obrazli qiladi, kishida emotsiya, estetik zavq uyg'otadi, obraz yaratishga xizmat qiladi, ona tilimizning inson faoliyati tabiat hodisalarining eng nozik nuqtalarigacha bo'lgan barcha tomonini nafis ifoda eta olishga qodir bo'lgan rango-rang serjilo vositalari mavjudligini ong-shuurimizda ravshan namoyon etadi.

3. **Metonimiya** (gr. metonumia) narsa va hodisalarni boshqa nom bilan atash demakdir. Metonimiyada mantiqan o'zaro bog'langan ikki so'zdan birining vazifasi ikkinchisiga yuklanadi, so'zning ko'chma ma'nosi esa tushunchalar o'rtasidagi munosabatga asoslana-di. Masalan: **Navoiyni o'qidim, zal kuladi.** «**Nargiz»da ovqatlan-dim** (Og'z.so'zl.) kabi.

Metonimiya badiiy tasvir vositalaridan bo'lib, so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda keng qo'llanadi, nutqiy ixchamlik, fikriy lo'ndalik, musiqiylik, tasviriy kuchachaytirish uchun xizmat qiladi, pocziyada asarga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Misollar: **bir stakan ichdim** (suv), **bir kosani tushirdim** (ovqat), «**G'ayrat»da tushaman** (bekat), **Hofizni o'qidim** (to'plam, bayoz), **paxtazorda zangori kema suzadi, shahar oyoqqa turdi, zal jim bo'ldi** kabilar.

4. **Sinekdoxa** (gr. sinekdoha) metaforaning bir turi bo'lib, predmetning miqdori tushunchasi bilan bog'liq. So'zlovchi o'z nutqining ta'sirini kuchaytirish, fikrni bo'rttirish, tinglovchida fikr obyektiga nisbatan kuchli munosabat tug'dirish maqsadida butun o'rnida qism yoki aksincha, ko'plik o'rnida birlik yoki aksincha ma'no anglatuvchi so'z yoki shaklni qo'llaydi. Masalan: **tirnoqqa zor, tuyoq oldim.** Boshda gul undirdi. Uyda kim bor? (hovlida deyilmoxchi.) Ey, mard dehqon, bugun hosiling taqdiri hal **bo'lavotir.**

Ko'rinadiki, sinekdoxa kuchli uslubiy vositadir. Undan o'rini foydalanish mazmunni kuchaytiradi, nutqning ta'sirini orttiradi, nutqqa jo'shqinlik baxsh etadi.

Omonimlarning uslubiy xususiyati

1. Mavjud adabiyotlarda omonimlar omograflar, omoformalar, omofonlar deb ajratiladi. «O'zbek tili stilistikasi»da esa to'rt turga ajratiladi. Uslubiy jihatdan omofonlar va omograflar jiddiy ahamiyatga ega emas: ular to'g'ri yozilsa va to'g'ri o'qilsa bo'lgani. Ammo omoformalar (qaysi turkumga mansubligidan qat'iy nazar) maxsus uslubiy vosita sifatida badiiy ijodda, askiya va turli so'z o'yinlarida alohida ahamiyatga ega.

Og'zaki nutqda yoki axborot xarakteridagi ishlarda omonimning muayyan nutq paytidagi birgina ma'nosi nazarda tutiladi. Masalan, «yer tayg'anchoq» iborasida «yer» so'zining «yemoq» so'zi bilan omonim ekanini hech kim o'ylab o'tirmaydi. Lekin badiiy ijodda **bunday so'zlarning turlicha ma'nolari** ma'lum bir maqsadga bo'ysundiriladi.

Omonimlardan foydalanish oddiy so'z o'yini yoki shoirning «o'z talantini ko'rsatishi» bo'lmay, balki uning zaminida so'zni to'g'ri ishlatish, uning ma'nosini to'g'ri tushunishga da'vat etish mazmuni yashiringan.

Publitsistik uslubda so'z tanlashga alohida e'tibor beriladi. Tanlangan so'z vogelikni aniq ifoda etishga, tinglovchida ma'lum bir histuyg'u, davrning aktual masalasiga faol munosabat uyg'otishga ko'maklashadi. Publisist o'z fikr-mulohazalari, ijtimoiy hayotga munosabatini yanada jonliroq ifoda etish uchun barcha nutq stiliiga oid bo'lgan so'z-terminlar, ekspressiv ottenka tashuvchi formalar, badiiy uslubga xos tuzilmalar-tasvir vositalari va boshqalardan unumli foydalanadi va shunday qilib o'quvchi qalbiga kirib boradi, uni o'z ta'siriga oladi.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz she'riyatida tuyuq janrining yetakchi badiiy vositasi omonimlardir.

Tuyuqlarda birinchi misrada bayon qilingan fikr masalaning qo'yilishi bo'lib, ikkinchi misrada bu fikr rivojlantiriladi, mustahkamlanadi, bo'rttiriladi: uchinchi, to'rtinchi misrada esa avvalgi baytning natijasi sifatida xulosa chiqarilib, shoirning subyektiv munosabatlari, mulohazalari, nozik hissiy kechinmalari aks etadi. Bunda oxirgi misradagi omonim (uning ma'nosi) alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan:

Olmani sundi nigorim – **ol!** – dedi,

Olma birla bu ko'ngilni **ol!** – dedi.

So'rdim ersa olmasining rangini,

Ne so'rarsan, olma rangi – **ol!** – dedi (A.N.)

Tig'i ishqing yorasidir **butmagan**

Dardini har kimga aytib **butmagan**.

Hajr sahosida ahim o'tidin

Onda gul yoxud giyohe **butmagan** (A.N.)

Omonimlar boshqa she'riy san'atlarda qofiyaning bir vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.¹ Masalan, masnaviy janrida yozilgan she'riy asarlarda misralar omonim bilan qofiyalanadi:

Bo'ying sarvu sanuvbarteg, beling **qil**,

Vafo qilg'on kishilarga vafo **qil**. (X.).

Tuyuqlar so'z va yordamchi so'z+so'z formasidagi omonim (chartli omofon) bilan qofiyalanishi mumkin:

La'lidan jonimga o'tlar **yoqilur**,

Qoshi qaddimni javodin **yo qilur**.

Men vafosiz va'dasidin shodmen,

Ul vafo bilmonki qilmas, **yo qilur**.

¹ Сарнг. Насиб. С., Йондој. С., Эзгуллаев. М. О'zbek maxsus shaxsiy janrida. Ташкент. Узмувчи. 1979. 166-169 – бетлар.

Dilbarimning sochi sumbul, vuzlari **gulzor erur**
Bo'yina oshiq sanavbar, yuziga **gui zor erur**
(S.S.).

Bundan tashqari, muayyan so'zning omonimik xususiyatini hisobga olib yaratiladigan Lutf san'ati¹ ham mavjudki, bunda bir so'z orqali ikki so'zning ma'nosi o'qila beradi:

Kun tushta ko'rgali seni tushti zavolga,

Oy tong'a qoldi, kecha boqib ul jamolga. (L.).

Birinchi misraning mazmuni: 1. Tush payti, kun seni ko'rish uchun pastga tushdi.

2. Kun seni tezroq tushida ko'rmoq uchun shoshildi-ko'z yumdi-uyquga ketdi-botdi.

Ikkinci misraning mazmuni: 1. Oy kechasi uning jamolini ko'rib, bunday go'zallikka hayron bo'lib qoldi-tang ahvolga tushdi:

2. Oy kechasi ul go'zal jamolini ko'rib, hayratdan tong otguncha unga boqib qoldi. (termilib chiqdi)

Omonimlardan askiya janrida ham keng foydalaniadi.² Chunki askiyada so'zning yo ko'chma ma'nosi yoki omonimlik xususiyati hisobga olinadi:

- Turing, dadasi,... do'konga **mol** kepti.
- A? Nima deding? Ola **molmi**, qora **molmi**?

(H. T.)

Sinonimlar

1. Sinonimlar ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar bo'lib, o'zaro nozik ottenka bilan farqlanib turadi. Shuning uchun ham ayrim hollarda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash ma'noga kuchli ta'sir etmaydi, ammo ayrim hollarda bunday almashtirish mumkin emas. Masalan, boshiga urdi-kallasiga urdi, deyish mumkin bo'l-gani holda «boshim osmonga yetdi» ni «kallam osmonga yetdi» deb qo'llab bo'lmaydi.

¹ Qarang. Ishoqov Yo. She'riy san'atlar. O'TA,-Toshkent, 1970, 1, 88-89 – betlar. Sarimsoqov B., Tajnis. O'TA,-Toshkent, 1971, 6, 82-85–betlar. Boboyev T. Poetik san'at sirlari, ijodiy jarayon va badiiy individuallik. Ilmiy asarlari, Toshkent, 1980, 41-45–betlar.

² Qarang: Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983, 44-bet.

Bir qator sinonimlar o'rtasidagi farq sezilmas holga kelib qolganki, buni aniqlash, tushunish va tasavvur etish hamisha mumkin bo'la bermaydi.¹

Masalan, **isqirt**, **irkit**, **isliqi**, **iqna**; **majol**, **mador**, **hol**; **bo'ron**, **dovul**; **ishq**, **sevgi**, **muhabbat**; **asal**, **bol**; **totli**, **mazali** kabilarning nozik ma'no ottenkalarini izohlash kimlar uchundir qiyin.

Sinonimlar nutqni ravon qiladi, voqeа-hodisalarni nozik nuqtalarigacha aniq va mufassal ifodalash imkonini beradi, shuning uchun ham sinonimlar va ulardan to'g'ri, o'z оrnida foydalanish stilistikaning bosh masalasidir. Stilist sinonimlar o'rtasidagi ottenkani aniq ochib berishga intilishi lozim.

2. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar ma'nosi va qo'llanishiga ko'ra o'zaro farq qilishi mumkin. Masalan, **oraz**, **chehra**, **jamol**, **sabo**, **tabassum**, **dudoq**, **kokil** kabi so'zlar, asosan, poetik (badiiy) nutqqa xosligi bilan; **xasta**, **betob** kabilar eskirganligi va jonli nutqda, **bemor** so'zi badiiy nutqda ko'p ishlatishi bilan ajralib turadi.

Sinonim so'zlarning bir guruhi salbiy yoki ijobiy munosabat bildiradi: ular jonli so'zlashuv va badiiy uslubda munosabat ifodalashga xizmat qiladi: **chehra**, **jamol** so'zları ijobiy; **aft**, **bashara** so'zları salbiy munosabat ifodalaydi, **diydar** so'zi esa qanday so'z bilan birikishiga ko'ra ham ijobiy (diydoriga to'ymoq) ham, salbiy (diydoring qursin) munosabat ifodalashi mumkin.

Sinonimlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- a) so'zlovchining shaxs, predmet va vogelikka munosabatini qo'shimcha izohsiz aks ettiradi;
- b) nutqni ravon, jozibali, ta'sirchan qiladi;
- v) vogelikning nafis nuqtalarigacha (nozik ottenkalar) ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi;

¹ Qarang: Gvozdev A.N. Ocherki po stilistike russkogo vazika. Moskva. 1965. 49-bet.

g) gap ichida o'rinsiz takrorga chek qo'yadi (aks ettiradi, tasvirlaydi, bayon qiladi, ifodalaydi kabi);

d) juftlashib kelganda ma'noni kuchaytiradi, umumlashtiradi;

ye) biri ikkinchisiga aniqlovchi bo'lib kelib, fikrni obrazli ifodalaydi: Saida damo-dam iljayib kulayotibdi, (A.Q.);

yo) birini ikkinchisiga zid qo'yish orqali vaziyatni yumshatishga intilishni ko'rsatadi: Bunisi oq mum ... shimisa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi. (A.Q.);

Ba'zan esa bunday zid qo'yish orqali ma'no kuchaytiriladi: Yig'latti meni demaki, siqtatti meni. (N.);

j) ikki sintaktik butunlik tarkibida qo'llaniб, biri ikkinchisining ma'nosini xarakterlaydi, aniqlaydi, ajratadi: ... yana kului, yosh boladay o'zini tutolmay qiqirlar edi. (A.Q.)

Alisher Navoiy «Muhokamatul-lug'atayn» asarida sinonimlar, ularning qo'llanishi va ma'nodagi farqlarini o'z vaqtida juda keng va aniq bayon qilib berganki, bu zamonlar osha ham o'z qiymatini yo'qotmay kelmoqda.

Antonimlar

1. **Antonimlar** (gr. anti-qarshi va onuma-nom) qarama - qarshi ma'noli so'zlar bo'lib, biri ikkinchisini inkor etadi, lekin bu inkor yangi tushuncha bilan bog'liq bo'ladi. Bu tushuncha esa voqeа-hodisalardа tabiiy manfiy va musbat, tomonlarning mavjudligini hamda ularning o'zaro nisbiy aloqadorligini aks ettiradi. Masalan: katta borligi uchun kichik bor, keng borligi uchun tor bor, kecha borligi uchun kunduz bor, yaxshi borligi uchun yomon bor, demak, antonim qarama-qarshi ikki qutbdir.

Antonimdagи inkor umuman inkor etish emas, biror narsa hodisaning qarshi tomoni (ikki argumentdan biri) ni tasdiqlash orqali inkor etishdir. Masalan: «uzun» so'zining inkori «kalta» («qisqa»)dir. Lekin bu antonimlik inkordir. Uni «uzun emas» deb inkor etish ham mumkin, lekin bunda «uzun»lik inkor etilsa ham.

«**kalta»lik tasdiqlanmaydi.** Shu sababli «**uzun**» va «**uzun emas**» antonim bo'la olmaydi.

Antonim tushunchasi antonim so'zlarining birga (juft) kelishi yoki bir gap tarkibida qo'llanishi bilan bog'liq. Ayrim gap tarkibida qo'llangan antonim fikr ifodasidagi zarur so'z sifatida xizmat qiladi, xolos. Masalan, Uzoq yo'l bosib keldi, gapida antonim yo'q, uzoq so'zi shu gapda tasvir uchun zarur bo'lgan xolos.

Matniy antonimlar deb yuritiluvchi hodisalar mohiyat e'tibori bilan antonim emas, masalan, iliq qarash qildi - yov qarash qildi kabilarda antonimik munosabat aks etsa ham, bu yerda hech qanday antonim yo'q. Demak, leksik jihatdan so'zlar ayrim olinganda bir-birini tasdiq yo'li bilan inkor etsagina antonim bo'la oladi.

2. Antonimlar fikrni lo'nda, aniq va ta'sirli ifodalashdir, badiiy tasvirda turli usullarni qo'llashda muhim uslubiy vositadir. Ulur so'zlashuv, badiiy va publisistik uslubda keng qo'llanadi, rasmiy-isbi va ilmiy uslubda esa kam ishlataladi.

Antonimlarning uslubiy xususiyatlari quyidagicha:

a) narsa-hodisalarni umumlashtiradi, jamlaydi (juft holda), bu juftlik ifodalagan mazmun-tushunchani boshqa so'z, ibora, gap bilan berish mutlaqo mumkin emas. Majlisga **katta-yu kichik to'plandi**. Mana shu umumlashtirish orqali fikr kuchli, ta'sirli va obrazli ifodalanadi;

b) antonimik juftlikdan foydalanib, birining ma'nosi kuchaytiriladi, alohida ta'kidlanadi, tinglovchiga ta'sir etiladi. Kuchaytirish ko'pincha keyingisiga nisbatan bo'ladi: **yuraging yumshoq, irodang qattiq**;

v) real voqelikni tasviriy ifodalashga xizmat qiladi: Saida goh boshqalardan **oldin**, goh boshqalardan **keyin** boychechak aytar edi. (A.Q.) **Tashqarisi** boshqa-yu, ichi boshqa (A.Q.) – kontrast,

antiteza hodisasi; «Sevimli yozuvchimiz Oybek antonimlarning bu xususiyatidan juda ustalik bilan foydalangan».¹

g) ma'noni bo'rttiradi, vaziyatning oxirgi chegara-imkoniyat darajasida ekanini ko'rsatadi: Qalandarov kechani **kecha**, kunduzni **kunduz** demay, o'z ishiga juda qattiq yopishdi. (A.Q.)

Nutqda antonimlarlan o'ylab va o'rinli foydalanish zarur, aks holda fikriy xiralik, chalkashlik kelib chiqadi.

Lug'at tarkibining faol va passiv so'zlari

1. **Arxaizmlar** (yun. archaios – qadimgi) davr o'tishi bilan ayrim narsa, voqeа-hodisalarning yangi atalishi natijasida eski atamaning passivlashuvi sababli ma'lum sharoitda ishlatiladigan so'zlardir. Masalan, **bitik**, **yozuq**, **tilmoch**, **aqcha**, **ulus** kabi so'zlar ma'lum bir tarixiy sharoitda faol qo'llangan bo'lsa, bugungi adabiy tilimizda ishlatilmaydi.

Arxaizmlar uslubiy jihatdan ma'lum darajada ahamiyatga ega. Badiiy ijoddha yozuvchi va shoirlarimiz davr koloritini berish, obraz yaratish, shaxslarning toifasini bevosita ko'rsatish maqsadida tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarida arxaik so'zlardan foydalanadilar: Bitta mushak uch miri! (A.Q.). Qalliqdan vaqting chog'mi? (H.H.)

. Ma'ruza va suhbatlarda, ilmiy-ommabop asarlarda arxaizmlardan foydalanish noo'rindir, tarixiy mavzularda gap borganda esa, ularni dubletlari bilan ishlatgan ma'qul.

Istorizmlar (gr. historia) hozirgi kunda uchramay butunlay yo'qolib ketgan narsa va hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar bo'lib, ularning o'rnini bosuvchi boshqa so'z ishlatilmaydi. Masalan: **omoch**, **bakovul**, **yasovul**, **qozi**, **bek**, **vasiqa**, **gumashta**, **xon**, **amir**, **mirshab**, **vazir**, **qo'rboshi** kabi so'zlar anglatgan narsa

¹ Samadov O. Ovhakning «Bolalik» asari va uning til harida O'TA. – Toshkent 1964 6, 34-bet

predmetlar o'zi yo'q bo'lib ketgan, shu bilan ularning nomi ham iste'moldan chiqqan.

Istorizmlar hech qanday nutq uslubida ishlatalmaydi, faqat tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarda yozuvchi tarixiy narsa-hodisalar haqida to'g'ri, aniq tushuncha berish maqsadida ulardan foydalanadi: ...**ellikboshi** mo'ylabini buradi (O.) Olimbek **dodxoning** sakkiz xotini bo'lib,... (A.Q.) **Amir pristavga** xabar qilishni aytdi. (A.Q.)

2. **Neologizmlar** (yun. neos-yangi va logos-so'z) ijtimoiy hayotda, ilm-fan, texnika sohasida, paydo bo'lgan yangi narsalar, ong-tafakkurda hosil bo'lgan yangicha tushunchalarni atovchi yangi so'zlar bo'lib, ularning ko'pchiligi termin xarakteridadir. Demak, ular jamiyat chtiyojlari tufayli paydo bo'ladi.

Neologizmlar dastlab o'zi aloqador bo'lgan soha kishilar o'rtaida iste'molga kiradi, so'ng ilm ahliga o'zlashadi va nihoyat ommalashadi. Neologizmlar davr o'tishi bilan keng iste'molga kiradi va neologizmlidan chiqadi. Masalan: **erksevar**, **tinchliksevar**.

Bozor iqtisodiyoti, **tadbirkor**, **bakalavr**, **magistr**, **fermer** kabi neologizmlar bugungi tilimizda umumiste'moldagi so'z sanaladi.

Neologizmlardan foydalanishda mavjud tushunchadan boshqa-charoq biror rangdorlik, ma'no aniqligi bilan bog'liq bo'lgan yangicha tushunchani ifodalash nazarda tutiladi.

Neologizmlarning ko'pchiligi ilmiy, publitsistik uslubda qo'llanadi.

Neologizmlar dialektlardan adabiy tilga o'tish orqali ham hosil bo'lishi mumkin.¹

Hayotni, predmetlarni, voqealodisalarni, ular yuzasidan hosil qilingan tushunchalarni aniq aks ettirish uchun neologizmlar hosil qilinadi.

¹ Озаров Шарифжонов С. Сийобадат тилининг тарихи номинатни борчга маданийлигини ишлалари — Ташкент: Fan, 1973, 49-бет.

Neologizmlar abbreviaturalar yasashda haddan tashqari ko'payib ketdi. Albatta, ko'pchilikka tanish bo'limgan korxona, tashkilot, muassasa nomini qisqartirish noto'g'ri. Olimlarning fikricha, «turli sabablarga ko'ra asosiy talabga, ya'ni umumxalq tili tuzilishiga to'g'ri kelmaydigan so'zlarni» ishlatishdan qochish kerak.¹

3. Har qanday til boshqa tillardan olingan so'z, ibora va qo'shimchalar hisobiga boyiydi, taraqqiy qiladi, silliqlashadi. O'zbek tili ham arab, fors-tojik, hind, uyg'ur, xitoy, mongol tillaridan kirgan so'z, ibora va qo'shimchala: hisobiga boyigan. Tilimizda, ayniqsa, arabcha va tors-tojikcha so'zlar anchagina. Masalan: oynoma, ro'znama, manzil, faxriy, hudud, ta'til kabi. Ayrim ibora va affikslar ham bor. Bular umumxalq tili doirasida keng iste'mol qilinadi.

O'zbek tili xorijiy tillar ta'sirida juda boy'ib bormoqda. Xususan, mustaqillikdan so'ng ijtimoiy munosabatlar kuchayishi, fan-texnika hamkorligi va taraqqiyoti tufayli, turli yo'llar bilan rus tilidan so'z elish juda kuchayib ketdi.

Oliqanlarning kundalik hayot bilan bog'iq bo'lgan turlari umumanisticheski bo'lsa, ko'pchiligi soha kishilari natqida uchraydi.

Shuning uchun ularning anchagina qismi ilmiy uslubda, shuningdek, ma'iun sohani tasvirlovchi badiiy asarlarda uchraydi.

Badiiy va publisistik uslubda ekzotik (yun. exotikos) so'zlar uchraydiki, so'zlovchi o'zga yurt, xalq, shu xalqning urf-odati, turmushi, madaniyati haqida to'g'ri va aniq tasavvur hosil qiladi. Ekzotik so'zlar chet el adabiyoti ilg'or namunalarini tarjima qilish orqali ko'payib bormoqda.

¹ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983, 55-bet.

Qo'llanishi chegaralangan leksik qatlarning uslubiy xususiyatlari

O'zbek tili ko'p shevali tillardan hisoblanadi. Shuning uchun uning dialektik qatlami g'oyat boy va xilma-xildir.

1. **Dialektal** farq avvalo so'zlar talaffuzida, grammatick formalarning ishlatalishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adabiy til bilan sheva va shevalararo farq leksik qatlamda ham anchagina. Nutq madaniyatini yuksaltirish uchun jiddiy kurash ketayotgan hozirgi kunda lingvistik va ekstralengvistik faktorlar tufayli bunday farqlar qisqarib bormoqda.

Dialektizmlar mahalliy sheva vakillari va badiiy asarlarda personajlar nutqida uchraydi. Bunda so'zlovchi obraz yaratish, personajlarning qaysi sheva vakili ekanligini ularning o'z so'zlari bilan aytish-mahalliy kolorit berishni ko'zda tutadi: ...nega **o'ziz** shakar lavlagi deysiz? (N.A.) Bugun **bizzanikiga kelila**. (Jonli nutq.).

Dodlama, dodlama, dod **sasi galdi**

Qarshining cho'lidan yor **sasi galdi**. (Qo'shiq).

Adabiy tilda dialektizmlarni ishlatalishda so'zlovchining qaysi sheva vakili ekani ham nutqqa ta'sir etadi.¹ **Adasi** bilan **oyisi** qotib-qotib kulishdi. (N.A.) Dadasi patinjon sotgani ketdi (Jonli nutq.) kabi.

Dialektizmlar kulgi, mazax uchun xizmat qilishi ham mumkin. So'zlarining **mutti**, **mutti**, **bag'rim** yonib ketutti (Qo'shiq).

2. **Professionalizmlar** (lotincha professio-kasb-kor, mutaxassislik) ma'lum kasb-hunar kishilar nutqida ishlataladigan so'zlar bo'lib, muayyan soha faoliyatiga bag'ishlangan badiiy, pub-litsistik va ilmiy asarlarda qo'llanadi. Bunda so'zlovchi o'sha soha narsa-hodisalarini aniq ifodalash, kishilarining nutqiy manerasini aniq **ko'rsatish** maqsadlarini ko'zlaydi. Masalan, xalqimizning tarixiy **taraqqiyoti**, sharoiti, turmush tarzining ko'rinishlari bo'lmish

suvoqchilik, etikdo'zlik, dehqonchilik, chorvachilik, ipakchi-lik, kulolchilik bilan bog'liq bo'lgan qator leksik birliklar borki, bu haqda prof. S. Ibrohimovning «Kasb-hunar leksikasi»¹ kitobida yetarli ma'lumot berilgan.

Termin (lot. termunos-chek, chegara, chegara belgisi)lar ham professionalizmning bir ko'rinishidir. Ular ilm-fan, texnika, san'at, madaniyat kabi sohalardagi ma'lum tushunchalarni aniq ifodalovchi so'z va so'z birikmalaridir. Terminlar hech qanday o'zgarishsiz talaffuz etilmog'i va yozilmog'i lozim. Aks holda ma'no o'zgarib ketishi mumkin: **karta, atlas** so'zlarining o'z urg'usi bilan aytmaslik; **oluv, qo'shuv, ko'paytiruv** so'zlarini **olish, qo'shish, ko'paytirish** deb aytish va yozish ma'noning buzilishi, voqelikning noto'g'ri tasvir etilishi, noto'g'ri tushuncha demakdir. Demak, terminlarni to'g'ri ishlatish uslubiy ifoda nuqtai nazaridan juda muhimdir. Terminlar ilmiy uslubga xosdir. Lekin radio, televi-denkiye, matbuotning omma bilan aloqasi yaqinlashgan sayin bular orqali bir qator terminlar iste'molga kirib bormoqda. Masalan, **menejment, marketing, litsey, kollej, investr, konsern, xolding** kabi so'zlar shular jumlasidandir.

Ommaga mo'ljallangan maqolalar, korrespondensiyalar, reportajlar, ilmiy-ommabop asarlarda terminlarni ko'p ishlatish yoki umumiste'molga kirmaganlarini izohlamaslik xatodir.

3. **Kanselyarizmlar** hayot taqozosi bilan yuzaga kelgan bo'lib, davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro va aholi bilan aloqasi uchun, turli qaror-farmoyishlar, pul va materiallarni rasmiy lash-tirish, hisobga olish, e'lon qilish kabilarga xizmat qiluvchi so'z, iboralardir. Ular terminlarga yaqin, lekin shtamp jumlalari, actualligi, ma'lum darajada ommaga tushunarligi bilan ajralib turadi. **Kanselyarizmlar** rasmiy ish uslubining qurilish materialidir.

Kanselyarizmlarga salbiy qarash, «nutq shtamplarini, siyqa ifodalarni, tayyor shablonlarni hosil qiladi»² deb ularning ahamiyatini kamsitish o'rini emas. «Hosildorlik oshirilsin», «Hosildorlikni oshirish tadbirilari ishlab chiqilsin», «Ichki rezervlar qidirib topilsin» kabi shtamplar o'tkir siyosiy ruhi, ommani harakatga

¹ Ibrohimov S. Kasb-hunar leksikasi — Tashkent, 1950.

² Rozental D. E. Prakticheskaya stilistika russkogo yazika. Moskva, 1965, 53-bet.

keltiruvchi ta'cir burchi ifodaliligi soddaligiga mazmun chiqarilishi bilan nech qachon qarimaydi, siyqalashmaydi. Biroq jangovar ruh kashf etuvchi yuqoridagi shtamplarni «chora ko'rildi», «ko'rib chiqildi», «ishda o'rnak ko'rsatdi», «hammaga namuna bo'lmoqda» kabi siyqa shablonlar bilan aralashtirmaslik kerak. Bunday shablonlar qanday natija berishi mumkinligini N. Aleyev chuqur tahlil qilib bergan.¹

Kanselyarizmlardan satira va yumorda, hikoyalarda, birovlar-ning salbiy xususiyatlarini bo'rttirib ko'rsatishda uslubiy-ekspressiv vosita sifatida foydalanish mumkin: ...o'ynash tutmasin degan zakun yo'q. (A.Q.) **Buyursinlar, buyruqlariga mahtalmiz** (Og'z. so'zl.).

4. **Jargonlar** (fransuzcha jargon) «aslida yuqori tabaqa» kishilarini nutqiga xos bo'lib, tor doirada qo'llanadigan «sinfiy dialektlar»dir, ular ommaga tushunarsiz va umumxalq tiliga yotdir. Jargonlar boshqa tillardan olib ishlataladi: **tashrifi bud etgaysiz**, (keling) **tavaqqu' aylang**, (umid bilan kuting) **tavojjuh aylang** (qarang), **oftobi olam** (podsho), **padari buzrukvor** (ota), **ne'mati jannat** (go'zal mahbuba) kabi.

Yuqori tabaqa vakillari o'zlarini «quyi tabaqa» kishilaridan, mehnat ahlidan ustun ko'rsatish, «madaniyatlarini namoyish qilish», ezuvchilik faoliyatları va hiyla-nayranglarini xaspo'shlash, munofiqona yashirish maqsadida ana shunday yot so'z iboralarni atayin tilga olib kirganlar, nutqlarini «bezamoqchi» bo'lganlar. Bunday so'zlar tilni buzadi va shuning uchun ham xalq tili orasida yashay olmaydi.

Jargonlar badiiy asarlarda maxsus uslubiy vosita sifatida ishlataladi. Bunda so'zlovchi personajlar toifasini «yashirin» ko'rsatish, xarakterini bo'rttirish, o'ziga xos nutq maneralari koloritini ravshanroq ifoda etishni ko'zda tutadi. H.II. Niyoziy, A. Qodiriy, A. Qahhor va boshqalarning tarixiy mavzularda yozilgan asarlarida bunday so'zlar anchagina uchraydi.

Jargonlar hozirgi tilimizda ham uchrab turadi. Bunda so'zlovchi nutqqa hazil tusini berish, kulgi hosil qilish, kesatiq

¹ Aleyev N.. Analitik maqola yoki jangovor korrespondensiya. «Muxtor» jurn., 1973, 18-21-betlar.

kabi maqsadlarni nazarda tutadi: **ellik ikki qadam ranjida qilganimda yozdim** (Gaz.). ...**borsak, bora qolaylik deb, qadam ranjida qildik** (Gaz.). **Ichkilikka ruju qo'yan** (Og'z.so'zl.) kabi.

5. **Argolar** (frans. argotizme-<argot-jargon>) ma'lum bir guruh, toifa o'rtasida tarqalgan «yasama», «to'qima» so'zlar bo'lib, ularning ma'nosini so'zlovchining o'zi va hamtovoqlarigina tushunadi.

Yakan (pul), **noye** (yo'q), **xanjar** (qorin), **xit** (och), **loy**, **yakan** (pul), **harif** (pul egasi), **shabash** (menga ber), **ligavi** (militsiya), **zamri** (tinch tur), **jukur** (qoch), **xamna** (non) kabi.

Argolar ma'lum toifa kishilar faoliyatiga bag'ishlangan asarlarda, personajlar nutqida qo'llanadi va bu bilan individ yaratiladi. Argolar S.Ravshanovning «Chordoqdan otilgan o'q» qissasida ko'p uchraydi.

6. **Varvarizmlar** (yun. varvarismos) ona tiliga e'tiborsizlik bilan qarovchi, o'zini go'yo «madaniyatli» qilib ko'rsatishga intiluvchi kishilar nutqida o'rinsiz ishlatiladigan chet so'zlar bo'lib, tilni bulg'aydi, nutqni esa tushunarsiz qiladi. Varvarizmlarga qarshi kurash umumxalq ishidir.

Personajlar nutqida uchragan varvarizmlar kishilarning salbiy xarakterini ochibgina qolmay, humor uchun ham xizmat qiladi va yengil kulgiga sabab bo'ladi. Ba'zan **varvar** so'z bir personaj nutqi ichida «sezilmay ketadi», bunday chog'da ikkinchi personaj o'sha **varvar** so'zni takrorlaydi va uning o'rinsiz ishlatilgani bo'rtib ko'rindi.

Risolat. Bilmadim. Nechundir **nastrigi buzuq**. Ozoda (o'zini kulgidan zo'rg'a to'xtatib). Kelin oyimning **nastroyeniyasini** kim buzdi ekan? (I.S.)

Zuhra . . . siz **jujur** ham emassiz-da xonim, **to'lka** xotinsiz!

Marasul. Xolam ruschaniyam qoyil qiladilar. «**To'lka** xotinsiz!». (A.Q.)

Varvarizmlardan real voqelikni bo'yoqsiz, ammo haqqoniy tasvirlash, nutq jarayonini aniq ko'rsatish maqsadida ham foydalaniadi. Shu bugunoq «**yest bo'ladi**» (U). Bo'stonga uylanmoqchiman «**Mushayt qilma**» (U.)

Vulgar so'zlar qo'pol, g'ayri madaniy so'zlardir. Ular, asosan, jonli nutqda ishlataladi. Ba'zan badiiy va publitsistik uslubda ham uchraydi.

Vulgar so'zlarni qo'llash orqali so'zlovchi til obyektiga nisbatan shaxsiy (salbiy) munosabatlarni ifodalaydi va tinglovchida ham shunday tuyg'u uyg'otishga muyassar bo'ladi:

Buxoro bir oltin kosa,

Qon, yosh bila limmo-lim

Dayus amiri Olim! (G'.G'.)

To'g'ri, itvachchalar orqamizga o'tib olmoqchi. (U). Yegan anoringni o'ynashing olib kelganmidi? (A. Q) **Ko'rnamak**, it fe'l. (H. H)

Vulgar so'zlar munofiqona, ayyorlik uchun «erkalash» ma'nosida ishlatalishi mumkin: xotinlik bo'lib qolganingga shukur qilsangchi, **bachchag'ar!** (H.H.) Ey, tentak, yuzingni birov ko'rgani bilan yeilib qoladimi? (H.H.)

Emotsional – ekspressiv leksika

1. Umumiste'moldagi odam, uy, daraxt, yaxshi, oq, qora, men, sen, yur, ber kabi so'zlar uslubiy neytral so'zlar bo'lib, barcha nutq uslublarida ishlatalaveradi.

2. Bir qator so'zlar leksik – semantik jihatdan ayrim olinganda ham yo salbiy, yo ijobiy jilo bera oladi: **chehra, jamol, ruxsor- ijobiy; bet, aft, bashara, turq-salbiy; bosh-neytral, kalla- salbiy** kabi.¹

Bundan tashqari, ayrim so'zlar guruhi badiiy uslubga xos bo'lsa, (**sabo, oraz, chehra, jamol, qalb, tabassum, tamanno, tasanno** kabi), ayrimlari ko'tarinkilikni ifodalaydi va tantanali nutqqa xos bo'ladi. (**navqiron, istiqbol, mag'rur, muqaddas, muhtasham, muazzam, azim, ajabtovur, hayratomuz**, kabi.)

Salbiy munosabat bildiruvchi so'zlar qatoriga siyosiy-pUBLITSISTIKADA ishlataladigan **qora guruh, iblis devori, irqchilar, bosqinchilar, soxtalashtiruvchilar** kabi so'z va iboralar ham kira-

¹ Andijonxon A. Olibek olibi shifrazdilning fikrlari. Tashkent, 1992. 72.

di. Ularni nutqda qo'llash orqali xalq, vatan dushmanlariga, bosqinchi to'da va boshqalarga g'azab, nafrat hissi kuchaytiriladi.

3. Evfemizmlar (yun. euphemismos < eu – yaxshi] phemi - gapiraman) yumshoq, yoqimli, madaniy so'z-iboralardir. Ular, ko'pincha, aytish noqulay bo'lgan so'z (iboralar) o'rnida qo'llanadi va bu bilan fikr obyektiga ham, tinglovchiga ham hurmat-ehtirom ifoda etiladi: ikki qat. og'ir oyoq, yukli; ko'z yordi, qulog'i og'ir, ko'zi ojiz, to'laroq, (semiz o'rnida), o'rtog'im (erim, xotinin o'rnida), chuchuk til (duduq) kabi.

Evfemizmlar nutqni go'zal, ifodani ravon, vaziyatni qulay, tinglovchini shod qiladi, kishining madaniyat darajasini ko'rsatadi.

Tabular ham evfemizmning bir turidir. Tabular insonlarning yovuz kuchlar haqidagi afsonaviy latifa to'qimalari, shuningdek o'rinsiz vahimalari tufayli yuzaga kelgan. Masalan, «**bo'ri**» o'rnida qashqir, «**qizamiq**» o'rnida gul; «**chayon**» o'rnida eshak, oti yo'q deb ishlatilishi kabi.

Ijobiy munosabat ifodalovchi so'zlar ham, ma'no e'tibori bilan evfemizmlarga yaqin turadi. Gap tarkibida ularning bo'yog'i aynan bo'lmasa ham, bir xil sinonimdir, lekin farqi shundaki, evfemik so'z bir nomni boshqa nom bilan ataydi.

Kakofemizmlar vulgar so'zlarning bir turidir. Lekin ular frazeologik ibora ekanligi bilan ajralib turadi.

4. Frazeologizmlar ma'lum bir so'zning nominativ ma'nosini uslubiy-ekspressiv bo'yoq, salbiy yoki ijobiy munosabat, ko'tarinki ruh, mag'rurlik yoki achinish ottenkalari bilan ifodalaydi. Ular uslubiy-ekspressivlik jihatdan sinonimlar bilan bir qatorda, tasviriyo-brazilik jihatdan ulardan ustun turadi.

Frazeologizmlar barcha nutq uslublariga uchraydi. Masalan, o'qqa tutmoq kabilar harbiy sohaga, haqing ketmaydi, qo'ling dard ko'rmasin, misi chiqdi, tuyog'ini shiqillatdi, loy bo'ldi, paytavasi chiqdi, o'mbaloq oshdi kabilar so'zlashuv uslubiga: qo'l kotarmoq, ovozga qo'ymoq, qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq kabilalar rasmiy nutqqa xosdir.

Frazeologizmlarda ham sinonimiya, antonimiya hodisalari majjud: tepa sochi tikka bo'ldi-oshmonga sachradi, eg'zi qulog'i-

da-boshi osmonga yetgan, hafsalasi pir bo'ldi-tarvuzi qo'lting'i-dan tushdi, boshi g'ovladi-miyasi vang' bo'ldi (sinonimiya), **to'g'ri yo'lga soldi-yo'lidan ozdirdi**, tepe sochi tikka bo'ldi – boshi osmonga yetdi, dili ochildi-ta'bi xira bo'ldi, oralaridan qil o'tmaydi – oralaridan mushuk o'tgan (antonimiya).

Ko'p ma'nolilik frazeologizmlarda ham uchraydi: **ovozi o'chdi**: 1) jim bo'ldi (gapirmadi), 2) kelmay qo'ydi, 3) harakatdan to'xtadi kabi.¹

Frazeologizmlar nutqni ifodali qiladi, fikrni obrazli va bo'rttirib ifoda etadi, obrazlar xarakterini chizishda, tinglovchiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishda, nutq ta'sirchanligini oshirishda, nutq obyektini muayyan paytdagi ahamiyatini ta'kidlashda so'zlovchiga keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham badiiy nutqda, xalq og'zaki ijodida, jonli so'zlashuvda ulardan keng foydalilanildi.

Obrazlilik darajasi jihatdan ham sinonimik frazeologizmlar farq qiladi: **boshiga yetmoq-boshini yemoq**, **og'zi qulog'ida-boshi osmonga yetdi** kabilarning keyingisida ma'no kuchliroq, obrazli-roqdir.

Frazeologizmlar ixchamlik va lo'ndalik uchun ham xizmat qiladi. Bir frazeologik butunlik ifodalagan mazmunni boshqa hech bir ibora, gap bilan berish mumkin emas. Biroq rasmiy ish uslubida qo'llanuvchi ayrim frazeologik butunliklar nominativ va zifa bajarishi monosemantik xarakterga ega bo'lgani sababli, ularning sinonimini qo'llash- «tarjima» qilish mumkin: **imzo chekmoq** – **imzolamoq**, **qo'l ko'tarmoq-tasdiqlamoq** // **rozi bo'lmoq** kabi. Bunday frazeologik birikmalarda uslubiy bo'yoq bo'lmaydi, yoki bo'lsa ham juda kuchsiz.

5. Hazil-mutoyibalar metafora va metonimiyalarga o'xshaydi va maxsus leksik vositasi yo'q: istalgan so'z, ibora, gap nutq sharoitiga ko'ra hazil uchun xizmat qilishi mumkin.

Ma'lumki, kulgi uzoq umr, vaqtichog'lik, salomatlik va menat inumdotligi garovidir. Shuning uchun xalqimiz uzoq o'tmishdan hazil va askiyaga ahamiyat berib kelgan. Qayerda askiya, nafis hazil bo'lsa, o'sha yerda kulgu, xursandchilik, ruhiy tetiklik, jis-

moniy bardamlik, dillarning ravshanligi, ishning unumi, og'irlikning yengillashuvi va ulkan ishga ishtiyoyq, g'alabaga ishonch bor. Shuning uchun bo'lsa kerakkim, qayerda, qaysi kasb orasiga kirmang, jozibador askiyalar, ko'ngilochar hazil-mutoyibalarni eshitmay qolmaymiz.

Ulug' kishilar, rahbar xodimlarning hazili g'oyat katta tarbiya-ta'sir kuchiga ega.

Hazil - mutoyibalar humoristik hamda chandish shaklida bo'lishi mumkin. Bu turlar badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodida ham mavjud.

Har qanday hazil uslubiy rangdorlik, ekspressiya bilan bog'liq bo'lgan biror maqsad (samimiylit, vaziyatni yumshatish, yengil tanqid, yengil kulgi va boshqalar) ni nazarda tutadi. Masalan: **Muxbir janoblari, bu savolga siz javob bering!** (Umumiy kulgu, chapaklar, (I.S.) Zuhraning so'zini Marasul tanqid va kulgini nazarda tutib takrorlaydi: **Tulki xotinsiz!** (A.Q.)

«O'rtoqlik hazillari», «Yangi yil hazillari» va boshqalar ham kishida zavq-shavq uyg'otadi, ayrim zafarlarga chorlaydi, so'zlov-chining xolis orzu-istagini ifoda etadi.

6. Maqol-matal va hikmatli so'zlar bayon qilinayotgan fikrning gultoji bo'lib, so'zlovchining nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, badiiy ko'rkini oshiradi.¹ Ularda chuqur mazmun, falsafiy mu-shohadaga boy xulosalari, asr-asrlarga teppa-teng daxldor bo'lган qimmatbaho fikr xazinalari gavdalananadi.

Maqollar, matal va hikmatli so'zlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga aloqador bo'lib, ularni o'z o'rnida ishlatmoq darkor.

Hayotda shundayki, ayrim kishilar oddiy munosabatlarda ham maqol, matal va hikmatli so'zlardan, ayrimlari esa she'rlardan, ayrimlari tantanavor so'zlardan ko'p foydalanadi. Badiiy va publisistik uslubda ham xuddi shunday holni ko'ramiz. Bunda yozuvchilar o'z nutqlarini obrazli, shirali qilish bilan birga personajlarga nutqiy xarakteristika berishni ham ko'zda tutadilar. A.Qodiriy, Oybek, G.G'ulom, A.Qaihor asarlarida maqol, matal va hikmatli so'zlar ko'p uchraydi. **Yolg'iz otning yo'rg'asidan chiqarmi chang**

¹ Абдурекон Т., Садиков А., Сабирова О. Мақол жана маталини оларнинг тарзлари // Узбекистон тарзлари. Наманган, 2003, 4-бет.

(G'.G'.) Lekin ularni buzib, noto'g'ri ishlatish («sichqonga don qayda, qassobga jon» deganlaridek) asrlar davomida yaratilgan xalq boyligiga e'tiborsizlik bilan qarash oqibatidir.

FONETIK USLUBIYAT

1. Fonetik uslubiyatning tekshirish obyekti.
2. Uslubiyatning fonetik vositalari.

1. **Fonetik uslubiyat** tilshunoslikning fonetika, fonologiya va morfonologiya sohalarining tekshirish obyekti bo'lgan nutq hodisalaridan qanday maqsadlarda, uslubiy-ekspressiv jihatdan nimalarni ko'zlab foydalanish yuzasidan bahs yuritadi.

Mohiyat va vazifa e'tibori bilan intonatsiya va to'xtam fonetik vosita emas, balki uslubiy vositadir. Lekin ular nutq hodisasiifatida talaffuz bilan, tilning tovush tomoni bilan zikh bog'langanligi tufayli fonetikada o'rganiladi.

Uslubiy ekspressiya nuqtai nazaridan til fonetik vosita materiallaridan adabiy orfografik normalardan «chetga chiqib» foydalanish muhimdir. Adabiy orfoepik normalar doirasida yoziladigan o'zlar talaffuzidagi o'zgalik va, umuman, tovushlarning kombinator va pozision o'zgarishlari ekspressiya hosil qilmaydi. Ular faqat o'zlashuv-og'zaki nutq uslubiga xosligi bilan ajralib turadi, xolos. Bular normativ grammatika /oddiy uslubiyat/ ning o'rganish va adqiq obyektidir.

2. **Fonetik ekspressiya** hosil qiluvchi vositalar, asosan. Quylagilardan iborat.¹

a/ unlini cho'zish. Ma'lum bir so'zdagi unlini cho'zish (kvantitativ urg'u) orqali so'zlovchi mazkur unli ishtirok etgan so'zning na'nosini bo'rttiradi, diqqatni shunga jalb qiladi, nutq paytida hu so'zga qo'shimcha ma'no yuklaydi va shu bilan ekspressiya 'osil qiladi: bosiq tovush bilan dedi:

Ko'o'p yaxshi, keeeng xona, shiriin tabassum kabi;

b/ unlini kuchli talaffuz qilish (unliga zarb urg'usi berish) bilan. Bunda so'zlovchi o'z nutqida keskinlik tusini beradi, fikrning qat'iy va ishonchli ekaniga ishora qiladi, aniqlanuvchining boshqa shu turdan ajralib turishini ta'kidlaydi va shunday qilib, butun gapga qo'shimcha vazifa yuklaydi: **sizni ancha kutdim, tez kel, darrov jo'na** kabi;

v/ undoshni ikkilantirish bilan so'zlovchi fikr obyektiga nisbatan o'zining munosabatlarini, his-tuyg'ularini ifoda etadi, ma'nou kuchaytirishga intiladi, undoshi ikkilangan so'zga diqqatni jalg'etadi: ...**hammasiga sen muttaham** aybdor. Ayyorlikda **uchchiga** chiqqan. **Mazza** qiiib o'tirdik; **Unsin yumm-yumm** yig'ladi (O.) **Nima haqqing tori!** (U.)

g/ ohang orqali gap mazmuni (darak, so'roq, undov) o'zgarishidan tashqari piching, kesatiq, jerkish, achinish, koyish, shodlik, sevinch-quvonch kabilarni ifoda etadi. Demak, intonatsiya ma'noni kuchaytirish, bo'rttirishga xizmat qiladi. **Ha, bu kishining zotini mayiz yemagan!** /A.Q./ Saida. -- **Nima deysiz?** Qalandarov. -- **O'zlarini biladilar!** /A.Q./;

d/ urg'i o'z o'rnila **jo'lranganda** ekspressiya bosil qilmaydi, amino o'ren almashganda, ma'sum bir uslubiy vazifa bajaradi. Bu zarb urg'usi /«b» qism/ bilan bog'liq;

ye/ pauza fikrni ma'lum bir maqsad bilan ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Pauzaning o'ylanish, ikkilanish, sevinish, qo'rqish, davomi bor kabi ma'nolarni ifodalashi bunga misoldir. Dramatik asarlarda qachon, qayerda pauza bo'lishi eslatiladi, badiiy va publisistik asarlarda ko'p nuqta bilan ifoda etiladi, uning qanday ma'noga xizmat qilishi matndan, og'zaki nutqda esa nutq jaryonidan anglashiladi: **Lochinimdan xat keldi. Mana** /U yoq-bu yog'ini axtarib/. **Voy sho'rim, uyda qolganga o'xshaydi...** Hah, esginam **qursin** /O'rnidan turib/. **Zing'illab borib kela qolay...** /U./;

yo/ pauza va logik urg'u birgalikda gap mazmuniga ta'sir etadi, nimaga e'tibor kuchaytirilganini ko'rsatishga xizmat qiladi. Punktuatsiyamizga qo'shimcha belgililar olish haqidagi fikrlar ko-pinchada etilmoqda, lekin bu zarur. Masalan: Hamisha mehnat

baxt keltiradi. Hamisha mehnat baxt keltiradi. Bu ayni bir forma-dagi ikki gapda ikki xil mazmun mavjud, lekin bu mazmunni o'qib, anglab olish imkoniyatiga ega emasiz /yozuvda/, og'zaki nutqda pauza va urg'u bunga yerdan beradi. Birinchi gapda urg'u chanişka so'zida va pauza undan keyin /hamisha/ mazmun baxt keltiradi/, ikkinchi gapda esa urg'a «mehnat» so'zida, pauza undan keyin /hamisha mehnat/ baxt keltiradi/. Gaplar mazmu-nidagi bu nerkik jis o'fedalash uchun belgilari zarur. Bu jorda hamma narxi o'sadi gapning mazmunini ham to'g'ri izelish kerish qiyin.

j/ tovush o'zgarishi bilan erkashot o'tenkas! ifoda etiladi: ja'mi kijim, eyki kijim. Ujum yeysizmi? kabi;

z/ tevesh o'zgarishi va unlini cho'zish orqali erkashot, erkashot, vaziyatni yumshatish, mallum bir ishga ko'ndirish kabi maqsadlar amalga oshiriladi: **Aynonay**, do'qlari ham yarashibdi /U. / **Heey**, akasi, bu yoqqa kelgin. **Oyna...** /rgilay qizimdan /Ya. /;

i/ so'zni bo'g'lnlarga ajratib talaffuz qilish orqali keskinlik, jiddiy tasdiq yoki inkor kabi ma'nolar ifoda etiladi: Aytdimku Sizga, **bor-may-man!** O'qiyman dedimmi, **o'-qiy-man!** kabi.

MORFOLOGIK USLUBIYAT

Til morfologik vositalarning uslubiy xususiyatlari belgi-lashda, asosan, ekspressiya bilan bog'liq bo'lgan tomonlarni nazarda tutmoq lozim, chunki so'z turkumlarining asosiy shakllari, masalan, atoqli ot, turdosh ot, qo'shma ot, sifat, asliy, nisbiy sifat, son, son turlari, fe'l, fe'l shakllarining bir qismi kabilar ekspressiya jihatdan uslubiy xususiyat kasb etmasligi mumkin. Masalan, sonlarning hamma nutq janrlarida ishlatalishi mumkinligini alohida ta'kidlash uchun zarurat yo'q, negaki bu izoh talab qilmaydigan aksiomadir.

Til morfologik vositalarining uslubiy-ekspressiv xususiyatlari taqida gapirganda, otlardagi modal formalar, son, kelishik katego-

riyalarining, sifat darajalari, ularning modal forma hosil qiluvchi elementlari, sonlarning ayrim turlari, olmoshlarning nutq paytiga ko'ra tanlanishi, fe'l formalarining ko'chgan ma'noda qo'llanish holatlari, bog'lovchilarining ishlatilish-ishlatilmaslikdagi ma'no ottenkalari kabilar nazarda tutiladi. Ba'zan esa formalar sinonimiyasi, jumladan, kelishik affikslari almashinuvi, egalik affikslarining tushish-saqlanishi, bir o'rinda ikkinchisi kelishi kabi sinonimik tuzilmalar ham morfologik uslubiyatning tekshirish obyektidir.

Ot formalarining uslubiy xususiyatlari

Ot formalarining uslubiy xususiyatlari dastlab ko'plik ko'r-satkichlari, turlovchilar va subyektiv baho ifodalovchi affikslar misolda zuhur etadi. Til va tafakkur taraqqiyotining bugungi bosqichida insonlar obyektiv olam va uning hodisalaridagi eng olib, ko'z ilg'amas nuqtalaridagi nozik tomonlarni, eng nafis ottenkalarni ilg'ab olmoqdalar va uni tilda mumkin qadar aniqroq, batafsilroq bayon etishga intilmoqdalar. Ana shu zarurat, intilish oqibatida bir shaklni ikkinchi bir mazmun ifodasi uchun qo'llash hodisasi ko'payib bormoqda. Demak, formalarning mazmun taraqqiyoti obyekti real borliq va real voqelikdir.

Ot grammatik kategoriyalarining stilistik xususiyati faqat ularning sinonimiyasi masalasi emas, balki boshqa holatlarda qanday stilistik xususiyat kasb etishi masalasi bilan ham qat'iy bog'langan.¹ Masalan, kichraytirish, erkalaş formalarining ishlatishi kabi.

Bu affikslarda sinonimiya kam uchraydi.

Ko'plik kategoriyasi uslubiyati

O'zbek tilida «ko'plik» degan tushuncha kategoriya sifatida maxsus affiks -lar orqali ifodalanadi. Bu formaning asosiy vazifasi predbetning birdan ortiq ekanligini ko'rsatishdir. Ilg'or fermerlar qisqa muddatda o'z majburiyatlarini bajardilar. (Gaz.)

¹ Bish bandga qarang: Shomaliyodda A va boshqalar O'zbek tili stilistikasi - Tashkent: O'zjurnochi 1997 75-76 - betlar.

-lar formasining mazkur gap tarkibidagi «majburiyatlarini», «bajardilar» so'z formalaridan tushirilishi uslubiy jihatdan to'g'ri emas. Ko'rindaniki, normativ grammatika qonun-qoidasidan chetga chiqish ham uslubiy xatodir. /oddiy uslubiyat/ Oldida son turkumidagi so'z-aniqlovchisi bo'lgan so'zdan so'ng -larni qo'llash ham shunday xatodir.

-lar formasining normativ grammatika qonun-qoidalaridan chetga chiqib, ammo ma'lum bir maqsad bilan ishlatalishi ekspresivlik bilan bog'liqdir.

-larning ko'plikdan tashqari **hurmat**, **kinoya**, **taxmin**, **tur**, **yaqinlik**, **kuchaytirish** kabi ottenkalari mavjud.

Egalik affikslarining uslubiy xususiyatlari

Hozirgi o'zbek adabiy tilida egalik affikslarining variantlari juda kam: **-ngiz**, **-ingiz**, **-nglar**, **-inglar**, **ba'zan -laring**.

-ingiz formasi adabiy va so'zlashuv uslubida bir xil mazmun uchun xizmat qiladi. Qolganlari so'zlashuv /dialektal/ nutqiga xosdir.

Egalik affikslarining qo'llanishida belgili-belgisizlik va qaratuvchi so'zning tushirilishi yoki saqlanishi ma'lum jilo kashf etadi.

1. Qaratqich formasidagi so'z saqlanganda, qaralmishning egalik affiksiz qo'llanishiga imkon tug'iladi. Qaratqich so'z tushirilganda, bunday qo'llanish imkoniyati yo'qoladi.

Qaralmishdan egalik affiksining tushirilishi nutq jarayonida qaralmishning umumiyligi, umumga mansubligi yoki I shaxs ko'plikni ko'rsatuvchi kishilik olmoshida ifodalangan mazmun bir kishiga aloqadorligi nazarda tutilganligini bildiradi: Shundan so'ng **bizning Oygul** yashnab misoli bir gul /H.O. / «**Bizning ko'chada** ham bayram bo'lajak! /G.G'/ Agar yuqoridagi gaplarda qaralmishda egalik formasi saqlansa, «**Bizning /hammamizning/ degan tor ma no kelib chiqadi**. Keyingi gaplarda ham xuddi shunday.

Bizning o'g'il baquvvat o'syapti. (Jonli nutq.) Bu gapda qaralmishning belgisiz qo'llanishi «**bizning** oimoshining birlik

/men/ ma'nosи uchun qo'llanishidir. Agar qaralmish belgili qo'l-lansa, «Mening»lik tushunchasi o'ta mavhumlashuvidan tashqari, yuqoridagi gap semantikasidagi g'urur, quvonch ottenkalari kuch-sizlanib, oddiy axborotga yoki kamtarona, ammo ahamiyati «ka-maytirilgan» gapga aylanib qoladi.

Qaratqichning tushirilishi egalik affiksini olgan so'zga qo'-shimcha ottenka beradi. Bunda quyidagi holat mavjud:

1. Qaralmishdagi egalik affiksi shaxsni ko'rsatib turgani sababli ko'pincha qaratqich tushiriladi. Bunda nutq jarayonida asosiy diqqat egalikni olgan so'zga qaratiladi va shuning o'zi ehtiyojni qondiradi: **Shahrimiz** ko'rakam, **ko'chalarimiz** toza va ozoda.

2. Qaralmishni olgan so'z o'zidan keyingi ko'makchi yoki shu vazifadagi so'zlar bilan bir butun sintaktik funksiya bajarganda, egalik affiksi ko'rsatgan shaxs ega vazifasida keladi va qaratqich vazifasini «o'z» olmoshi bajaradi. Bunday chog'da «o'z» olmoshi qo'llanishi yoki qo'llanmasligi mumkin. Egalik affiksini olgan so'zning ma'nosи ta'kidlanganda, kuchaytirilganda, «o'z» so'zi gap tar-kibida albatta saqlanadi: Men bu binoni **o'z kuchim** bilan qur-ganman.

Bayon etilmoqchi fikr oddiy bo'lganda, «o'z» so'zi qo'llanishi shart emas.

«O'z» olmoshi ham «egalik» bilan turlanib qo'llanishi mum-kin. U o'zining Vatan oldidagi burchini sharaf bilan ado etdi kabi. Bunda «o'z» olmoshi tarkibidagi «egalik» affiksi egalikni ko'rsatmaydi, demak o'zi, o'zim, o'zing, o'zimiz, o'zingiz kabi qo'lla-nishdagi affikslar egalik affiksi emas, shaxs ko'rsatuvchi, shu shaxsni ayrim ta'kidlovchi vositalardir. Gapda «**o'z**» so'zi qo'l-langanda, kishilik olmoshi ko'rsatgan shaxs /shaxslar/ yakkaligi, tanholikka oidlik kuchaytiriladi.

«men» olmoshiga ba'zan she'riyatda **-ning** o'rniga **-im** affiksi qo'shiladi: O'zbekiston Vatanim **manim** /A. O./ kabi.

Bu o'rinda «Men» so'zi qaratqich kelishigida ekani mantiqan aniq.¹ Bunday qo'llanish orqali qarashlilik-xoslik ma'nosи kuchay-tirfladi, ifodadagi ravonlik, musiqiylik ortadi.

¹ Garang: Shomahsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983, 98-bet.

Egalik affikslari og'zaki nutqda, shuningdek, badiiy asarlarda biri o'rnida ikkinchisi qo'llanganda, kamtarlik-mag'rurlik, erkalash ottenkalarini ifodalashi emotsiya hosil qilishi mumkin.

1. Keling, **xolasi** //akasi//, **ammasi** tarzidagi qo'llanishlarda egalik affiksi ortiqcha, lekin kamtarlik, o'ta sidqidillik, goho erkalanish ifodasi uchun I shaxs egalik affiksi ishlatiladi.

2. II shaxsning birligi o'rnida III shaxs birligi formasini qo'l-lash orqali evfemistik munosabat, vaziyatga yumshoqlik kiritish maqsadlari ko'zda tutiladi: **Akasi jonidan**, sizga navbat /S.A./ ...Qiyaganingiz yetar, **jonidan** ... ko'p intizor qilmang /S.A./ ... kabi.

3. **Akasi**, beda tashlab qo'y. /S.A./ tarzidagi qo'llanishlarda so'zlovchi o'zining kattaligi, obro'si va boshqa imtiyoz egasi ekanligini ifoda etadi va vaziyatni yumshatish, silliq muomala maqsadlarini ko'zda tutadi.

4. I shaxsning birligi o'rnida ko'pligi qo'llanishi bilan so'zlov-chining kamtarligi, iymanishi, tortinishi kabi ma'nolar ifodalanadi: «**O'g'limiz** olim bo'lsin, - dedi Dildor». /O./ «**Ishimizda** hali kamchiliklar bor, - dedi otaxon». /ishimda demoqchi/. **Taxallusimiz** bu. **O'zimiz** tanlaganmiz. Biz ham she'riyat **muxlisimiz**. Uncha-muncha mutolaa ham qilib turamiz. /Jonli nutq./

Kelishik affikslari sinonimiyasining uslubiy xususiyatlari

Kelishik affikslarining normativ grammatika qonun-qoidalari talabiga muvofiq ishlatish yoki uning buzilishi oddiy uslubiyatning obyektiidir.

Kelishik formalarining ko'makchilar bilan sinonimik munosabati, ular o'rtasidagi ma'no nozikliklari ko'makchili sinonimik tuzilmalarning xususiyati bahsida yoritiladi.

Bosh va qaratqich kelishikiariaro sinonimiya

Bosh va qaratqich formalari sinonimiyasi hozirgi zamon til-shunosligining muammolaridan biridir. Darhahiqat, sen kelganingga xursandman, Men borganinga quvondi. U kelishi bilan yig'ilish

boshlandi kabi gaplar tarkibidagi «sen», «men», «u» olmoshlari bosh kelishik shaklidami yoki belgisiz qaratqich formasidami ekanı yuzasidan yaxlit fikr yo'q.

Uslubiy nuqtai nazardan va, umuman, bu so'zlar bosh kelishik formasida bo'lib /belgisiz qaratqich emas/, «kelganing», «borganimiz», «kelishi» so'zlaridagi «egalik» affikslari o'zi qo'shilgan so'zning o'zi ko'rsatgan shaxsni bildiruvchi so'z bilan munosabatini qat'iy lashtirish, aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bu ma'noda ular egalik qo'shimchalari emas, shaxs-son affikslaridir.

Qaratqich va bosh kelishik formalarining vazifaviy qo'llanishi nutq jarayonida so'zlovchining nimani tasdiqlamoqchi ekaniga bog'liq. Masalan, ma'lum ish-harakat, holat va boshqalarning sababi, payti, obyekti ikkinchi birlikdagi subyekt va uning predikati ekanı axborot shaklida birinchi o'rinda turganda, sabab, payt, obyekt tushunchasini ifodalagan o'sha birlikning subyekti bosh kelishik shaklida bo'ladi: **Sen kelganingga xursandman**. Bu gapda xursandlik manbai-sababi «sen kelganing»dir. Shuning uchun ham bu gap tarkibidagi «sen» sof bosh kelishik formasidadir.

Agar harakat-holatning sababi, payti, obyekti birinchi harakat-holatning o'zigina bo'lsa, bu harakat-holatning subyekti qaratqich formasida qo'llanib, aniqlovchi vazifasiga o'tadi: **Sening kelganingga xursandman**. Bu gapdan «sen kelding, shuning uchun xursandman» degan emas, «sening boshqa ishingga emas, kelganingga; boshqaning emas, sening kelganingga» degan ma'no kelib chiqadi.

Qaratqich va bosh kelishik shakli almashinuvadagi bunday uslubiy xususiyat shunday tuzilmalarning barchasiga xos.

Bosh va tushum kelishiklariaro sinonimiya

Bosh va tushum kelishigi formalarining vazifadoshligi-sinonimik tuzilma hosil qilishi o'timli fe'ldan anglashilgan harakat-holatning butun gapga yoki shu gapning biror bo'lagiga taalluqli bo'lishiga bog'liq: **Sizni otamsiz deganman men. – Siz otamsiz**

deganman men. Itni qopmaydi deb bo'lmaydi. – It qopmaydi, deb bo'lmaydi.

So'zlovchi nutq jarayonida «ko'chirma gap»dagi kesimga e'tiborni jalb qilganda, ko'chirma gap egasi bo'lgan so'zni o'zi ta'kidlash zarurati tug'iladi, natijada o'sha so'zni «o'zlashtiradi» va tushum formasida qo'llaydi: **Erkaklarni** qaridi, keksaydi deb bo'l-maydi /O./ «Biz bu yosh **qizni** guruh boshlig'i deb faraz ham qilmagan edik». /Gaz./ Tanqid qilgan **kishini** o'z og'aynim deb hisoblamayman. /A.Q./ Quyidagi **talabalarni** universitetni bitir-gan, deb hisoblansin. /Buyruq/. Bu kabi tuzilmalarda ko'chirma gapning kesimi bilan deb muallif gapi kesimi hukmiga o'tadi, o'zlashtirilgan ega esa to'ldiruvchi bilan bir butun holda kesimlik vazifasida keladi.

Bu kabi gaplar ko'chirma gaplarga o'xshaydi, biroq, bu «ko'chirma gap» muallifning ichki gapi – o'z gapi bo'lib, nutq ijrosidan oldin xayol (fikr)da voqe bo'lgan gap shaklida biz muallif gapi deb atagan gap bilan birikib ketadi va har ikkisi «deb» orqali o'zaro bog'lanadi. Masalan: «**Siz otamsiz**» gapi nutq jarayonidan oldin fikrda voqe bo'lgan. Bu fikrni tinglovchiga aytish jarayonida so'zlovchi asosiy diqqatni shu gapga qaratsa, «**Siz otamsiz debman men**» shaklida, agar gapning kesimiga qaratsa, «**sizni otamsiz deganman men**» shaklida qo'llaydi. Ega tushum formasida qo'llanilganda, ikki hukm /otamsiz va degan-man/ ni birdaniga o'ziga qaratadi.

Bosh va jo'nalish kelishiklariaro sinonimiya

Bosh va jo'nalish kelishigi formalari ayrim hollarda vazifaviy qo'llanmog'i mumkin va ular uslubiy ifoda nuqtai nazaridan nozik ma'no ottenkasi bilan o'zaro farqlanadi. Masalan: **hovuz suvga to'ldi-hovuzga suv to'ldi;** ko'yngi qonga bo'yaldi-ko'yngiga gon bo'yaldi; osmon moviy tusga kirdi-osmonga moviy tus kirdi; arqon qo'yga bog'landi-arqonga qo'y bog'landi kabi.

Bunday tuzilmalarda so'zlovchi nimaning nimaga vosita sifa-tida qo'llanishini nazarda tutadi. Masalan, nutq paytida diqqat ho-vuzga qaratilisa, /hovuz haqida so'z borsa/, novuz bosin kelishik,

suv vosita bo'lsa, u jo'nalish kelishigi formasida qo'llanadi: **hovuz suvga to'ldi**. Agar diqqat suvga qaratilsa /suv haqida gap ket-sa/, u bosh, o'rinni ko'rsatgan so'z esa jo'nalish kelishigi formasida qo'llanadi: **hovuzga suv to'ldi** kabi.

Ko'rindik, bosh kelishik formasidagi so'z harakat qiluvchi, jo'nalish formasidagi so'z esa tinch turuvchi predmet sifatida /shakliy tomondan/ o'qiladi. Holbuki, ayrim hollarda bunday bo'lishi mumkin emas. Masalan, hovuz hech qachon suvga tomon harakat qilmaydi. Shunga qaramay, bu so'z uslubiy ifoda maqsadiga ko'ra bosh kelishik shaklida /harakatdagi predmet kabi/ qo'llanadi.

Bosh va o'rin-payt kelishiklariaro sinonimiya

Tabiat va jamiyatdagi ayrim hodisalarni obrazli yoki nisbatan aniq ifodalash maqsadida, shuningdek nutq paytida nimaga e'tibor qaratilishi tufayli ayrim hollarda bosh va o'rin-payt kelishiklari o'zaro vazifaviy qo'llanishi mumkin: **rul qo'limda-qo'lim rulda**. **Suv oy nurida jilvalanadi – Suvda oy nuri jilvalanadi** kabi.

Predmetlarning ko'rinish tasviri obrazli ifoda etilishi nazarda utilganda, so'zlovchi vosita rolini o'tovchi predmetni bosh kelishik formasida qo'llaydi.

Masalan: **Suvda oy nuri jilvalanadi**. Bu gapda jilvalangan narsa aslida suv, jilvalantirgan vosita esa nурdir. Lekin so'zlovchi tinglovchi diqqatini nurga qaratgani, nur haqida fikr yuritgani uchun bu so'zni bosh kelishik formasida qo'llaydi. Bunday almashinuvalarga «jilvalanmoq», «tovlanmoq», «mavjlanmoq», «aks etmoq», «altiramoq» /yiltiramoq/ kabi fe'llar boshqaruvchi bo'lib keladi: oftobda chiniqqan **badani terda yaltiradi**. /Darslik/. ...**badanida ter yaltiradi** //yiltiradi// aks etardi. Yomg'irdan so'ng psil bo'lgan kamalak quyosh nurida mavjlanadi - quyosh nuri **kmalakda mavjlanadi** kabi.

'osh va o'rin-payt formalari sinonimiyasi boshqa hollarda ham ichraydi. Bunda ham ayni bir vogelikning qaysi temoniga e'tibr kuchaytirilishi nazarda tutiladi. Masalan: **Fikrizikrimda che-Fikrizikrim cho'lda**, **Xayolimda sen-Xayolim senda**, **Vuramda aiäm o'tida yonadi-Yuragimda aiäm o'ti yonadi** kabi.

Bosh va chiqish kelishiklariaro sinonimiya

Bu ikki formaning vazifaviy almashinuvi butun va qism /bo'lak/ tushunchalari bilan bog'liq. Lekin ayrim hollarda jins-tur tushunchalari bilan aloqadorlik ham uchraydi. **To'yga ashulachilardan chaqirildi** kabi qo'llanishlarda qism tushunchasi, **talabaldan keldimi?** kabilarda esa tur tushunchasi mavjud.

So'zlovchi muayyan gap tarkibidagi harakat subyektini aniq atamoqchi yoki umumdan ajratilgan alohida tur /qism, guruh/ yuzasidan axborot bermoqchi bo'lganda, mazkur gapning egasini bosh kelishik formasida qo'llaydi. **«Ashulachilar chaqirildi»** ga-pida **«ashulachilar»** formasi orqali grammatik subyekt /logik obyekt/ aniq ko'rsatilgan. **«Talabalar keldimi?»** gapida esa sub-yektlar umuman boshqalardan alohida ajratib olingan guruh sifa-tida namoyon bo'ladi.

So'zni chiqish formasida qo'llash bilan so'zlovchi kamtarlik, ta'kid kabi ottenkalarni qo'shib ifodalamoqchi bo'ladi. **«Ashula-chilardan chaqirildi»** formasida **«ha, chaqirildi»** degan ta'kid va **«ha, ulardan ham chaqirdik»** degan kamtarlik ma'nosi mavjud. **«Talabalardan keldimi?»** shaklida esa ta'kid va qism tushunchasi mavjud. **«Ashulachilardan chaqirildi»** shaklida ularning miqdori degan tushuncha yo'q. Talabalardan keldimi **«keldi»** kabilarda esa miqdori degan tushuncha aks etib turadi.

Ayrim hollarda esa bosh kelishik shaklini qo'llash bilan qat'iylik (Menda mehribonchilik yo'q), chiqish formasini qo'llash bilan bir oz yumshoqlik, muloyimlik, kamtarlik, o'ychanlik, ta'sir-chanlik kabi munosabatlar ifoda etilishi mumkin. Menda mehribon-chilikdan yo'qroq kabi. Bunday tuzilmalarning kesimi ko'pincha **«bor»** va **«yo'q»** so'zlari bo'ladi.

Qaratqich va chiqish formalariaro sinonimiya

Bu ikki formaning vazifaviy qo'llanishi butun va qism to'da, guruh / tushunchasi bilan qat'iy bog'langan. Agar muayyan so'zdan anglashilgan shaxs-predmet kesimdan anglashilgan hukmga aloqador bo'lmasa, bu so'z faqat qaratqich formasida qo'l-

lanadi: **Maktabning** bog'i katta. **Mening** otam firmada ishlaydi (Jonli nutq.) va hokazo.

Agar qaratqich formasidagi so'z biror tomoni bilan kesimdan anglashilgan hukmga /yoki fe'l formasiga/ aloqador bo'lsa, u holda chiqish formasi bilan sinonim sifatida qo'llanishi mumkin: ...**talabalarning** biri keldi. Demak, bu gapda qaratqich keli shigidagi so'z qism munosabatlari bilan kesimiga aloqador, ya'ni «**kelmoq**» harakatining ijrochisi bari bir talabadir. Shuning uchun ham bu gapni biz «**talabalardan biri keldi**» deb qo'llay olamiz.

Qaratqich formasining chiqish kelishigi bilan vazifaviy-sinonim bo'lib qo'llanishi uchun gap tarkibida ishtirot etgan /ba'zan tu-shirilgan/ qaralmish miqdor bildiruvchi so'z bo'lishi shart. Misol: Alisher ulardan **ko'pini** bilardi. (L.B.) Ulkan **odamlardan biron-tasi** yo'qligi ularning mavjud emasligini bildirmaydi. Qo'lingizda o'qigan **talabalardan ikki-uchtasi** fan nomzodi bo'lib yetishgan /N.A./ Qani endi **shundan to'rttasini** uzatib yuborsa /A.Q./

Belgi bildiruvchi so'zlar egalik affiksini olgach, miqdor tu-shunchasi bilan bog'liq bo'lib qoladi: Olmadan **yaxshisini** ol. Qovundan **katta-kattasini** tanla (Og'z.so'zl.) kabi.

Nasriddin afandi **latifalaridan eng qiziqlarini** ketma-ket aytadi. /O./ Temurning **nevaralaridan eng iste'dodlisi** Ulug'bek edi. (L.B.)

Ko'rindiki, belgi bildiruvchi so'zlar yuqoridagi gaplar tarkibida miqdor tushunchasi bilan bog'lanadi. /to'da, butundan qismni ajratadi/, Shuning uchun ham bu kabi tuzilmalarda qaratqich va chiqish formalari vazifaviy qo'llana oladi.

Ba'zan miqdor bildiruvchi qaralmish so'z gapning kesimi bo'lib yoki kesim tarkibida kelishi mumkin: Oqiljon ilg'or **talabalarning** // **talabalardan** biridir kabi.

Tushum va jo'nalish formalariaro sinonimiya

Tushum va jo'nalish kelishigi formalarining vazifaviy qo'llanishi usiubiy sinonim sifatida ishlatalishi o'timli fe'ldan anglashilgan-harakatning obyektga qisman ta'sir etishi yoki shu obyektga borib qadalishi kabi tushunchalarni aks ettirishi, shuningdek.

o'timli fe'lning ichki formasi o'zgarishi bilan bog'liq.¹ Otni minmoq, otga minmoq; oyoqni tepmoq-oyoqqa tepmoq; eshikni chertmoq-eshikka chertmoq; stolni mushtlamoq-stolga mushtlamoq; yelkani qoqmoq- yelkaga qoqmoq kabilarda tushum formasi qo'llanganda harakat o'tgan /ta'sir etgan/ obyekt butun holda tushuniladi; jo'nalish formasi qo'llanganda esa harakat obyektiiga yon yoki ustki tomondan qisman ta'sir etadi. Ayrim hollarda ma'nodagi farq sezilmas holga kelib qoladi. «Otni mindi-otga mindi» /bunda ma'no juda yaqinlashadi/.²

Harakatning ma'lum territoriyada sodir bo'lishini bildiradigan fe'llar tushum formasida obyektni doira shaklida qamrab oladi: **dalani aylanmoq**, **Qrimni sayohat qilmoq**; jo'nalish formasida esa harakat obyekt ichida ro'y beradi yoki yo'naladi: **dalaga aylandi**, **Qrimga sayohat qildi**. Biroq bunday sinonimik tuzilmalarning, sinonimlarning ma'nodagi farqini aniq ifodalab bermoq hamisha oson bo'la beraq aydi.

Masalan, **gapga tushunmoq** - **gapni tushunmoq** kabilarning ma'nodagi farqini sezish ham g'oyat qiyin. Biroq ayrim hollarda bu formalar /-ni va -ga/ ni almashtirish-sinonim sifatida ishlatalish mutlaqo mumkin emas. Masalan: Voqelikni estetik idrok etish deb nimani tushunasiz? (Gaz.) bu gapni nima deb tushunadi-yu, u odamga qanday ko'z bilan qaraydi. ... (Og'z.so'zl.)

Tushum va jo'nalish formalarining sinonimik vazifa bajarishi ayrim fe'llar semantikasidagi ichki o'zgarish bilan bog'liq. Masalan, **o'rganmoq**, qaramoq, boqmoq, boshlamoq, o'dag'aylamoq kabi fe'llar ichki formasi o'zgargan so'zlardir. «O'rganmoq» fe'li «bilib olmoq» ma'nosida tushum; ko'nikmoq, moslashmoq, odatlanmoq ma'nosida jo'nalish formasini boshqaradi: Navoiy asarlarini o'rgandi /-ga mumkin emas/, -choyxonaga o'rgandi/ -ni mumkin emas/. Ham bilib olish, ham ko'nikish ma'nosida esa har ikki formani teng boshqara oladi. /yozishni//yozishga o'rgandi kabi/ «Qaramoq», «boqmoq» fe'llari axtarmoq ma'nosida tushum, nazorat qilmoq ma'nosida jo'nalish formasini boshqaradi. /atrofni qaradi, at-

¹ Bu haqda to'laroq ma'lumot olish uchun qaralsin: Iminov M.. Hozirgi o'zbek tilida kelishik formalarining vazifadoshligi, KD, - Toshkeni, 1976, 65-135-beilar.

² G'ulomov A. Fe'l. -Toshkent: Fan, 1954, 55-bet.

rofga qaradi/. Ham qarash, ham nazorat qilish ma'nosida har ikki formani boshqaradi. /**bolani** // **bolaga qaradi.** / Norbo'taning qizi doktorlikka o'qiydi /A.Q./ - kitobni o'qiydi. /-ka o'qiydi formasida o'qish-bilishdan tashqari kasb o'rganish tushunchasi ham bor./

Tushum va jo'nalish formalari gap tarkibida qo'llangan ikki obyektdan qaysi biriga e'tibor jalg etilishiga ko'ra ikki so'zda vazifaviy o'rin almashadi. Bunda tushum formasidagi so'z harakat ijrosini o'z ustiga olgan, jo'nalish formasidagi so'z esa harakat yo'nalgan predmet bo'ladi: Uni **uydan nariroq borib turishga** ishora qildi – unga **uydan nariroq borib turishni** ishora qildi. Karvon saroy egasi bu **botirlarga O'rdaga borishni taklif qilibdi.** (Ertak) ...**botirlarni O'rdaga borib turishga taklif qilibdi.** O'qigan qizlarga ish buyurib bo'ladimi? /U./ O'qigan qizlarni ishga buyurib bo'ladimi? Savdogar bir qutini **oltunga to'lg'izib,** beribdi. ...bir qutiga oltinni to'lg'izib beribdi. (Ertak)

Tushum va o'rinc-payt formalariaro sinonimiya

Figural harakatni bildirgan «kezmoq», «aylanmoq», «izg'i-moq», «sayohat qilmoq» kabi fe'llar obyektni ham tushum, ham o'rinc-payt kelishigi formasida boshqarishi mumkin. Bunday fe'llar ma'lum bir territoriyani to'la yoki qisman bosib o'tilganini yoki harakat shu territoriya ichida sodir bo'lganini bildiradi. Bosib o'tilgan masofani to'la ekani nazarda tutilganda, obyekt tushum formasida bo'ladi, harakat obyektni figural qamrab oladi: **kimsasiz hovlini keza boshladı.** ... **tandir atrofini aylanib uvlaydi.** Dalani izg'ib keldi kabi.

Harakat obyekt ichida sodir bo'lganda, obyektning to'laligi nazardan soqit qilinganda, fe'l o'rinc-payt formasini boshqaradi. Kimsasiz hovlida keza boshladı. ...**tandir atrofida aylanib uvlaydi.** **Dalada izg'ib keldi** (Og'z.so'zl.) kabi.

Demak, bu xil qo'llanishlarda to'lalik va to'la emaslik tushunchalari aks etgan bo'ladi.

Tushum va chiqish formalariaro sinonimiya

Tushum va chiqish formalarining sinonimik qo'llanishi, asosan, butun va bo'lak tushunchalari bilan bog'liq: **nonni yemoq-nondan yemoq** kabi. Lekin bunday sinonimik qo'llanish jins va tur tushunchalari o'rtasida bo'lishi ham mumkin.

Nutq jarayonida so'zlovchi to'da-guruhdan uning ayrim turi yoki mustaqil butun bo'lagi haqida fikr yuritganda obyektni chiqish formasida qo'llaydi.

Masalan: Uyda o'tirib g'ishtdan, toshdan tilla qiladigan xotin kimga yoqmaydi? /A.Q./ Tokcha ustida yotgan papirosdan olib ... lampadan tutatdi. /O./ Bu misollarda «g'isht», «papiros» so'zлari ayrim olingan butun tushunchasi /guruhto'dadan biri yoki bir nechasi/ ni bildiradi. Bu so'zlar tushum formasida qo'llanganda umumiyliz /g'ishtni, toshni/ yoki mustaqil, to'da-guruh bilan bog'liq bo'limgaganlik /papirosni-demak, bir dona papiros/ tushunchasini ifodalaydi.

O'g'ilchasi Mahmudjonning peshonasidan o'pdi. /A.Q./ **Suyarni boshidan, yuzidan o'pdi, quchoqladi.** /A.Q./ kabi hollarda fe'ldan anglashilgan harakatning qaratqich yoki tushum formasida bo'lgan olmosh ko'rsatgan shaxsga taalluqli ekani, lekin ana shu shaxsga qism orqali ta'sir etgani ifoda etiladi. Obyekt tushum formasida qo'llanganda, harakatning ana shu qism doirasida voqe bo'lgani ifodalanadi. Tushum va chiqish formalariaro sinonimik qo'llanish boshqa hollarda ham uchraydi.

Subyektiv baho formalarining uslubiy xususiyatlari

Subyektiv baho formalari, asosan, og'zaki nutq tufayli badiiy nutqda ishlatiladigan ifoda vositalaridandir. Subyektiv baho formalari -cha, -gina, -choq, -chik, -loq, -jon, -xon kabi affikslar bo'lib, o'zi qo'shilgan so'zdan anglashilgan shaxs-predmetga so'zlovchining turlicha munosabatini ifodalashga xizmat qiladi.

Subyektiv baho formalari erkalatish, kichraytirish va hurmat ma'nolari uchun qo'llanadi:

1. Kichraytirish ottenkasi. Bu ottenka -cha affiksi orqali hosil qilinadi. So'zlovchi nutq jarayonida o'z tinglovchisiga ruhiy ta'sir ko'rsatish, ko'nglini ko'tarish va yumshoq vaziyatni yuzaga keltirish maqsadida yoshiga nomunosib bo'lishiga qaramay, «yigit», «qiz», «aya» so'zlariga -cha ni qo'shib ishlatadi. Ba'zi hollarda bu affiks «bola», «bo'ta», «tog'a», «kelin» so'zlariga qo'shilishi ham mumkin.

-cha «qo'l», «oyoq», «burun». «og'iz», «qulqoq» kabi so'zlariga qo'shilganda, kichraytirish emas, erkalash ma'nosini ifodalaydi. So'zlovchi nutq obyektining /aniqrog'i: bolaning/ xatti-harakatlari yoki, umuman, holatidan zavqlanganda, unga ichki his-tuyg'u jo'shqinligi bilan munosabatda bo'lganda, yuqoridagi kabi so'zlarga -cha ni qo'shib ishlatadi. - cha affiksi (chacha formasida) bir so'zda qator takrorlanganda ham kichraytirish, ham ma'no jilosini kuchaytirish maqsadini ifodalaydi: **Keldilar to'yga maqsumu maqsumchayu maqsumchacha.** (Og'z. so'l.)

Bu qo'shimcha «tugun», «eshak», «nuuqr», «uy» kabi so'z-larga qo'shilganda, shuningdek, yosh yigit-qizlarga nisbatan ishlatilganda, uslubiy bo'yoq kasb etmaydi: Singilcham ovundi /N.A./ I-ya mushukcha deb qichqirib yubordi. /N.A./ Balki, real narsani hajm jihatdan nisbatan kichik bo'lgan predmetni aks ettiradi. Uslubiy bo'yoq kasb etganda, kichraytirish ottenkasiga kamtarlik ham qo'shiladi.

- cha affiksi salbiy ottenka ifodalashi ham mumkin. Ma'lum bir shaxs-predmetning xatti-harakati, qiling'i yoki boshqa biron tomoni so'zlovchining qarashlariga mos kelmasa, u o'zining salbiy tuyg'usini o'sha shaxs-predmetni ko'rsatgan so'zga -cha ni qo'shish orqali ifodalaydi.

-choq, -chiq affikslarinng o'zak-negizga qo'shib ishlatish orqali subyektiv munosabat bildirish hodisalari og'zaki so'zlashuv va badiiy nutqqa xos xususiyatlardandir. Bu ikki affiksni sifat, shuningdek ot yasovchilar bilan aralashtirmaslik lozim: maqtanchoq //chiq, qizg'an+choq // chiq, o'yin+choq // chiq.

- choq affiksi jonivor nomini bildiruvchi, -chiq esa jonsiz predmetni ko'rsatuvchi so'zlarga qo'shilib, asosan, kamchilikni ifo-

dalashga /ekspressiyasiz/ xizmat qiladi. Ba'zan esa so'zlovchining iymanishi, kamtarligi kabi ottenkalarni ifodalashi mumkin: Ha, ikkitagina **qo'zichoq** oldim. (Og'z.so'zl.) Bu yerda qo'zi oldim deyilmoxchi. **Qopchiqda** bug'doymi, arpami bor edi. (Jonli nutq.) /qopda deyilmoxchi./ «**Qo'zichog'im**», «**toychog'im**», «**bo'talog'im**» kabi qo'llanishlar leksik uslubiyat obyektidir.

-chak affiksi «kelin» so'ziga qo'shilganda kichraytirish emas, yangilik, yangi kelinlik tushunchasini ifodalashga xizmat qiladi. Bu so'z kelining turmush o'rtog'idan boshqa kishilar nutqida qo'llanganda, egalik affiksini olmaydi. Bu kelinchak juda ham iffatl. Agar egalik affiksini olsa, so'zlovchi uning turmush o'rtog'i bo'lib qoladi. Turmush o'rtog'i ma'nosida qo'llanganda istalgan yoshdagi kelin ayolga nisbatan kichraytirish-erkalash munosabati aks etadi: Bizning kelinchak /imiz/ ishlab charchamaydi-da. Bu kabi gaplarni keliniga nisbatan hech kim ishlatmaydi: qaynota, qaynona yoki boshqalar «kelin oldim» deyish o'rniiga «kelinchak» oldim deya olmaydi. Demak, «**kelin+chak**» kabi qo'llanishning uslubiy-ekspressiv xususiyati shu so'zning kim tomonidan ishlatilishiga bog'liq.

Bu affiksning «tugun» kabi so'zga qo'shilishidagi ekspressiya -cha nikidan farq qilmaydi.

2. Erkalash ottenkasi. Erkalash ottenkasini ifodalovchilar -gina, /-kina, -kina/, -loq, -xon, -jon, -boy, -bek, -qul, -toy, -oy, -beka, -bekach, -poshsha, -bibi, -pari, -bonu, -niso, -gul kabi affiks, affiksoidlar bo'lib, og'zaki va badiiy nutqda, asosan, erkalash, hurmat ma'nosи uchun ishlatiladi: Masalan: ...kel, **qizalog'im**, oshga, /N.A./ **Buzoqcha** hali chaqaloq, o't yemaydi /N.A./ ... tokchaga o'tir **bolaginam** /O./

- boy, -oy, -pari, -gul, -poshsha, -bek, -toy, -beka, -bibi, -bonu kabi affiksoidlar eski o'zbek tilida, shuningdek hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mustaqil ishlatila olishi bilan affikslardan farq qiladi. Bular ham o'rni bilan erkalash-hurmat, vaziyatga ko'ra, o'rni bilan piching, kesatiq ottenkalariga ega bo'lishi mumkin.

- gina affiksi otlarga qo'shilganda erkalash ma'nosidan tash-qari ta'kid, undash, kuchaytirish ottenkasiga ega bo'lishi ham mumkin. Qoshlari qunduz **qizgina**, ko'ksida yulduz **qizgina** (Og'z.so'zl.)kabi.

Sifatlarning uslubiy xususiyati

Sifatlar barcha nutq uslublarida keng qo'llanadigan uslubiy vosita bo'lib, nutq jarayonida fikr yuritilayotgan predmetlarni alohida ajratib ko'rsatishga, obyektiv olam narsa-hodislarini aniq ifodalashga yordam beradi. Ular poetik vosita sifatida badiiy ijoda sifatlashlar -epitetlar hosil qilishda qo'llanadi va kishi-/o'quvchi va tinglovchi/da badiiy-estetik zavq uyg'otishga, ta'rif va tav-sifni kuchaytirishga, bo'rttirishga omil bo'ladi. Masalan: Quyosh **g'uborsiz** ko'kda taltayib porlaydi. /O./ Bu gapda «**g'uborsiz**» sifati qo'llanish bilan kishining ko'z o'ngida ko'm-ko'k va bepoyon osmon kengligi gavdalananadi.

Sifatlarning ko'pchiligi, asosan, badiiy-publisistik nutq uchun xos. Ular ilmiy va rasmiy ish uslubida nisbatan kam qo'llanadi.

Sifatlarda sinonimiya va antonimiya anchagina qismni tashkil etadi. Bu sinonim va antonimlar ma'lum bir nutq uslubida nisbatan ko'p yoki oz ishlatalishi bilan farqlanadi. Masalan, **go'zal** so'zi badiiy nutqda, uning sinonimi bo'l mish **chiroyli** so'zi og'zaki nutqda ko'proq ishlataladi. Qizil va oq, ko'k va yashil, sariq va za'faron, og'ir va vazmin, cheksiz va behad kabilar ham shunday. Antonim sifatlar ham ilmiy va rasmiy ish uslublarida juda kam ishlataladi, og'zaki va badiiy uslubda esa keng qo'llaniladi.

Ko'rinaridiki, uslubiy ekspressiya jihatdan sifatlar o'ziga xoslikni tashkil etadiki, bu hol boshqa so'z turkumlarida kam uchraydi.

Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari

Sifatlardagi daraja ko'rsatkichlari obyektiv olam voqeahodisalari va predmetlar tashqi ko'rinishi va ichki xususiyatlarini tinglovchi /o'quvchi/ga mumkin qadar to'laroq yetkazish, shular yuzasidan aniqroq tasavvur hosil qilish maqsadlarini ko'zda tutgan.

holda ishlatiladi. Daraja ko'rsatkichli va intensiv formali sifatlar og'zaki va badiiy nutq uslubiga xos bo'lib, rasmiy, ilmiy nutq uslubida nisbatan kam ishlatiladi.

- **roq** morfemasi o'zi qo'shilib kelgan sifatda ifodalangan belgining normadagidan ozroq ekanini ifodalashga xizmat qiladi. Bu affiks qiyosiy daraja hosil qilmaydi, balki belgining nisbatan ortiq ekanligi /qiyosiy daraja/ni bir oz susaytirishi, ortiqlikka nisbatan ishonqiramaslik, ammo shunga yaqin ekanlikni ifodalaydi: Salim Karimga qaraganda **katta** /demak, belgi ortiq/ - Salim Karimga qaraganda **kattaroq** /demak, ortiqlik-kattalik tasavvuri-dagicha emas, -shunga yaqin/.

-**roq** affiksi qiyosiy darajadagi sifatlarga qo'shilgan belgining normadan ortiqligini, ammo qiyosiy belgi darajasidan kamligini ifodalasa, qiyoslanmagan holatlarda belgining normadagidan kamligini aks ettiradi. Men seni qo'lidan agar boy bersam, o'lganim **yaxshiroq**. (Og'z.so'zl.)

Sifatlar oldidan tag'in, yana, yanada kabi ravishlar keltirish bilan belgi ortiqligi qiyosan ifodalanadi. Bunda qiyoslash «yashirin» bo'ladi, ya'ni normadagi belgini ifodalovchi sifat oldindi gap /bu gap dialogik bo'ladi/ da ishtirok etadi: -katta qovun oldim-tag'in ham kattaroq qovun olish kerak edi kabi. Ko'rindiki, bunday qo'llanishlar ham aslida qiyosiy holatni aks ettiradi. Belgining ozligini ifodalash -sh, -ish, -mtir, -imtir orqali ham ifodalanadi. Lekin bu affikslar qo'shilganda, o'zak-negiz /sifat/dan anglashilgan belgi emas, balki shunga o'xhash belgi mavjudligi ifoda etiladi. Shuning uchun ham **qoramtilr** bilan **qoraroq** kabi va shu kabi so'z-sifatlar o'zaro sinonim bo'la olmaydi.

Fikr yuritilayotgan predmetlardan biriga diqqat jalb etilsa, uning belgisini maxsus ifodalash, yaqqol tasavvur qilish nazarda tutilsa, sifatlar oldidan **eng**, **hammadan** so'zlari keltiriladi. Bunda so'zlovchi nutq paytida fikr belgining boshqa har qanday belgidan muhim ekanligini alohida uqtirmoqchi bo'ladi: U **eng odobli** bola edi kabi.

Ma'no kuchaytirish sifatlar oldidan juda, g'oyat, nihoyat, dag ovat kabi ravishlarni qo'llash, bosh oisminin takroriasini vo'li

bilan tuzilgan juft sifatlar orqali ham ifodalanadi: **Ko'm-ko'k** vodiylarda chaqnaydi ko'zim /H.O./ Chambil degan tomonda, **juda qadim** zamonda qullar isyon qildilar. /H.O./

Juft sifatlar va «**juda**» so'zi barcha nutq uslublarida, «g'o-yat», «behad», «nihoyatda», «bag'oyat» kabilar ko'proq badiiy nutq stilida ishlataladi. «**Juda**», «g'oyat» so'zlari belgining umumiyligi kuchliligini, «behad», «g'oyatda» so'zlari esa miqdor tushunchasi bilan bog'liq belgining ortiqligini ifodalashga xizmat qiladi.

Eslatma: sifat yasovchi affikslar (umuman, yasovchi affikslar) o'zi qo'shilgan o'zak-negiz bilan birgalikda leksik birlik hosil qiladi va bir butun holda leksika obyektiga aylanib qoladi. Shu sababli ularga uslubiyatning morfologik vositasi sifatida yondashish maqbul emas.

Son uslubiyati

Sonlar predmet yoki ish-harakatning noma'lum, umumiy miqdoriga aniqlik kiritib, obyektiv voqelik yuzasidan aniq tushuncha, tasavvur hosil qilishga xizmat etadi. Bu jihatdan ular sifatga o'xshaydi, lekin sifatlar predmetni belgiga ko'ra ajratadi, sonlar esa miqdorga ko'ra: qirmizak olma oldim-tur ajratilgan, **to'rt** kilo olma oldim – tur ahamiyatsiz /noma'lum/, miqdorda aniqlik.

So'zlovchi nutq paytida obyektiv voqelikning aniq ifodasiga yoki umumiy tomoniga diqqatni jalb etadi. Ma'lum bir sharoitda miqdor haqida tinglovchi aniq tasavvurga ega bo'lishi nazarda tutilganda, vaziyat shuni taqozo etganda, so'zlovchi aniq miqdor bildiruvchi, miqdorning aniqligi muhim bo'lmay, umuman, predmet, harakat-holatning biror mo'ljalDALIGI yoki takrori nazarda tutilganda, taxminiy sonlar qo'llanadi. M: **O'n besh kundan keyin** traktorchi nomini oldim. **Keyinchalik Haydar ikkovi** oshno bo'lib qoldi. /A.X./ **To'rt yuz-besh yuz** qo'yni ovozidan taniydiyal! /P.Q./ Akasining ikki-uch mushtidan oshiqlar yerga sochilib ketdi. /P.Q./

Son turkumi ichida «bir» alohida uslubiy xususiyatlarga ega.¹ Biz uning faqat son ma'nosida qo'llanishidagi xususiyati yuzasidan fikr yuritamiz.

1. So'zlovchi ma'lum bir predmetning aniq bittaligi, shu bittaning qat'iyligini emas, umuman, bittalikni bayon qilmoqchi bo'lganda ishlatiladi: ...**bir** non berib jo'natdi. **Ming** ishchiga **bir** boshchi.

2. So'zlovchi ish-harakatning aniq takroriy miqdori emas, umuman bajarilishi, ilk bor voqe bo'lishi haqida fikr yuritganda ishlatiladi. Bunday chog'da miqdorda xohish-istik, da'vat ottenkalari qo'shiladi: **Bir** o'qib chiqay, **bir** borib keling, **bir** aytib ko'ring kabi.

3. Bir so'zi o'lchov birligi bildirgan numerativlar bilan qo'shilganda yakkalik-bittalik tushunchasini ifodalaydi: **Bir kilo**, **bir tonna**, **bir dona**, **bir arava**, **bir vagon** kabi. Bu so'z **safar**, **daf'a**, **qur** kabilalar bilan qo'llanganda aniq bir emas, balki harakat ijrosidagi bir tushunchasiga eslash, gumon-taxmin, da'vat ottenkalari qo'shadi: Bir safar borgan edim, bir qur o'qib chiqqaman, bir bor borib edim kabi.

Agar bu so'zlar **marta** so'zi bilan almashtirilsa, qo'shimcha ottenkalar yo'qolib, aniq miqdor tushunchasi ifoda etiladi. Bu xususiyatlar boshqa sonlarda ham kuzatiladi.

Miqdor va dona sonlar hamma nutq uslublariga xos bo'lib, nutq paytidagi aniq miqdor haqida ma'lumot beradi. Bunday sonlar maxsus: fonetik vositalar («urg'u berish» cho'zish) siz ekspressiv xususiyat kasb etmaydi: Chama sonlar og'zaki va badiiy nutq uslubiga xos bo'lib, ilmiy va rasmiy ish uslubida juda kam ishlatiladi. Ular muayyan nutq jarayonida miqdor /predmet, harakat/ning birdan ortiqligini, lekin tinglovchi uchun bu miqdorning aniq emas, umumiyl doirasigina abhamiyatli ekanligini ifodlashga xizmat qiladi. Bu miqdor uchdan ortiq bo'lishi shart. Predmetlar bir, ikki, uchta bo'lganda aniq ko'zga chalinib turganda, bu sonlar chama son formasida qo'llanilmaydi. Miqdor me'yori bir qadar haqiqiy songa yaqinligi nazarda tutilganda, -tacha affiksi

¹ Qosimjon Tursunov, Mavzurat N., Sodiqov R., Matdoshova O. O'sebi o'sti, madaniyat va madaniyot asoslari amaliyoti. – Toshkent. 1992. 38-bet

qo'shiladi: Ikki tomonga **oltmishtacha** stol qo'yilgan. **Uch soatcha** yo'l yurdik kabi. Miqdor me'yori nutq payti uchun umumanligi, lekin uning qanchaligi nazarda tutilganda va undan ortiq bo'lishi mumkinligi muhim bo'lganda, juft sonlar ishlataladi. O'quvchi **o'n besh-yigirma** betlab o'qishi kerak. (Gaz.) Jamoalarning **oltmish-to`qson** protsenti yuqori malakali kadrlardan iborat. (Gaz.) Juft, chama sonlarning qo'llanishida iymanish, tortinish va aniq fikr aytishga botina olmaslik kabi ottenkalar ham ifoda etiladi. **Uch-to`rt** kilo olma olib keling. -Necha kishi keldi? **Besh-olti** kishi keldi, uni **o'n-o'n ikki** yashar bola kutardi kabi.

Jamlovchi sonlar nutq paytida so'zlovchining ko'zi tushib turib ajratilgan va yoki gruppa bo'lib turgan predmetlarning jamini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Agar **-ta** qo'llanib jamlik ifodalansa, gruppadan aniq predmet, shaxs ajratiladi. /Yig'ilishga beshtamiz boramiz. Bunda turganlarning hammasi shu «beshta tarkib»ga kirishi mumkin. Lekin jamlovchi son qo'llanganda, ijrochi predmetlar ko'rsatilgan, ajratilgan bo'ladi: Yig'ilishga beshovimiz boramiz./ **-ov**, **-ala** affikslari o'zaro sinonimik holatda bo'lib, **-ov** formasi ko'proq folklor asarlarida, **-ala** esa barcha nutq uslublarida qo'llanishi bilan o'zaro farq qiladi. **-larcha** tantanali nutq formasida xos bo'lib, ko'proq badiiy uslubda qo'llanadi va kuchaytirishga, miqdor ma'nosini bo'rttirishga xizmat qiladi.

Olmosh uslubiyati

Olmoshlarning bir qismi predmet, belgi yoki miqdor tushunchasini bildirsa, ko'pchiligi o'sha predmetga nisbatan ishora qiladi. Belgi yoki miqdorda ishora tushunchasi nisbatan kam ishlataladi. Masalan: Shuncha daftarni nima qilasan, gapidagi «**shuncha**» olmoshi miqdor /son/ o'rniда emas, balki miqdorga ishoradir.

Predmet, belgi yoki miqdor o'rniда almashinib, qo'llanuvchi olmoshlar yozma va og'zaki nutqda ortiqcha takrorlarga, nutqiy noquyaylikka, g'alizlikka chek qo'yadi. Demak, nutqiy ifodalilik va ravonlik, ixchamlikka xizmat qiladi.

So'zlovchi nutq jarayonida fikr subyektiv yoki obyektiv bo'lishi, shaxsni aniq ko'rsatish, tinglovchida teran tushuncha nosi

qilish maqsadida kishilik olmoshlaridan foydalanadi. U so'zlovchi sifatida «men», «biz»; nutq qaratilgan shaxsga nisbatan **sen**, **siz**; nutq yo'naltirilgan, nutq adresati nazarda tutilgan shaxsga nisbatan «u», «ular» olmoshlarini qo'llaydi.

Nutq paytida nomi tilga olingan shaxs III shaxs sifatida o'qilishi tufayli, so'zlovchi o'zi uchun men /biz/, tinglovchi uchun «**sen**», «**siz**» olmoshlarini qo'llaydi.

Kishilik olmoshlarining qo'llanishida uslubiy mohiyatga ega bo'lган holatlar birlik o'rniغا ko'plik shaklining qo'llanishidir.

So'zlovchi kamtarlik, iymanish, mag'rurlanish yoki kesatiq ma'nolari uchun «men» o'rniغا, «biz»ni, «sen» o'rniغا «siz»ni ishlatishi mumkin: **Biz** endi nimani ham kiyardik. /H.H./ «**Siz** ichkariga kirib turing!» /YA./ Birinchi gapda «**biz**» tortinish, iymanishni ifodalasa, ikkinchi gapda «**siz**» kesatiq po'pisa ma'nosi uchun ishlatilgan.

Ma'noni kuchaytirish uchun «**biz**» va «**siz**» olmoshlariga -lar qo'shib ishlatilishi mumkin: ...dog'i bular yaxshi-yu, **bizlar** yomon /M./ Navbat **sizlarga!** (Og'z.so'zl.).

So'zlovchi tinglovchidan biron jihatdan ustun bo'lganda, shuningdek, hurmatsizlik, do'q-po'pisa, jahllanish kabi ma'nolar ifodasi uchun «**sen**» ga -larni qo'shib ishlatadi: **Senlarning** ishing deb jon kuydiryapman. (Og'z.so'zl.)

Bu tarkibli gaplarda kesim I-II shaxs formasidagi fe'llardan bo'lganda, egani qo'llash uchun zarurat qolmaydi: ...**bu** ishni allaqachon **bajarganman**. ...**bu** kitobni **o'qib chiqdingmi?** (Og'z.so'zl.) kabi.

Lekin nutq jarayonida so'zlovchi maqtanish, gerdayish, ajratib ko'rsatish ta'kidlash kabi ottenkalarni qo'shib ifodalamoqchi bo'lganda, yuqoridagi tip gaplarga «men», /«**biz**»/, «**sen**» /«**siz**»/ olmoshlarini qo'shib ishlatadi: **Men** bu ishni allaqachon bajarganman. /g'urur, alohida ta'kid/. **Sen** bu kitobni o'qib chiqdingmi? /alohida ajratib murojaat etish/.

Bunday tuzilmalarda olmoshga alohida urg'u berilsa, yuqorida aytilgan ma'no yanada kuchaytirilishdan tashqari, keskinlik, gerdayish, po'pisa, dag'ailik kabi ottenkaiaar **ham** ifodaianishi mumkin.

Nutq paytida «Men»dan boshqa hamma ishtirokchilar tinglovchi – II shaxsdir. Nutq ularning barchasiga teng bo'ladi. Nutq mana shu guruh /tinglovchilar/dan ayrim shaxs yoki shaxslarga qaratilish zarurati tug'ilganda, so'zlovchi «**sen**» va «**siz**» /«**sizlar**»/ olmoshini qo'llab nutq qaratilgan shaxslarni alohida ajratib oladi. Bunday chog'da /«**sen**», «**siz**» qo'llanganda/ tinglovchilarning bir qismi o'zga –III shaxs sifatida tasavvur etiladi va ko'pincha tinglovchilardan biror shaxs nomi undalma sifatida qo'llanib, nutqning ana shu shaxsga, shu shaxs aloqador bo'lgan to'da-guruhga aloqadorligi maxsus uqtiriladi: Odiljon, **siz(lar)** to'garak ishini uyushtirasizlar. Salima, **sizga** aytadigan gapim bor (Og'z.so'zl.) kabi.

Ko'rsatish olmoshlari

Ko'rsatish olmoshlarining nimaga? qayerga? kimga? qachonga ishora qilayotgani matnga, mazkur olmosh ishtirok etgan gapda anglashilgan mazmunga bog'liq: **Esimda o'sha damlar** /H.O./ Bu gap ayrim olinganda «**o'sha**» olmoshi ko'rsatgan «**damlar**» /zamon/ mavhumligicha qoladi. Ko'p ertak eshitgandim, so'ylab berardi buvim. Esimda **o'sha** damlar deyilganda esa qaysi davr haqida gap borayotganligi aniq tasavvur etiladi.

«**Bu**», «**shu**», olmoshlarining ma'nosи so'zlovchiga yaqin masofa, vaqtни ko'rsatishdangina iborat emas. **Husayn nabirasi Mominni o'ldiradi, bu voqeа Navoiyda qahr-g'azab uyg'otadi** gapida masofa-vaqt yaqinligi emas, balki olmosh aniqlagan predmetning ahamiyati bo'rttiriladi. «**Bu**» va «**shu**» olmoshlari garchi so'zlovchiga yaqin bo'lgan narsa-hodisani ko'rsatsada, o'zaro nozik farqqa ega. «**Bu**» olmoshi ikki yoki undan ortiq narsa-predmetni ajratib ko'rsatsa, «**shu**» olmoshi ayrim turgan, ayrim olingan narsa-predmetni ko'rsatishga xizmat qiladi: **Bu** kitob meniki, **shu** kitob meniki. **Ana shu** farq mavjudligi uchun ham har doim ularning biri o'rnida ikkinchisini aimashtirib bo'lmaydi. Ayni bir voqeа-hodisa haqida gapirib, so'ng **maqsad shu** deyiladi, ammo maqsad bu deb bo'lmaydi. Mazmunan «**bu**» olmoshi «umumiylig», «**shu**» olmoshi nisbatan aniqlik ma'nosini ifoda etadi: **Bu** diworda hamma

narsa bor-shu diyorda hamma narsa bor. **Bu** bizning Safarning zafar sasidir - **Shu** bizning Safarning zafar sasidir. «**Bu**» va «**shu**» olmoshlari kesim bo'lib kelganda, bu ma'no yanada aniqroq seziladi. Vaqt bildiruvchi so'zlar bilan ko'proq «**shu**» olmoshi qo'llaniladi. **Shu payt, shu dam, shu choq, shu on, shu lahza.** Ergash gapli qo'shma gaplarda odatda bosh gap tarkibida nisbiy so'z sifatida **shu** olmoshi qo'llaniladi. Istak **shulki**, tole yor bo'lib, baxtin topgan elni ko'rolsam. /H.O./ **Shuni** bilki, seni Vatan kutadi. /G'.G'./ **O'sha** olmoshi so'zlovchiga avvaldan ma'lum bo'lган yoki nutq jarayonida esga olingan narsa-hodisaga ishora qiladi. Shu xusuiyati bilan «**u**» olmoshidan farq qiladi. «**u**» olmoshi narsa predmet-hodisaning o'zini, «**o'sha**» esa, uni aynan emas, o'xshatish, tusmol-ishonch yo'li bilan ko'rsatadi. Shuning uchun ham ko'pincha «**o'sha**» olmoshining bu ma'nosini kuchaytirish maqsadida undan oldin «**xuddi**», «**naqd**», «**aynan**» so'zlari qo'llanadi. **Xuddi** o'sha gapni takrorlang. **Naqd o'sha** odamning o'zi. **Aynan o'sha** gap. Yana, ko'rsatish olmoshlari «**mana**», «**ana**» so'zlari bilan ham qo'llanadi. Bunday chog'da olmoshning ma'nosini aniqlashadi, kuchayadi: **Mana o'sha** qirlar, past-balandliklar. **Ana shu** gap uchun javob berasan! **Mana bunisi** menga, **mana bunisi** senga. (Ertak).

So'roq olmoshlari

So'roq olmoshlari, asosan, so'zlovchiga noma'lum bo'lган voqeа-hodisa, belgi, harakat va boshqalar haqida tinglovchidan ma'lumot olish maqsadida ishlataladi. Ular ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida esa gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining ma'nosiga aniqlik kiritish, uni izohlashga xizmat qiladi.

1. «**Kim**» olmoshi insonga, «**nima**» olmoshi predmetga nisbatan qo'llaniladi. Biroq so'zlashuv uslubida kim o'rniга nima ishlatalish hollari uchraydi: Hakim sening nimang-shuncha jon kuydirasan. (Jonli nutq) «**Nima**» olmoshi «**ne**» va «**na**» formasida ham bo'ladi: Ne bo'lg'ay bir nafas men ham, Yanog'ing uzra xol bo'l-sam. **Nedur** ahvoling ey, zori g'aribim. **Na** bo'ldi yorim galmadidi. /Qe shiq/ «**Ne**» va «**na**» formasи ketishik affikslarini. -chun

/uchun/ni qabul qiladi: **Nega** avval aytmadı, **neki** so'raysan mendan. Ko'rdim-ko'rdim **nani** ko'rdim-tog'larda sanoni ko'rdim. Eski va hozirgi o'zbek adabiy tilimizda «nechuk» olmoshi ishlataladi. Bu olmosh pastik nutqqa zos bo'llib, garga obrazlilik, trataanaverlik tusini beradi. **Nechuk** shaxsiyatina bo'llib, qayd, qoday qillib, necha, mina salab to'llib nabi so'z va iboratiga sinonim bo'lib qo'llanaadi. Neechua esingizdan chiqdi, emajon. /O.Y./ Bu nechuk nebolat, bu nechuk to'qdir. Ma'nali Mirzo ultan, soni oldiditlar. (A.C.)

2. «**Qanday**», «**qanaqa**» olmoshlari o'zaro sinonim bo'lib qo'llana oladi. Bunday almashinish ma'nega kuchli ta'sir etmaydi. Aniqlanmish «hol-ahvol» tarzidagi so'zlar bo'lganda, «**qalay**», «**qay**» olmoshlari ham taraqa sinonim bo'la oladi. «**Qiday**» olmoshi ko'pincha kesim vazifasida keladi va ega vazifasidagi so'zdan anglashilgan shaxs-predmetning ahvol-vaziyati to'g'risida so'roqni bildiradi va so'zning ijossiy munosabatini aks ettiradi. Aniq so'roq emas, inkoru tasdiq yoki tasdiqni inkor ma'nosi uchun qo'llanganda, «**qay**» olmoshi «**qanday**», «**qanaqa**», «**qaysi**» olmoshlari bilan sinonim bo'lib kela oladi. Ommanning ko'ziga **qay yuz bilan** qaray olasan. /M. Sh./ //qanday, qaysi yuz bilan/...

Songa nisbaan qo'llanadigan so'roq olmoshlari miqdor haqida ma'lumot olishni ko'zda tutadi. So'roq olmoshlarining aksariyati ergash gaplar yoki yoyiq sodda gaplar tarkibida shart fe'li qo'llanganda, asosiy kesimdan anglashilgan mazmunga aniqlik kiritishga xizmat qiladi: **Qachon** kelsam, shu yerdasan, **qachon** kelsam, seni to'aman. Birinchi gapda bosh gap /shu yerdasan/da ifodalangan mivjudlikka, ikkinchi gapda asosiy kesim, /topaman/dan anglashilgan mazmunga aniqlik kiritgan.

O'zlik olmoshi

O'zlik olmoshi yakka holda va o'zi ko'rsatgan shaxs - so'z bilan birga qo'llanadi:

a/ yakka holda ishlatilganda «**o'z**» dagi egalik affaksi ko'rsatgan shaxs ta'kidlanadi, qat'iylik, alohida eslatilganlik kabi ottekalar ifoda etiladi: **O'zing** to'qib ketgan katta savatda, shaftor-

to'ldirib uzib chiqaman. /G'.G./ **O'zi** ekkan arpani, **o'zi** o'rsin (Jonli nutq);

b/ kishilik olmoshlari bilan qo'llanganda, ana shu kishilik olmoshi ko'rsatgan shaxslarning ajratilganligi, tanholigi ifodalanadi. Vafodorim sen **o'zing** /Qo'shiq/. Men **o'zim** bajaraman bu ishni (Jonli nutq) kabi.

Belgilash olmoshlari

Belgilash olmoshlarining bir gruppasi /har, har kim, har qanday, har qaysi kabilar/, predmetlarni yakkaga ajratib, so'ng umumlashtirishga, umum ichida yakkanning roli alohida ekanligini kuchaytirib ta'kidlashga xizmat qiladi. **Har kimsa** vafo qilsa, vafo topqusidir /B/ **Har bahorda** shu bo'lar takror, **har bahor** ham shunday o'tadi /H.O./ **Har qanday obi havo** sharoitida ham re-jani bajarganmiz. /Gaz./.

Ikkinci grupper belgilash olmoshlari /bari, barchaga, hamma, butun, jami kabilar/ orqali nutq paytida predmetlarning ayrim-ayrim holati emas, umuman-jami haqida fikr yuritilayotgani ifodalanadi. Bunda ta'kid, kuchaytirish ottenkasi bo'lmaydi, Neytrallik ustun turadi. Qiyoslang: To'garakning **har bir** a'zosi ma'ruza qildi – To'garakning **hamma** a'zosi...

«**Bari**», «**barcha**», «**hamma**», «**jamı**» olmoshlari ham o'zaro farq qiladi. «**Bari**», «**barcha**» olmoshlarida ma'no bir oz kuchli, «**hamma**», «**jamı**» da esa nisbatan kuchsiz. So'zlovchi nutq jarayonida ularning bu xususiyatini hisobga oladi, qay biri o'rinali bo'lsa o'shani ishlatadi.

Fe'l uslubiyati

Obyektiv olamni voqeа-hodisasi yuzasidan axborot berish va olish, inson his-tuyg'ulari va borliqqa munosabatlari fe'l formalarini orqali ifoda etiladi. Shuning uchun ham fe'l formalarining qo'llanishidagi o'ziga xosliklar uslubiy jihatdan g'oyat muhimdir. Nutqda fe'l formalarining grammatic jihatdan to'g'ri qo'llanishi oddiy uslubiyatga xos bo'lib, fikrni to'g'ri va aniq bayon etishda asosiy vosa, mezon hisoblanadi. Uiarning fikran nozik ouzenkaiarni ifoda-

lashga xizmat qilishi esa ekspressiv uslubiyatning asosi bo'lib, so'z-lövchiga turli munosabatlarni bayon etish imkonini beradi. Bino-barin quyida ana shular yuzasidan fikr yuritamiz.

Fe'l zamon formalari

«Zamon» so'zi filosofik va grammatik tushunchalarni ifodalaydi. Filosofik zamon materianing mavjudlik formasini, grammatik zamon esa voqelikni nutq so'zlanib turgan payt munosabatini aks ettiradi.

Ish-harakat ma'lum makon va zamonda ro'y beradi. So'zlovchi ma'lum ish-harakat haqida tinglovchiga axborot bermoqchi, tinglovchidan axborot olmoqchi bo'lganda, ana shu ish-harakatni aniq ifodalovchi zamon ko'rsatkichlaridan foydalanadi.

Fe'l zamonlari ish-harakatning nutq paytiga aloqasiga ko'ra belgilanadi va maxsus shakllar orqali reallashadi. Masalan: o'tgan zamon fe'llari nutq paytidan oldin voqe bo'lgan /voqe bo'l-magan/ ish-harakat haqida axborot beradi. So'roq, taajjub va boshqa modal ma'nou ottenkalari o'tgan zamon formasiga maxsus forma /yordamchi so'z/ yoki gapga so'roq so'zlarni kiritish bilan hosil qilinadi.

Zamon ko'rsatkichlarining biror zamonga xosligi qat'iy emas. Masalan, o'tgan zamon ko'rsatkichi, -di, -gan, -gan edi va boshqalar jonli nutqda hozirgi yoki kelasi zamon ma'nosini ifodalashi mumkin. Bunday qo'llanish jonli nutq ifodasi sifatida badiiy uslubda ham uchraydi.

O'tgan zamon fe'l formalari

O'tgan zamonni ko'rsatishga xizmat qiluvchi formalar anqlik va turli modal munosabatlarni ifodalashiga ko'ra o'zaro farq qiladi. Shuning uchun ular yaqin o'tgan, uzoq o'tgan, o'tgan zamon hikoya, davom fe'llari kabi turlarga ajraladi. Har bir tur ma'lum bir uslubiy vazifa bajaradi. So'zlovchi ma'lum bir voqelikni ifodalashda o'z maqsadiga ko'ra turli zamon shaklidan foydalanishi mumkin. Masalan, u keldi formasida so'zlovchi yaqindagina voqe bo'lgan harakatni aniq bilganligini ifoda etsa, ayai shu ~~harakatni~~

«у келган» формасида qo'llash bilan uzoq o'tgan zamonni emas, balki «Men bilaman», «men ko'rdim» kabi ottenkani qo'shib ifodalaydi. Demak, -di va -gan formalari o'rtasidagi vaqt munosabati ba'zan o'zgarmasligi mumkin.

-b /ib/ formalı o'tgan zamon aslida «kutilganda» yoki «kutilmaganda ro'y bermoq» ottenkasi bilan bog'liq... Shunday katta kitobni bir kunda **o'qib chiqibman**.

... yo'l yursa ham mo'l yuribdi. U kecha kelibdi kabilarda esa eshitib bilganlik, -b /-ib/ -edi shaklida esa eslaganlik ottenkasi mavjud. -b /-ib/ -edi shakli adabiy uslubda ko'proq ishlataladi.

Hozirgi zamon fe'l formalari aslida uslubiyat uchun bir zamon formasining boshqa zamon ma'nosi uchun qo'llanishi xarakterlidir.

Hozirgi zamon formalari mazmun jihatdan nozik ottenkalarga ega va turli nutq uslubiga xos.

1 - **yap** formasi barcha nutq uslubiga xos va harakatning davom etayotganini ko'rsatadi;

2 - **yotir** formasi adabiy uslubga xosligi bilan yuqoridagi formadan farq qiladi;

3 - **moqda** formasi adabiy /she'riy/ uslubga xos va o'zakdan anglashilgan harakat bilan bandlik ottenkasini ifodalaydi.¹

- **moqda** formasi - **yap** va - **yotir** formasiga nisbatan rasmiylik va davomiylilik ottenkasiga ega: ...bormi samar **ketmoq-daman**. /Qo'shiq/. Bu o'rinda - **yap**, -**yotir** formalarini qo'llash mumkin emas.

O'tgan zamon formasidagi ayrim fe'llar /yot, tur, yur, o'tir/ o'zidan oldin kelgan ravishdosh bilan analitik forma hosil qilganda, denotativ ma'nosidan uzoqlashib, hozirgi zamon davom fe'llarini hosil qiladi: «**o'tirmoq**» fe'li boshlangan harakatning davom etayotgani ma'nosini anglatadi: U xat **yozib o'tiribdi** /o'tirish ottenkasi keyingi o'rinda/. Choy **ichib o'tiribdi** kabi.

Bu forma inkor qilish, biror harakatni qilmaslik kerak edi, ma'nosi uchun ham qo'llanadi va afsus ottenkasini ifoda etadi. Bu ma'noni kuchaytirish uchun ba'zan - a yuklamasi qo'llanadi. Hech

¹ Qarang: G'ułomov A. Fe'l. - Toshkent. 1954, 55-bet.

kim kelmagan, sen bo'lsang **kelib o'tiribsan-a** /Jonli nutq/ ... yozma dedim-u, **yozib o'tiribsan-a** va boshqalar.

Ko'rinadiki, zamon ko'rsatkichlari nutq jarayonida turlicha ottenka ifodasi uchun qo'llanishi mumkin. So'zlovchiga o'zi ifoda-lamoqchi bo'lgan mazmunni tinglovchiga mumkin qadar aniqroq yetkazmoq uchun ulardan mosini tanlab ishlataladi.

Kelasi zamon fe'l formalari

Kelasi zamon ifodalashga xizmat qiluvchi **-ajak** morfemasi shevaga xos bo'lib, ba'zan vazn, qofiya, bo'g'in talabi bilan she'riy asarlarda uchrab turadi, lekin bu o'zbek adabiy tili uchun tipik emas. Balki kelasi zamon ifodalovchi adabiy forma-morfema **-moqchi** va **-digan** hisoblanadi. Bu shakllar **/-ajak ham/** bir yadro ma'noga birlashsa ham, lekin turlicha ottenkaga ega:

a) **-moqchi** orqali hosil qilingan forma maqsad ottenkasini qat'iy ifodalaydi: ferma uchun mashina olib berishmoqchi. (Gaz.) Sho'xroq yigit bari-bir **o'tmoqchi** bo'lib yelkasini urib oldi. (Gaz.).

Fe'l mayllari

Fe'l mayllarining har biri nutq vaziyatiga ko'ra turlicha modal munosabatlarini ifodalashi mumkin. Masalan, hamma ishlayapti, sen dam olib o'tiribsan gapida «dam olib o'tiribsan» fe'l axborot emas, balki koyish, norozilik, afsus ottenkasini beradi. **Bu yerdan hoziroq ket** gapida «ket» fe'l oddiy buyruq ma'nosiga qistash **/achinish/**, qat'iy buyruq, do'q urish kabi ottenkani qo'shadi va hokazo.

Fe'l mayllarining biri ornida ikkinchisi qo'llanishi turlicha modal munosabatlarni ifodalaganligi tufayli, ular uslubiy xususiyat kasb etadi.

Ijro mayli

Ijro maylidagi ayrim fe'llar nutq paytida emas, ma'lum vaqtidan keyin bajariladigan ish-harakatni bajarishga da'vat-buyruq ma'nosi uchun qo'llanadi: ovqatga urinamiz: sen o't yoqasan, sen

choyga qaraysan, sen mehmonlarni kutasan. Agar bu gapda fe'l buyruq formasida bo'lganda, hoziroq boshlash buyurilgan bo'lardi: Solih, choyga **qara**, sen qozonga **o't yoq** kabi.

Ikkinchchi shaxsga nisbatan da'vat-buyruq ma'nosi uchun aniq mayldagi I shaxsning ko'pligidagi fe'l qo'llanishi mumkin: Qani **ketdik, yur** /Jonli nutq/ Bunda emotsionallik ma'nosi kuchayadi. **Boshladik** o'rtoqlar. Qani do'stlar, paxtani terishga **boshladik** /Jonli nutq/.

Buyruq mayli

Buyruq mayli formasi ijro mayli ma'nosi uchun qo'llanganda, piching, ta'na, e'tiroz ottenkalari qo'shiladi va nutq ta'sirchanligi kuchayadi. Bolani o'qitish o'rniga xizmatingizni qildiring, yana urdiring! Axir sizda insof bormi! /Yo.Sh./

So'zlovchi o'zi nazarda tutgan payt ma'nosiga shart ottenkasini qo'shib ifodalamoqchi bo'lganda, buyruq mayli shaklidan foydalanish mumkin: Bahor **kelsin**, ishni boshlab yuboramiz. Paxtalar to'la **ochilsin**, mashina terimini boshlab yuboramiz. Hamma **to'plansin**, birgalashib jo'naymiz kabi.

Shart mayli

Shart mayli formalarining istak, xohish, maslahat, da'vat chaqiriq kabi ma'nolarga xizmat qilishi mumkinligi ma'lum. Bu ma'no ottenkalari nutq jarayonida vaziyatni yumshatish, odobli munosabat, hurmat ifodasi vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

- **sa+bo'ladimi, -sa+bormi** shakli ijro mayli formasiga sinonim bo'lib, kutilmaganda ro'y bergan, shunningdek, istak-shart bilan bog'liq bo'lgan voqealarni ifodalashga xizmat qiladi: ... ketayotgan edim, ro'paramdan yo'lbars **chiqib qolsa bo'ladimi:** /A.Q./ Hakim **kelib qolsa bormi**, ko'ngildagiday bo'lardi-da. /Jonli nutq/. Hozir **borsang bormi**, naqd tepasidan chiqarding-da kabi.

Shaxs-son formalari

Fe'llardagi shaxs-son affikslari kishilik olmoshlari bilan qat'iy bog'langan. So'zlovchi **nutq** jarayonida kamtarlik, manmanlik.

jiddiyat, qat'iylik, mag'rurlik kabi ottekalarni ifodalash uchun birlik yoki ko'plikdagi biror shaxsni ko'rsatuvchi kishilik olmoshini boshqa shaxsni ko'rsatuvchi olmosh bilan almashtiradi.

Kamtarlik yoki g'ururlanish ottenkasi uchun almashinish I shaxs doirasida ro'y beradi va bunday holat oddiy so'zlashuv uslubiga xosdir. Biroq nutqiy faoliyatni aniq ko'rsatish maqsadida badiiy uslubda ham ishlatiladi.

Masalan: Oldingi yutuq bilan **qutlaymiz** (O.) Yana qanday **gunoh qilib qo'ydik.** /U./ Biz ham qaynonasi **sevadiganlardanmiz.** /Jonli nutq./ O'zimiz **tanlaganmiz**, qolganini keyinroq **eshitarmiz.** /Og'z.so'zl./

Boshqacha ma'nou ottenkalari har uch shaxs doirasidagi almashtishlar orqali ifodalana beradi.

So'zlovchi ish-harakatga aloqasi bo'limgani holda o'zini uning ishtirokchisiday ko'rsatib, II shaxs o'rnida I shaxs shaklini qo'llaydi va bu bilan kamshitish, kinoya, maslahat, chaqiriq, murojaat kabi ottenkalarni ifoda etadi: Terim sur'atini susaytiramizda, aybni havoga **yuklaymiz** /kesatiq./, **xatolarni bo'ynimizga olsak**, yomon bo'lmaydi /da'vat/, Latifjon, mashina terimini **kuchaytiraylik** /da'vat, chaqiriq/ kabi.

So'zlovchi nutq jarayonida o'ziga bog'liq ish-harakatning umumga aloqadorligini ifodalash maqsadida I shaxs birlik shaklida qo'llanishi lozim bo'lgan fe'lni II shaxsning birligi formasida qo'llaydi. U yerda turish yaxshiku-ya, ulfatchilikni **xohlab qolsang**, biron do'konga **kirasan** ... hech kimning og'zidan nojo'ya gap **eshitmaysan**. Ustaligini **qara-ya**. Nimadan daromad qilishini ham **bilmaysan** /G/.

Bunday qo'llanishda, umumga xoslikdan tashqari, ma'nou kuchsizlanadi: «**kiraman**», «**eshitmayman**» shaklida esa umumiylit yo'qoladi, bir kishiga aloqadorlik qat'iylashadi. Bu xil almashtishlar badiiy tasviriylik yoki qisman emotSIONallikni yuzaga keltiradi.

Umumiylit yanada kuchaytirish shakli tariqasida ba'zan gap oxirida «**odam**», «**kishi**» so'zları qo'shib ishlatiladi: Bu yerdan uch yil ot chopsang ham biron mamlakatga chiqmaysan kishi. Bunda

men /biz/ ham, sen /siz/ ham, u /ular/ ham fe'l dan angla-shilgan harakat ishtirokchisi bo'lishi mumkinligi ottenkasi anglashiladi.

Ma'lum bir psixik /g'amginlik yoki xursandlik/ holatda so'z-lovchi ichki nutq formasidan foydalanishi – o'ziga o'zi gapirishi mumkin. Bunday chog'da u o'z nomini /taxallusi, laqabi, mansabi va boshqalar/ atab, undalma formasida /III shaxs/ unga murojaat etadi. Bu bilan u o'z nutqining ta'sir kuchini oshiradi, vaziyatga nisbatan kishida /o'quvchida/ ma'lum tarzda biron xil tuyg'u uyg'otadi. Masalan: Unday bo'lsa, Mulla To'lan, u dunyoga keta ber. Mulla Xolmat, kimga **yon bosyapsan** o'zi? /H.H./ **To'xta, qayoqqa ketayapsan**, Husan sher. /Jonli nutq/

Bunday qo'llanishda gapning kesimi III shaxs formasida bo'lishi ham mumkin. Masalan: qani, o'rtoq brigadir, bir **o'ylab ko'r-sinlar-chi**... Qani To'ravoy, yeng shimarib **ishga kirishsinlar-chi**!

Bunday gaplarda kamtarlik, qat'iylik kabi ottenkalar ortadi va shaxsning o'ziga-o'zi gapirayotgani avvalgi gap-tuzilmadan yoki avtorning remarkasidan bilinib turadi.

Og'zaki nutq uslubida kamtarlik, erkalash, hazil-mutoyiba, kesatiq kabi ottenkalarni qo'shib ifodalash maqsadida so'zlovchi II shaxsga murojaat etganda, fe'lni I shaxsning ko'pligi formasida qo'llashi mumkin: Yaxshi dam oldikmi? /hurmat, hazil, erkalash ottenkalari/. To'yib uxladikmi? /kesatiq, piching ottenkasi./

II shaxs birlik shakli tengqurlar muomalasida qo'shimcha ottenka kasb etmaydi. Ammo rasmiy, munosabatlarda, kichiklarning kattalarga murojaatida hurmatsizlik, o'zini katta olish, mensimaslik kabi ottenkalar aks ettiriladi: Sen **qilding** bu noma'qulchilikni. Sen mani **badnom qilding** /Og'z. so'zl./ kabi.

Hurmat yoki kesatiq, piching ma'nosi uchun II shaxs birlik o'rnila uning ko'plik shakli qo'llanadi: Siz **keldingiz** /hurmat/. Qani qizingizni **chaqiring** (Ya.) -kesatiq, do'q, qat'iy buyruq.

Hurmatsizlik, do'q-po'pisa ma'nosi uchun II shaxs birlikdag'i kishilik olmoshiga –**lar** qo'shib ishlataladi: fe'l esa birlik formada bo'ladi, ammo mazmunan ko'plikni anglatadi: **Senlar javob bera-**

san. Senlar qachon biror ishni o'z vaqtida **bajarasanlar** (Og'z.so'zl.) kabi.

Hurmatsizlik, do'q-po'pisa ma'nosi II shaxs ko'pligi shaklida ham uchraydi. Bu matndan anglashilib turadi: **Siz hammangiz bir bo'lasiz, doim menga qasd qilasiz.../Masal./**

Fe'lning III shaxs formasi:

a/ nutq amal, unvon, mansab, kasbga ko'ra quyi turgan shaxsniki bo'lganda, ko'plik shaklida qo'llanib, hurmat ma'nosi uchun xizmat qiladi: Xizmatkor. U kishi hokimga arz qilgani **bormoqchi edilar**. /G/. Nurmat ... xat yo'q, qizim... Bu xolam qanilar? /U/. Tojiboy usta buvanikiga **chiqib ketdilar**. /U/;

b/ hurmat, kesatiq, istehzo, piching, hurmatsizlik kabi ottenkalarni ifodalash uchun II shaxsning ko'plik formasi o'rnida qo'llanadi: Arzimni bir **tinglasalar**. Mening hech bir gunohim yo'q. Menga **g'azab qilmasalar**. /Masal./

Bunday qo'llanishda, ko'pincha «o'zlari» olmoshi qo'shib ishlatiladi: Kambag'alchilikdan **o'zlari** bir **o'ylab ko'rsinlar**. /G./. **O'zlari biladilar** /A.Q./ **O'zlari nima desalar -shu**. Qo'shni, **o'zlari qaysi kasbga ixlos qo'yganlar?** /Og'z.so'zl./.

v/ taajjub, g'azab, quvонch kabi his-tuyg'ularni ifodalashda ham II shaxs birligi o'rnida qo'llanadi: **keldi, kutganim keldi**. /nutq hozirgi tasodifan kelib qolgan III shaxsga aloqador/ Oromi jonim **keldilar** /Qo'shiq/. Bolaginam **keldi**, bolaginamdan o'rgilay /Jonli nutq/ kabi.

Bo'lishli – bo'lishsizlik formalari

Ritorik so'roq gaplarda bo'lishli shakl bo'lishsizlik ma'nosi uchun va, aksincha, bo'lishsiz shakl bo'lishlilik uchun xizmat qiliishi mumkin. Bunday chog'da gap tarkibida ko'pincha so'roq olmoshi /yuklamasi/ qo'shiladi va ohang maxsus rang oladi.

Bo'lishsizlikni ifodalovchi tipik forma – **ma** murakkab fe'larning biriga yoki har ikkisiga qo'shilishi mumkin:

a/ so'zlovchi birinchi komponentda ifodalangan harakat-holatning inkorini tasdiqlamoqchi bo'lganda, **-ma** o'shangaga qo'shiladi:

aytmay qo'ygan kabi. Bunda har ikki komponentda oddiy voqelik qo'shimcha ottenkasiz ifoda etiladi.

-ma keyingi komponentga qo'shilganda, nolish, afsuslanish, tasodifiylik kabi ottenkalar ifodalanadi: aytib qo'yagan /afsuski //negadir// aytish kerak edi-yu, aytib qo'ymabdi-da, degan ma'nolar/;

b/ -ma fe'lning har ikki komponentiga qo'shilganda oddiy inkorni emas, qat'iylik, jiddiylik, zarurlik ottenkalari bilan qorishgan tasdiq ma'nosini ifodalaydi: Sen borgan joylarga men ham **bormay qolmayman** /Qo'shiq/ Bu ishni oxiriga **yetkazmay qo'yganman** (Og'z.so'zl.);

v/ murakkab fe'l tarkibida «emas» qo'llanganda o'zidan oldingi sodda /murakkab/ fe'l formalari ma'nosini-tasdiqni inkor etadi. /o'qigan emas/, Inkorni-inkor etadi, /o'qimagan emas/ «**Yo'q**» va «na» so'zlari inkor ifodalasa ham, fe'lga bo'lishsizlik tusini bermaydi. Shuning uchun bu haqda inkor gaplar bahsida fikr yuritamiz.

Ravish uslubiyati

Nutq jarayonida ish-harakat bilan bog'liq bo'lган holat, o'rinn, payt, sabab, maqsad va miqdor tushunchalari yuzasidan ma'lumot berish ko'zda tutilganda, ravishni u yoki bu turidan foydalilaniladi. Holat ravishlari, ayniqsa, **-ona**, **-larcha**, **-day**, /dek/ formalari orqali hosil qilingan ko'rinishlari og'zaki va badiiy uslubga xos bo'lib, nutqqa ko'tarinkilik, joziba baxsh etadi, voqelikni bo'rttirib ifodalaydi: Dushmanga qarshi mardona kurashdi. Cho'qqilar osmon bilan tutashgandek ko'rindi. Jangovar topshiriq mardlarcha bajariidi kabi.

Payt-o'rinn, sabab va maqsad ravishlari barcha nutq uslubida qo'llanib, asosan, voqelik to'g'risida mumkin qadar aniq ma'lumot berish uchun xizmat qiladi: **Kecha** avtomatni ko'targan bilak, **Bugun** qo'lga oidi mehnat teshasin. «Pastda go'yoki bahor» /M. B./

Miqdor-daraja ravishlari ham barcha nutq uslubiga xos, lekin ular muayyan maqsadiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, miqdor ravishlari son tushunchasi bilan zich bog'-langan. Shuning uchun ham ular, ko'pincha, predmet /ba'zan ish-harakat/ning noma'lum miqdorini ko'rsatadi. So'zlovchi nutq paytida predmet yoki ish-harakatning aniq emas, balki umuman miqdori yuzasidan axborot bermoqchi bo'lganda, ulardan birini anglab ishlatadi. Masalan: Yig'ilishga ancha odam qatnashdi. Bu gapda nutq payti uchun odamlar soni qancha ekan emas, umuman, oz emasligi muhim. Voqelik jarayonida so'zlovchi uchun ham bu miqdorning aniqligi muhim emas edi, shuning uchun sanab o'tilmagan. Demak, daraja-miqdor ravishlari sanamaganlik, sanoqning muhim emasligi tushunchalarini ifoda etadi. «**Xiyla**», «**sal**» / «**sal-pal**» / / «**oz-moz**» /, «**picha**» kabi ravishlar hurmat, tortinosh, iltimos, kamtarlik ottenkalarini aks ettiradi. **Xiyla** yordamlashdik, **oz-moz** qarashib yuboring. Tobim qochgan ko'rinati mening **oz-moz**. /G'.G'./.

«**Oz, kam**» ravishlarida esa jiddiylik, qat'iylik ottenkasi mavjud. Solishtiring: **xiyla** yordamlashdik, /demak, ko'p ham unchalik emas, ishqilib, yordamlashdik / -**oz** yordamlashdik, /demak, ko'proq yordamlashish kerak edi, lekin oz yordamlashdik /.

«**Ko'p**», «**ancha**», «**allaqancha**», «**talay**», «**bir talay**», «**bir qancha**» kabilar gumon qilinganidan ko'ra ortiqroq, «**ancha-muncha**», «**xiylagina**» kabilar esa gumon qilingan darajadagi miqdor tushunchalarini ifoda etadi: Qiyoslang: yig'ilishga odam **ko'p** to'plandi... **oz-moz** / **xiylagina** // **uncha-muncha** to'plandi. Xalq xo'jaligi uchun **ko'pgina** narsa olindi.

So'zlovchi nutq jarayonida o'zi ifoda etmoqchi bo'lgan fikrni tinglovchiga imkonli boricha aniq bayon etmoq uchun yuqoridagi ravishlardan eng mosini tanlab ishlatadi va bu bilan tinglovchiga, voqelikka turlichay modal munosabatlarini ham ifoda etadi.

Ko'makchilar usiubiyati

Ko'makchilar ko'pincha kelishik affikslari bilan vazifadosh bo'ladi, demak, ular analistik forma hosil qiladi. Lekin bu degani kelishik affikslari bilan ko'makchilarning ieksik-semantik vazifasi

bir xil degani emas. Odatda kelishikli tuzilmalarga nisbatan ko'-makchili tuzilmalarda mazmun ustunligi sezilib turadi. Masalan:... bu kitobni ukamga oldim - ukam **uchun** oldim. /Keyingi gapda atalganlik tushunchasi qat'iyroq/.

Mazmunga ko'ra gruppalanuvchi ko'makchilarning har bir to'dasi biror kelishik formasiga vazifadosh yoki shu forma bilan qo'llanishga muvofiqlashgan bo'ladi. Masalan, payt tushunchasi bilan bog'langan «**avval**», «**keyin**», «**so'ng**» kabilar chiqish kelishigi bilan; «**uchun**», «**orqali**» kabilar bosh kelishik shakli bilan qo'llanishga moslangan.

Yoki: «**bilan**», «**orqali**» ko'makchilari – **da** formasi, «**uchun**», «**sari**», «**tomon**» ko'makchilari – **ga** formasi bilan vazifadosh bo'lib qo'llana oladi.

Ko'makchilar biror nutq uslubida ko'proq qo'llanishi bilan ham farqlanishi mumkin. Masalan, «**orqali**», «**sari**», «**so'ng**», «**avval**», «**burün**» kabilar ko'proq badiiy va ilmiy nutqqa xos bo'lsa, «**bilan**», «**tomon**», «**oldin**», «**keyin**» kabilar barcha nutq uslubida ishlatila beradi.

«**Bilan**», «**orqali**» ko'makchilari biror ish-harakatni yuzaga chiqarishda o'zidan oldingi so'z vosita bo'lgan chog'da – **da** formasiga vazifadosh bo'lib qo'llana oladi: **Qalam bilan** yozdi-qalamda yozdi. **Poyezdda** ketdi-poyezd bilan ketdi. **Telefon //bilan// orqali** gaplashdi kabi.

«**Bilan**» fe'l formasi bilan qo'llanganda **gan + da** shakliga sinonim bo'la oladi. Biroq fe'l+bilan formasida «**shu ondayoq**» tushunchasi aks etsa. **-gan +da** formasida esa vaqt qisqaligi tushunchasi bo'lmaydi: **Tong otishi bilan // otganda** yo'lga chiqamiz.

«**Uchun**» ko'makchisi ish-harakatning o'zidan oldingi so'zdan anglashilgan predmetga atalganini bildirganda, biror harakatning ro'y berishiga ikkinchi bir harakat sabab, maqsad, natija bo'lganda **-ga** formasiga vazifadosh bo'lib qo'llana oladi: ...paxtazorni **aylanish uchun //aylanishga** jo'nadi. **Kelmagani uchun // kelmaganiga** koyidi... kabi. /**Nega, nechun** formalari «**nima+ga**» va «**nima+uchun**» ning qisqargan shaklidir/.

«**Sari**» ko'makchisi, asosan, poetik nutqqa xos bo'lib, ba'zan -ga formasiga vazifadosh bo'lib qo'llanadi. -ga formasiga ba'zan «**tomon**» ko'makchisiga, ba'zan undan oldingi ot/otlashgan so'zga qo'shiladi. **Maktab tomonga // matabga tomon** ketdi. Birinchi holatda harakat yo'nalishi doira shaklida / matab va matab atrofi/, ikkinchi holatda esa harakat yo'nalishi – to'g'ri chiziq shaklida /to'g'ridan-to'g'ri matabga/ tasavvur etiladi.

«**Bilan**», «**orqali**» ko'makchilar **«yurmoq»**, **«kiymoq»**, **«kelmoq»**, **«jo'namoq»**, **«harakatlanmoq»** kabi fe'llar tomonidan boshqarilgan chiqish kelishigidagi so'z bilan vazifadosh bo'la oladi. Bunday chog'da o'rın ma'nosiga «**bilan**» ko'makchisining birgalik, «**orqali**» ko'makchisining vositalik ma'nosini qo'shiladi. (**Yo'l bilan boraversangiz**, to'g'ri o'zidan chiqasiz-yo'l ham boraveradi, siz ham boraverasiz, yo'l sizni olib boradi, degan ottenka). **Yo'ldan boraversangiz** formasida esa «**boshqa joydan emas, o'sha yo'ldan, siz davom eta berasiz»** ottenkasi mavjud, demak, bu yerda «**bilan**» va -danning denotativ ma'nosini konnatativ ma'nosini bilan birlashib-chatishib ketgan.

«**Ko'ra**» ko'makchisi harakat bildiruvchi so'zlar bilan qo'llanib, uni kirish bo'lakka aylantiruvchi -cha formasiga sinonim bo'la oladi: **Aytishlariga ko'ra, // aytishlaricha**, olomon allaqachon to'plangan /jonli nutq/. Bu holat -ga **qaraganda** tuzilmasida ham uchraydi.

«**Haqida**», «**to'g'risida**» ko'makchilar tushum formasini bilan vazifadosh bo'lib qo'llanishi mumkin. Obyekt tushum shaklida bo'lganda, harakatning to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishi, aniq nima ekanlik, sanash ottenkasi, ot+haqida formasida esa obyektning figuralligi umuman nima ekanligi ottenkasi ifoda etiladi. Masalan: **kamchiliklarni gapiring – kamchilik haqida gapiring. Yutuqlardan so'zlang, yutuqlar haqida so'zlang** kabi.

Bunday chog'da «**gapiring**», «**so'zlang**» kabi nutq fe'llari boshqaruvchi bo'ladi. /«**ayting**» fe'li mustasno/.

Chiqish formasini tushum formasini o'rnida qo'llanganda, yuqoridagi ko'makchilar bilan vazifadosh bo'ladi. Qiyoslash: **kamchiliklarni gapiring – kamchiliklardan gapiring – kamchiliklar haqida**

gapiring. «-ni gapiring» formasida to'g'ridan-to'g'ri, aniq va barchasini ma'nosi, «-dan gapiring» shaklida hammasini bo'lmasa ham ma'nosi. «haqida gapiring» shaklida esa kamchiliklar va u bilan bog'liq narsalar ma'nosi mavjud.

«**Uzra**» ko'makchisi badiiy nutqqa xos bo'lib, o'rin forması bilan vazifadosh qo'llanadi. O'rin kelishigi formasida maydon torligi, **uzra** formasida maydon kengligi va maydon usti ottenkasi mavjud: boshimizda quyosh porladi-boshimiz **uzra** quyosh porladi. **Shaharda osoyishtalik hukmron** – **Shahar uzra osoyishtalik hukmron** kabi.

Yuklamalar uslubiyati

Yuklamalar so'z yoki gaplarga qo'shimcha ma'no orttirish bilan xarakterlanadi va bu ma'nolar fikrni mumkin qadar aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ular so'z va gaplarni o'zaro bog'lashda ham xizmat qilishi mumkin.

So'z yuklamalar ayirish-chegaralash, kuchaytirish, o'xshatish kabi ma'nolarni ifodalab, ayni bir xil tuzilishidagi gaplarni nozik ottenka bilan o'zaro ajratadi. Masalan: ...men keldim. **Faqat** men keldim. **Faqat** yotmas chegarada bir inson – **Nahotki** yerimiz chappa aylanib, **nahotki** daryolar oqar teskari?! Affiks yuklamalar nozik ottenka ifodalash bilan birga ba'zan bog'lovchi vazifasida kelishi, ba'zan so'z, gapga o'zgacha tus berishi bilan so'z yuklamalardan farq qiladi.

Vaziyat va so'zlovchining ruhiy holatiga ko'ra ayrim affiks yuklamalar turlicha ottenkaga ega bo'lishi mumkin. Masalan: **-da** yuklamasi yordami bilan **boraman-da**, **kelaman** ko'rinishidagi tuzilmalarda ta'kid; **boraman-da** tipidagi konstruksiyalarda «ishqilib hozirmi, keyinmi» ma'nosi; **men-da boraman** tarzidagi gaplarda boshqalar bilan birga harakatlanish ottenkasi ifoda etiladi.

-a yuklamasi, asosan so'roq gaplarni hosil qiladi. Lekin ayrim holatlarda afsuslanish, ajablanish ottenkalarini ham ifoda etadi. So'zlovchi nutq jarayonida tinglovchi ifodalagan fikrga noroziligi yoki xayrixohligini bildirish uchun maxsus /tinglovchi gapini inkor voki tasdiq qiladigan/ gaplardan toydalaniib o'tirmavdi-da.

uning gapiga ishora qiluvchi formaga /gapga/ -a yuklamasini qo'shib ishlatadi: shu gapni **aytibsan-a** ... nega aytding/, aytmaslik kerak edi. /norozilik ma'nosi/. Yaxshi **kelibsan-a** /quvonish ma'nosi/. ...**Aytasan-a** .../aytmaysan ma'nosi/.

-da yuklamasi butun gapga yoki ayrim so'zga turlicha ottenka qo'shishi mumkin. Butun gapga aloqador bo'lganda, gap oxirida keladi va ta'kid, rozilik kabi ottenkani beradi. U yerga Hakim **boradi-da** /maylimi, degan ottenka/. Men **boraman-da**. /ta'kid va rozilik ottenkasi/. -da ning ma'nosi faqat o'zi qo'shilgan so'zga aloqador bo'lganda, gap oxirida emas, orada keladi: **Men-da** boraman/boshqalar qatori men ham ottenkasi/. Bunday qo'llanish, asosan, badiiy nutqqa xos.

- **ku** yuklamasi ta'kid, o'ylanish, qat'iylik kabi ottenkalarni ifodalaydi. Ta'kid ma'nosi uchun bu yeklama gap oxirida ishlataladi: o'tgan yili **tug'ildim-ku** /Masal/ Eh, kelmay qolishini bilardim-ku (Jonli nutq) kabi.

- Qat'iylik ma'nosi uchun ham gap oxirida /Bu gap bir yoki bir necha bo'lakdan iborat bo'lishi mumkin./ ishlataladi: Hamma buyrug'ingizni **bajaryapti-ku!** Tosh yog'ayotgani **yo'q-ku**, axir! O'ylanish ma'nosi uchun gap o'rtaida ishlataladi, -ku biroz cho'zib aytiladi: **Men-kuu** bora beraman ... **Yomg'ir-kuu** tindi, lekin havo ... sovidi.

- **u** /yu/ yuklamasi ham ta'kid, norozilik, o'ylanish, hayratlanish kabi ottenkalarni ifodalaydi: **Aytasan-u**, qaytasan /ta'kid/. **Men-u** – boraveraman /o'ylanish/, bugunoq yetib **kelibdi-yu** /hayratlanish/. Tinglovchi uchun nomaqbul bo'lgan ish topshirilganda, uni bajarish imkoniyati chegarali ekanida norozilik ottenkasi uchun -u yuklamasi ishlataladi. Bu yigitni ketkaz bu yerdan. -U **ukam-u**. ... /qanday qilib ketkazaman ottenkasi/.

- **oq** /yoq/ yuklamasi ta'kid, ayirish, chegaralash ottekasini beradi. So'zlovchi ma'lum bir fikrni qat'iy ifodalashda, boshqa bir shaxsning harakati yoki gapidan norozi bo'lganda -oq, /yoq/ dan foydalanishi mumkin. Dalaga **hoziroq** jo'nayman. /ta'kid, ayirish/ Bu ishni **o'zimoq** bajara qolay /norozilik, jiddiylik/.

-chi yuklamasi so'roq ma'nosidan tashqari ta'kid, eslatish, o'ylanish kabi ottenkalarni ifodalashga ham xizmat qiladi. So'zlov-chi bir yoki bir necha kishiga aloqador gapni aytib bo'lgach, bir kishi /tinglovchi/ga alohida topshiriq berganda, «sen», «siz» olmoshiga -chi ni qo'shib ishlatadi: **Siz-chi** /-chi urg'u oladi, cho'ziladi/ xirmonda ishlaysiz. Vaziyatga ko'ra bunday gaplarda qistov ham, ta'kid ham, eslatish ham, o'ylanish ham aks etishi mumkin. Bu so'zlovchining nutq paytidagi holati, mimikasi, pauzasi bilan bog'liq, -chi esa gap ichida, ko'pincha, gap boshida keladi: **Ertaga-chi**, biz bolalar teatriga boramiz. Tezroq **borsang-chi!** kabi.

SINTAKTIK USLUBIYAT

1. Kirish. Sintaktik uslubiyat obyekti. Maqsad va vazifalari.

1. Sintaktik qurilish va uning ko'p variantliligi, fikr ifodalash vositalarining boy va xilma-xil formalarga egaligi obyektiv olam voqeа-hodisalari yuzasidan axborot berish, olish, turlicha modal munosabatlarni ifodalashda keng imkoniyatlar ochib beradi. Mashhur tilshunos olimlar, jumladan M. Verdi, I.R.Galperin, A.I. Yefimov, V.V. Vinogradov, A.N.Gvozdev, D.E.Rozental, A. Mamajonov kabilar sintaktik kategoriyalarning uslubiy obyekt sifatida muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlab, o'tganlar.

So'zni tanlash bilan birga uni o'z ornida ishlatish, gapni to'g'ri qurish va maxsus ohang bilan aytish, tanlangan birikmaning mantiqiy asosliligi, sodda va qo'shma gaplardan foydalanishdagi o'ziga xosliklar, inversiyani o'rinli hosil qilish va boshqalar sintaktik uslubiyatning asosiy tekshirish obyektiidir.

Sintaktik uslubiyatda, asosan, ekspressivlik bilan bog'liq bo'lgan tuzilmalar yuzasidan bahs yuritiladi. Shu bilan birga, o'zaro sinonim bo'lgan yoki bo'la oladigan sintaktik birliklarning ma'nolari, har bir birlikda zuhur etilgan nozik ottenkalar nimalardan iboratligi kabi masalalar ham, heji boricha, tahlil etiladi.

2. Sintaktik kategoriyalarning aksariyati barcha nutq uslublarida faol ishlatila beradi. Lekin bir qator sintaktik birliklar borki, uslubiy jihatdan chegaralanganligi bilan ajralib turadi. Masalan, ravishdosh va sifatdosh oborotlar, bog'lovchilarning ayrim turлari, qo'shma gaplarning ko'pchiligi kitobiy nutq uslubiga xosdir. Biroq ularni chegaralash, faqatgina biror nutq uslubiga qat'iy bog'lab qo'yish mumkin emas. Demak, biror kategoriya biror nutqqa xos deyilganda, uning shu uslubda nisbatan ko'proq, boshqasida ozroq ishlatilishi nazarda tutiladi.

Sintaktik sinonimiya uslubiy tadqiqotda katta ahamiyatga ega. Sintaktik sinonimiya fikrni aniq ifodalashda, obyektiv olam hodisalarini to'g'ri bayon qilishda muhim vositadir. Sintaktik sinonimiyalarning o'zaro farqini, ularda aks etgan nozik ottenkalarni sezish va ajrata bilish individning uslubiy uquv darajasini belgilaydi. Bu esa ma'lum bir sintaktik formaning qachon va qaysi nutq uslubiga xos ekanini belgilay olishga, ulardan nutqda to'g'ri foydalanishga imkon beradi.

Sinonimik birliklar biron nutq uslubida ko'proq ishlatilishi bilan farqlanib turadi. Masalan, sodda gap formalari ko'proq og'zaki nutq, xuddi shu gapga sinonim bo'lgan qo'shma gap formalari esa kitobiy-ilmiy va badiiy nutqqa xos bo'ladi.

3. Sintaktik kategoriyalarning uslubiy xususiyatlarini o'rganish va tadqiq qilishda, ularning obyektiv olam hodisalarini aniqroq bayon etishdagi muvofiq-nomuvofiqligi, so'zlovchining qanday maqsadni ko'zlab fikr yuritayotgani va o'z fikrini, his-tuyg'ularini ifodalashga intilganini to'la tasavvur etishda sintaktik variantlarni qiyoslash asosiy omil hisoblanadi. Ayni chog'da bu usul fikr bayon qilishda muayyan sinonimik birliklarning qay biri muayyan nutq paytida o'rinni ekanini anglash va tanlay bilish imkonini ham beradi. Masalan: **Eshitdimki, qahramon nom olibsan.** (H.O.)-**Qahramon nom olganingni eshitdim.** Misolimizdagи qo'shma gap formasi (I gap) badiiyligi, emotsiya ottenkasiga egaligi, poetik nutqqa oidligi bilan, keyingi sodda gap formasi esa og'zaki (ham adabiy, ham so'zlashuv) uslubga xosligi bilan ajralib turadi.

Qo'shma gap formasida emotsionallik, sodda gap formasida oddiy axborot ottenkasi sezilib turadi.

Biror gapning mazmunini boshqa gap formalari bilan almash-
tirib qo'llash transformatsiya deb ataladi. Transformatsiya sodda
gapning o'z ichida yoki qo'shma gap doirasida qilinishi mumkin.
Aniqrog'i, har qanday inversiya, yig'iq gapni yoyiq gapga va
aksincha almashtirish, undalma, kirishlarni kiritish yoki tushirish,
bir tarkibli gapni ikki tarkibli gapga va aksincha almashtirishlar
barchasi transformatsiya bo'lib, tilning ichki imkoniyatlari naqadar
keng, rang-barang, ifoda vositalariga boyligini anglash va ulardan
o'rinali foydalanish imkonini ochishga xizmat qiladi. Bunga qanoat
hosil qilmoq uchun matnshunoslikdan xabardor bo'lmoq o'zi yetar-
li.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarining uslubiy xususiyatlari

I.1. **Darak gaplar** nutqning barcha uslublarida eng ko'p qo'l-
lanadigan turdir. Ular, asosan, tinglovchiga voqe-a-hodisa, predmet,
belgi, miqdor va boshqalarni tasdiqlab yoki inkor qilib axborot
berish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga gumon, sevinch, g'urur,
achinish, orzu-istik, kesatiq, piching kabi modal munosabalarni
ifodalashga ham xizmat qiladi.

Bu ma'nolar kesim formasi bilan bog'liq. Ot kesimli darak
gaplar kesimlik ko'rsatkichi bo'limganda tasviriy xarakterda bo'la-
di. Kesimlik ko'rsatkichi bo'lganda, kesimdan anglashilgan leksik
ma'no tasdiqlanadi, zamoni ko'rsatiladi yoki modal munosabat ifo-
dalanadi. **Ukam-o'qituvchi-Ukam o'qituvchi bo'ldi // bo'ladi**
// bo'lmoqchi // bo'lar.

2. Gumon, piching, quvonch kabi ma'no ifodalash uchun darak
gaplar maxsus ohang bilan aytilishi talab etiladi. Bu nutq
vaqt va nutq jarayoniga bog'liq.

3. So'zlovchi nutq jarayonida tinglovchi axborotida bayon
qilingan voqelikka munosabatini ifoda etganda, uning gapini
maxsus so'roq yoki undov bilan aynan takrorlaydi. Bunday holat-
da nutq dialogik formada bo'ladi. **Hozir keldim. -Hozir keldim?**

Hozir keldim! Kinoya, piching ma'nolari uchun ohangdan tashqari unli cho'zib talaffuz qilinadi: ...**hozir keldiim? Men bajardiim?** Bunday chog'da kinoya-piching yoki inkor ma'nosini aniqlashtirish, kuchaytirish maqsadida o'sha gapdan so'ng «a» yuklamasi keltiriladi. **Men ham boraman? Aaa?**

II.1. **So'roq gaplar** asosan, dialogik nutqda ishlatilib, aksariyat hollarda javob talab qiladi. Affiks yuklamalar orqali hosil qilingan so'roq gaplar qaror-farmonlar, hukmlar doirasidagi rasmiy ish va ilmiy uslublarda kam uchraydi.

So'roq olmoshlari va so'roq so'zlar orqali hosil qilingan so'roq gaplardan esa badiiy, publitsistik va so'zlashuv nutqi uslublarida ko'proq foydalilanildi.

Turlicha modal munosabat ifodalovchi so'roq gap formalari so'zlashuv va badiiy nutq uslubiga xos bo'lib, rasmiy va ilmiy uslublarda deyarli ishlatilmaydi yoki kam ishlatiladi. Ohang bilan hosil qilinadigan so'roq gap formalari so'zlashuv uslubigagina xos bo'lib, sof so'roqni emas, alohida ottenkali so'roq tushunchasini ifodalaydi.

2. So'roq turlicha his-tuyg'ular bilan qo'shilgan holda bo'lishi mumkin. Bunday tushunchani ifodalovchi gaplar ritorik so'roq gaplar deb yuritiladi. Ritorik so'roq gaplar ba'zan sof so'roq gap formasi bilan, ko'pincha esa maxsus leksik-morfologik va fonetik vositalar orqali hosil qilinadi:

a) **nahot /nahotki/ yuklamasi** orqali hosil qilingan ritorik so'roq gaplar taajjub ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, ba'zan javob talab qiladi, ba'zan esa yo'q.

Javob talab qilmaganda xitob, javob talab qilganda so'roq ohangi ustun bo'ladi.

b) **-mi, -a yuklamalari** orqali hosil qilingan so'roq gap formalari ichki va tashqi nutq jarayonida ishlatilib, odatda javob talab qilmaydi. So'zlovchi obyektiv olam voqeа-hodisalaridan hayratga tushganda, bu voqeа-hodisa kutilmaganda ro'y berganda, so'roq gap formasi bilan o'ziga o'zi savol beradi. Bu savolning zamiridan tasdiq javob anglashilib turadi. Gap xitob ohangi bilan aytliganda, g'azab-nafrat, afsus-inkor kabi ottenkalar, se'roq changi

bilan aytilganda esa o'ylanish, hayratlanish ottenkalari ifoda etiladi. Masalan: **Vo ajab! Bu kim-bir parishtami yo...** (hayratlanish). Kim biladi, ko'rishamizmi, yo'qmi? (o'ylanish). Menga shunday javob qilasanmi? (g'azab, inkor etish). **Voy, nima qilib qo'ydim? Qanday kunlarga qoldik, a.?!** Endi nima qilsam ekan-a? o'qisammikan?! (afsuslanish, o'ylanish) kabi.

Dialogik nutqda so'zlovchining fikri tinglovchi tomonidan tasdiq yoki aksincha inkor etilsa yoki shubba ostida bo'lsa, nutq ishtirokchilaridan biri inkorni inkor etsa, -mini ikki marta takrorlaydi: ...umuman, aytish kerakmi-yo'qmi? (aytish kerak deyilmoqchi).

Aytasanmi-yo'qmi?! tipidagi tuzilmalarda tasdiq ijrosiga da'vat, tazyiq ma'nosi anglashiladi.

Boradimi, bormaydimi o'zi biladi tipidagi gaplarda ritorik so'roq ottenkasi yo'q. Bunday gaplarda -mi birinchi tuzilmani ikkinchisi bilan munosabatga kirishtiradi va ayni chog'da keyingi konstruksiyadan anglashilgan voqelikka birinchi tuzilmadagi har ikki harakatning teng aloqadorligini yoki aloqasi yo'qligini ko'rsatadi.

Ritorik so'roq gaplar uyushib kelishi mumkin. Bunday chog'da voqelik inkor etiladi va ma'no kuchaytiriladi. Ayrim hollarda so'roq-inkor maxsus vositalar orqali yana inkor etilishi mumkin. **U seni so'kdimi-yo'q, urdimi-yo'q - U seni so'kdimi, urdimi-yo'q!**

So'zlovchi tinglovchining diqqatini jalb etish maqsadida nutqi ichiga so'roq gapni kiritadi va javobni kutmay, gapini davom ettira beradi. Bu bilan so'roq gapda ifodalangan voqeа-hodisa keyin ro'y beradigan voqeа-hodisa uchun ahamiyatli ekani uqtiriladi: **Ana u: Ko'ryapsizmi? Ana, biz tomonga uchib kelyapti!**

Nutq emotsiyonalligini oshirish, ayrim voqeа-hodisaning ahamiyatini bo'rttirishda «aytmaysizmi» so'zi bilan hosil qilingan so'roq gaplardan foydalilanildi: **Ayrim kishilarning ruhlanib ketgанини aytmaysizmi?! Ko'rmaysizmi?! Qaramaysizmi?!**

Qiyoslang: Ayrim kishilar ruhlanib ketdi- Ayrim kishilarning ruhlanib ketganini aytmaysizmi?! Ko'rinadiki, bunday tuzilmalarda, avvalo, so'zlovchining his-tuyg'usi ifoda etilgan bo'ladi.

So'zlovchi ayrim hollarda o'z nutqiga ifoda-ta'sirchanlik berish, ma'lum bir harakat ijrosining ahamiyatini bo'rttirish, ta'kidlash maqsadida darak gap tarkibiga shu darak gap kesimining oldidan -**mi** yuklamali so'roq formasini kiritadi: ...va'dani bajardikmi - bajardik!

Qiyoslang: ...dushmanni mudofaa marrasiga quvdingiz-quvdin-gizmi-quvdingiz.

III.1. **Buyruq gaplar** sof buyruqdan tashqari turlicha modal munosabatlarni ham ifoda etadi va ayrim nutq uslublariga xosligi bilan o'zaro farqlanadi. Masalan, iltimos, maslahat, xohish-istikabi ma'nolarni ifodalovchi buyruq gaplar so'zlashuv va badiiy nutq uslubiga, kesimi majhul formada bo'lgan buyruq gaplar esa rasmiy ish uslubiga xosdir. Sof buyruq gaplar ilmiy uslubda, badiiy-tasviriy va axborot xarakteridagi matnlarda deyarli ishlatalmaydi. Bundan tashqari, kesimi buyruqni yumshatuvchi -**gin**, -**sin**, -**in** affikslarini olgan formalar ham faqat so'zlashuv uslubiga va dialogik nutqqa xos bo'lib, boshqa uslublarda kam uchraydi.

2. Buyruq gaplarni hosil qiluvchi vositalar fe'lning buyruq formalaridir. Tinch ohang bilan aytilgan har qanday buyruq gap neytral buyruqni ifoda etadi. Biroq buyruq turlicha modal munosabatlarni ifoda etishi mumkin: Bunday modal munosabatlar fonetik, leksik, grammatik vositalar orqali reallashadi:

a) **ohang orqali**: Qani, ketdik, yur. (Jonli nutq).

b) -**gin**, -**in**, (-**yin**) va -**sa** orqali: ...tez-tez xat yozib turgin. ...tur, manavini o'qigin, kimdan kelibdi - ... dam olish xonalarini qulflab qo'ygin. Men ham o'qiyin (Og'z.so'zl.);

v) -**chi** orqali, Qani, aytib ko'r-**chi**! Aytmay ko'r-**chi**! Qani yozma-**chi**! (Og'z.so'zl.);

g) takror orqali: ...ket-ket! Ko'zimga ko'rinma! **Jo'na**, **Jo'na**! Darrov yetib bor (Og'z.so'zl.);

d) **fe'l + bo'p orqali**: ...**aytmay bo'psan!** (Bunda darak gap formasi buyruq gap ma'nosini beradi:) Qiyoslang: - Aytmayman – **Aytmay bo'psan.** Demak, aytasan (ayt degan ma'no);

ye) **nisbat almashuvi bilan**: ...**olisbib o'tirilsin.** Bu yerda **chekilmasin!** Qattiq gaplar **aytilmasin** (Og'z.so'zl.);

yo) **shaxs almashuvi bilan**: Qani, kirsinlar. (Gaz.) **O'zları biror gap aytsinlar.** (Og'z.so'zl.)

Dialogik nutq jarayonida suhbatdoshlardan biri biror harakat ijrosini tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Bu harakatning inkori yoki tasdiqi ikkinchisi uchun zarur va shart bo'lib, birinchi gapi-ruvchini shu harakatni bajarishga majbur qiladi, unga tazyiq o't-kazadi. Bunday chog'da tazyiq o'tkazuvchi «fe'l+bo'psan» (bo'psiz-bo'pti) fe'l birligining tasdiq yoki inkor shaklidan foydalanadi: **Aytmayman, - Aytmay bo'psan! Aytaman. – Aytib bo'psan** kabi. So'zlovchi mansab yoki boshqa jihatdan ustun (quyi) turgan shaxsga nisbatan yo hurmat yoki humatsizlik bilan munosabatda bo'lishi mumkin. Bunday munosabat ba'zan majhul nisbat formasini qo'llash orqali ifoda etilishi mumkin: **Qani, dasturxonga qarab o'tirilsin.** (hurmat). **Yuqoriga, ko'r pachaga o'tilsin.** (mulo-zamat). **Bu yerda chekilmasin** (andisha va humatsizlik). Bu ma'nolar shaxs almashinuvi orqali ham ifoda etilishi mumkin: ...**to'rga o'tsinlar** (piching, kesatiq). **Qani domla, yuqoriga o'tsinlar** (kamtarlik, hurmat).

IV.1. **Undov gaplar so'zlashuv**, badiiy va publitsistik, shuningdek, inkor, chaqiriq kabilar rasmiy nutq uslubiga xos bo'lib, ilmiy uslubda, qaror-farmon, idoraviy aloqalar bilan bog'liq bo'lgan ish qog'ozlari, huquqiy hujjat va boshqalarda deyarli ishlatilmaydi.

Obyektiv olam va uning voqeа-hodisalari tufayli yuzaga kelgan hayajon, his-tuyg'u va emotsiyal munosabatlarni ifodalovchi sof undov gaplar, asosan, monologik nutqqa xos. Yozuvchi va shoirlarning asari ham (avtor nutqi) monologik nutq tushunchasiga kiradi.

Chaqiriq, da'vat, buyruq-xitob kabi ma'nolarni ifodalovchi undov gaplar, asosan, rasmiy ish va so'zlashuv uslubiga xosdir.

2. Undov gaplar turlicha vositalar orqali hosil qilinadi va bu vositalar biror ottenka uchun xizmat qiladi:

1) **undov so'zlar bilan**: Eh, vaqt o'tib ketdil! (Jonli nutq);

2) **kesimni birinchi o'ringa ko'chirish bilan**: Yashasin tinchlik! **Yo'qolsin** dushmanlik! (Gaz.);

3) **ohang bilan**: Shahrimiz juda ko'rkan! Baxtli yoshligimiz uchun **Yaratgandan minnatdormiz!** (Gaz.)

3. Undov gaplarda so'zlovchi o'ta kuchli his-hayajonini ifodalashi mumkin. Bunda turli vositalar undov gaplarni hosil qilmaydi, balki shakllangan undov gaplarning ma'nosini kuchaytiradi:

a) **-ki, -a, -da orqali**. Bunda **-ki** cho'zibroq talaffuz etiladi, **-a/ -ya/ -da** urg'u bilan aytiladi va bu bilan ma'no kuchaytiriladi. Naqadar go'zal-a bu gul! Bu gullar qanday yaxshi edi-ya! Shahar juda o'zgarib ketibdi-da! Hayot shuncha totlik, aslo to'ymaysan! (Jonli nutq);

b) **qanday, qanaqa, shunday, shunchalik, naqadar, biram kabi so'zlar orqali**: Bunda tasvirlanayotgan, his-tuyg'u uyg'otgan voqelikning roli beqiyosligi ifoda etiladi: uning o'g'li **shunday //shunchalik// biram sho'x bo'libdiki...** **Qanday // qanaqa yigitlar edi ular!**

v) **takror orqali**: **Yo'qol! Yo'qol!** To'xta, to'xta, nima deyapsan o'zing! (Jonli nutq).

Demak, darak, so'roq, buyruq va undov gaplar turli nutq uslublarida qo'llanishiga qarab o'ziga xosliklarga ega bo'ladi, ulardan to'g'ri foydalanish esa nutqiy ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi.

Tasdiq va inkor gaplar

II.1. Umuman olganda, tasdiq va inkor gaplar barcha nutq uslublarida ishlataladi. Lekin inkor gaplar ifodalanishiga ko'ra ma'lum uslubda oz yoki ko'p ishlatalishi bilan farq qiladi. Masalan, **-ma** vositasida hosil qilingan inkor gaplar barcha nutq uslubida erkin ishlatsa, **emas, yo'q** va na so'zları bilan hosil qilingan inkor gaplar ilmiy, rasmiy ish uslublarida nisbatan kam ishlataladi. Shuningdek, ohang orqali va tasdiq forma bilan hosil

qilinadigan inkor gaplar so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, boshqa uslublarda, deyarli, ishlatilmaydi. Bunday qo'llanishlar nutq uslublari talablari va mohiyati bilan qat'iy bog'langan.

2. a) inkor fe'l formalariga -**ma** qo'shish bilan hosil qilinadi. Inkor gaplar orqali yuzaga kelmagan harakat tasdiqlanadi va shu haqda axborot beriladi. Bu inkor o'tgan yoki hozirgi zamonda ro'y beradi: **ekish boshlandi** – **ekish boshlanmadi**;

b) inkor forma barcha mustaqil so'z turkumlariga «emas» to'liqsiz fe'lini qo'shish bilan hosil qilinadi. Bunda «emas» o'zidan oldingi so'zning leksik ma'nosini inkor etadi. «emas» fe'l formasiga qo'shilganda, -**ma** orqali hosil qilingan fe'lga sinonim bo'la oladi. **Fe'l+ma formasi** oddiy axborotni, **fe'l+emas formasi** bir oz keskinlik ottenkasini ifoda etadi: **kelmadi-kelgan emas**. Musobaqada g'olib chiqmadik – g'olib chiqqan emasmiz. Shikoyat qilmadik – shikoyat qilgan emasmiz. **O'qiyapmiz** – **o'qiyotgan emasmiz**;

v) «yo'q» so'zi fe'l formalari bilan birga kelganda, harakatni inkor etadi va ko'pincha -**ma** bilan hosil qilingan fe'lga sinonim bo'ladi. «Yo'q» bilan ifodalangan inkor bir oz anqlik-jiddiylik ottenkasini beradi. «Yo'q» mustaqil kesim bo'lib kelganda, muayyan nutq paytida muayyan makonda predmetning mavjud emasligini ko'rsatadi: Men aslo **o'lganim yo'q**, yov qo'liga **taslim ham bo'lganim yo'q** /H. O./ Bu kitobni **o'qiganim yo'q**;

g) -**na** orqali hosil qilingan inkor alohida ta'kid ottenkasini ifodalaydi – inkor gapga «ham» yuklamasi ma'nosini qo'shadi: **na o'qidi**, **na yozdi**. – o'qimadi **ham**, yozmadi **ham**. **Na ishlaydi**, **na o'qiydi** kabi.

3. Tasdiq forma orqali ifodalanadigan inkor turli qo'shimcha ottenkalar ifodasi uchun xizmat qiladi.

a) so'zlovchi ma'lum bir ish-harakat ijrosida tinglovchi (o'zga) ning imkoniyati cheklanmaganligi, ilojsizligi, majburligi kabi ma'nolarni ifodalamoqchi bo'lganda, fe'l+«bo'psan» formasidan foydalanadi: **aytib bo'psan** /aytmaysan/.

Bunda fe'l inkor formada bo'lsa, tasdiqni ifodalaydi: **aytmay bo'psan** /aytasan/.

b) so'zlovchi ma'lum bir harakatning yuzaga chiqishida afsus, kesatiq, xohish kabi ma'nolarni qo'shib ifodalamoqchi bo'lganda, «**koshki, qani endi**» so'z-iboralarini qo'llaydi, gap tarkibidagi fe'l /kesim/ shart mayli formasida bo'ladi. **Koshki** o'qisa. **Qani endi** muqum tomoshabinlarining bo'lса (Jonli nutq). Fe'l bo'lissiz forma-da bo'lganda. Kesatiq-piching ma'nosida tasdiqni, xohish ma'nosida inkorni ifodalaydi: Qiyoslang: **Koshki, kelmasa /keladi/ - Koshki, kelmasa /kelmasa yaxshi bo'lardi/**;

v) so'zlovchi tinglovchining fikrini rad etish, shu fikrga nis-batan norozilik, piching, qat'iylik ma'nolarini ifodalamoqchi bo'lganda, -ya yuklamasi va takrordan foydalanadi. **Keladi-ya! Keladi-ya-keladi. Aytadi-ya-aytadi;**

g) so'zlovchi tinglovchi tomonidan aytilgan ma'lum harakat /tasdiq/ ning ro'y berishiga ishonmaganda, kesatganda, jiddiy niqtov bilan gapirganda, tasdiq formadagi gap orqali berilgan fikrni maxsus ohang bilan inkor etadi. Bunda ko'pincha gap oldidan «ha» so'zini keltiradi:

U keladi. – Ha keladi! /Bunda «ha» bir oz cho'ziladi va kichik pauza bilan ajratiladi, gap oxiridagi so'z urg'usi kuchay-tiriladi/.

II.1. Inkor forma orqali tasdiq ifodalash ham turlicha qo'-shimcha ottenkalar bilan bog'liq.

a) so'zlovchi ma'lum ish-harakatni ro'yobga chiqarishda qat'iylik, albattalik ottenkasini ifodalamoqchi bo'lganda, fe'lning har ikki komponentini inkor formada qo'llaydi.; Sen borgan joylarda men ham **bormay qo'ymayman** (Qo'shiq) **Aytmay qo'yma**. **O'qimay turma, yozmay qo'yma** (Og'z.so'zl.) kabi;

b) so'zlovchi ma'lum predmetning muayyan payt va o'rinda qisman mavjudligini, shuningdek, kamtarlik, tortinish, hurmat kabi ottenkalarni ifodalamoqchi bo'lganda, «yo'q+emas» formasidan foydalanadi. Bunda avval o'sha predmetning aksini ko'rsatuvchi predmetning bor-yo'qligi eslatilgan bo'ladi. Masalan: Daf'atan qara-ganda, romandagi real hayot va fantastik olam tasvirida nomu-vofiqlik bordek...tuyuladi. Lekin, unda ichki bog'lanish **yo'q emas** (Gaz.). Kamchiliklar ham yo'q emas (Gaz.). Bunday xususiyat

«oz», «ko'p+emas» formasida ham mavjud...kilolab oladiganlar ham **oz emas**. (Gaz.).

Gap bo'laklari masalasi

Gap bo'laklari morfologik kategoriylar /so'z turkumlari/ bilan ifodalanishi va har bir turkumning uslubiy xususiyatlari morfologik uslubiyat bahsida o'rganilganligi tufayli maxsus to'xtashga ehtiyoj yo'q. Biroq kesim formalari ayrim xususiyatlarga egaligini nazarda tutib, qisqacha to'xtab o'tamiz.

1. Kesim qanday so'z (sodda, qo'shma, juft, murakkab) bilan ifodalanishiga ko'ra turli nutq uslubiga xoslangan bo'lishi mumkin.

Kesim ilmiy va rasmiy ish uslublarda III shaxs formasidagi o'zlik yoki majhullik nisbatdagi fe'llar bilan ifodalanadi. Bunda fikr ilmiy uslubda ijro mayli, rasmiy ish uslubida (qaror-farmo-yishlarda) buyruq mayli formasini qo'llash orqali ifoda etiladi: Nutqda fikrni kengaytirish zarurati tug'ilsa, ikkinchi darajali bo'laklarga **murojaat etiladi**. (Darslik). Madaniy-maishiy ishlarga **e'tibor kuchaytirilsin** (Gaz.). Isrofgarchilikka **yo'l qo'yilmasin!** (Chaqiriq).

2. So'zlovchi ma'noni bo'rttirish, ko'tarinkilik, mammuniyat, davomiylilik kabi ottenkalarni ifodalash uchun takrordan foydalananadi: Mustaqillik zamonida **yashnaganim-yashnagan**. (Qo'shiq)...Sizning etagingizni **ushlaganim-ushlagan**. (A.Q.).

Ajratilgan bo'laklarning uslubiy xususiyatlari

1. Barcha nutq uslublarida u yoki bu gap bo'lagi ajratilishi mumkin (Biz bu o'rinda ajratilgan bo'lak tushunchasiga faqat ma'noni bo'rttirish, ajratilmagan bo'lakni izohlash maqsadida qo'llanadigan ajratishlarni nazarda tutamiz). Ular so'zlashuv va badiiy uslubda nisbatan ko'proq, ilmiy va rasmiy ish uslubida kamroq ishlatalishi bilan o'zaro farqlanib turadi. Masalan, ajratilgan sifat-lovchilar ko'proq so'zlashuv va badiiy, ajratilgan izohlovchilar rasmiy-tantanali nutq uslubida nisbatan ko'proq ishlatalishi bilan karakterlanadi. (Ayniqsa, eganing ajratilishi). **Biz ziyorilar doim**

oldinda bo'lishimiz kerak (Gaz.). **Siz mehnat kisbilari** qiyin yo'lni bosib o'tdingiz (Gaz.).

2. Nutq jarayonida (xoh yozma, xoh og'zaki) so'zlovchi o'zi bayon qilmoqchi bo'lgan fikrning ma'lum qirralarini bo'rttirish, alohida ta'kidlash, shunga tinglovchi diqqatini tortish, eslatish kabi maqsadlarni ko'zda tutganda, gapning ma'lum modelini transformatsiya qiladi yoki qo'shimcha vositalardan foydalanadi: **Qo'ch-qorov-do'ng peshana, ko'krakdor, polvonsifat** yigit gazetaga ko'z tikib o'tirardi. (Gaz.)- bu transformatsiya. Uzoqdan **otliqlarning – Alisher va uning hamrohlarining** qorasi ko'rindi. (O.) – bu qo'shimcha vosita.

Yozma nutqda har qanday transformatsiya va qo'shimcha vosita-izohlardan chuqur o'ylab va fikrning ifoda planiga imkonи boricha to'laroq javob beradigan tarzda foydalanishga harakat qilinadi. Gapdagи har qanday o'zgarish ma'lum bir ekspressiv ottenka ifodalashga xizmat qildiriladi. So'zlashuv uslubida esa bunday o'zgarish ekspressivlik ifodalamasligi, faqat qo'shimcha axborot sifatida foydalilanigan bo'lishi mumkin. Bunday chog'da ajratilgan bo'laklar maxsus ohang bilan emas, umuman, gapning ohangi bilan bir butunlikni tashkil etadi.

3.Yuqorida ko'rganimizdek, sifatlovchilarining ajratilishi transformatsiya /aniqlovchi va aniqlanmish modelining holati/ bilan xarakterlanadi. So'zlovchi nutq jarayonida tinglovchiga o'zi fikr yuritayotgan predmet (fikr obyekti)ning nutq payti uchun zarur bo'lgan bir yoki bir necha belgisini alohida ta'kidlash, bo'rttirish, diqqatni shunga jalb etish maqsadida sifatlovchini sifatlanmishdan keyinga ko'chiradi va uni maxsus ohang, maxsus urg'u, maxsus pauza bilan talaffuz etadi: Ulardan biri-**sersoqol, rangpar** va **oriq...** ko'rsatishga tirishadi. (O).

Nutqda sifatlovchi sifatlanmish formasi qo'langanda, belgi tushunchasi ikkinchi o'rinda turadi, belgi va predmet tushunchasi bir butun holda tasavvur etiladi. Sifatlovchi ajratilganda esa, belgi tushunchasi birinchi o'ringa qo'yiladi va alohida tasavvur etiladi. Qiyoslang: Bu gullarni -**oq, safsar, to'q qizil** - Qrimdan olib kelganmiz -**oq, safsar, to'q qizil** gullarni... olib kelganimiz.

4. Boshqa bo'laklarning ajratilishi keng tushunchasini tor tushunchani ifodalovchi so'z (so'z birikmasi) bilan aniqlashtirish orqali ro'y beradi. So'zlovchi nutq paytida tinglovchilarni ajratish yoki payt, o'rin, sabab, maqsad kabi umumiy tushunchalarga yanada aniqlik kiritish maqsadida asosiy gap bo'laklari orasiga maxsus so'z (so'z birikmasi)ni kiritadi va shu kiritilgan bo'lakka tinglovchining diqqatini jalb etadi, uning muhimligini ta'kidlaydi: **Biz, yoshlar** har ishni qila olamiz (ajratish) **Ro'parada, ayvon ostida** zotdor sigir. (N.A.) (o'rnini alohida ko'rsatish, ta'kidlash).

So'z tartibining uslubiy xususiyatlari

1. Axborot xarakteridagi oddiy xabarlarda odatdagি tartib saqlanadi. Lekin oddiy xabarlarni ma'lum nutq paytida qo'shimcha ottenkalar bilan ifodalash zarurati tug'ilishi mumkin. Bunday chog'da inversiyadan foydalaniladi. Masalan: ...**kuya-kuya bir oh urib, shoir bo'lib ketdik biz** (I. O.) **Ikkinci darajali bo'lak-kesim inversiyasida ham shu hol ko'zga tashlanadi:** ishlamay uy olsa, alam qilarkan kishiga (Darak gap). **Bir gap qilib eding menga. Ko'rsataman endi senga** (Undov gap).

Inversiya so'zlashuv va badiiy, chaqiriq-rasmiy ish uslubiga xos. So'zlashuv uslubida, yuqorida eslatilganidek, inversiya ma'lum maqsadga xizmat qilishi ham. qilmasligi ham mumkin. Badiiy uslubda inversiya erkin. So'zlovchi (yozuvchi) nimani va qanday ottenka bilan ifodalamoqchi bo'lsa, tuzilmani shunga muvofiq tuza beradi. Aktual bo'linishi ham, asosan, inversiya bilan bog'liq. Ko'chirma gapli tuzilmalarda avtor gapining kesimi birinchi o'rinda keladi va emotsiyonallik kasb etmaydi.

2. Bosh bo'laklar inversiyasi deganda eganing kesimdan keyinga ko'chirilishini nazarda tutamiz. So'zlovchi nutq jarayonining ma'lum paytida ish-harakatning tashuvchisi yoki subyektini alohida ta'kidlamoqchi, tinglovchi (o'quvchi) diqqatini o'shangga jalb etmoqchi, shu tashuvchi yoki subyekt tomonidan bajaril(ma)gan ish-harakatning muhimligini eslatmoqchi, pisanda qilmoqchi bo'l-ganda, ega va kesim inversiyasidan foydalanadi. Bu inversiya gapning grammatic tabiatini o'zgartirishi ham mumkin: darak gap undov

gapga aylanadi. Bunday gaplarda ham darak, ham undov ma'nolari qorishgan bo'ladi. Yig'iq ot kesimli gaplarda esa kesimga, kesim egaga yoki so'z birikmasi (ko'k ro'mol) gapga aylanishi mumkin. Kesim birinchi o'ringa ko'chganda nutqni ta'sirchan, emotsional qiladi. **Toshkent-tinchlik tayanchi.** **Tinchlik tayanchi-Toshkent.** Men tinchlik istayman. Istamayman men tinchlikni kabi.

Ikkinci darajali bo'lak-kesim inversiyasi ham yuqoridagi xususiyatlarga ega. Ega va kesim inversiyasi ko'proq so'roq gaplarda uchraydi.

3. Ikkinci darajali bo'laklarni kesim bilan oppozitsiya holiga keltirib qilingan inversiyalar gapning grammatik tabiatini o'zgartirmaydi. Bunda alohida ahamiyat berilgan bo'lak kesim yoniga ko'chiriladi, xolos: Barg kesgani **aravasini qo'shadi**. — Aravasini barg kesgani **otaxon qo'shadi**. — Otaxon aravasini **barg kesgani qo'shadi** kabi. Ko'rindiki, har bir konstruksiya nozik ottenka bilan o'zaro farqlanib turadi. Bu xususiyat har qanday tuzilmaga (eganing kesim oldiga ko'chirilishi)ga ham xosdir. Inversiya poeziyada ko'p uchraydi. Bu vazn, qofiya, turoq talabi bilan bo'ladi.

Inversiya sof nutq hodisasi bo'lib, uning yozma nutqda ishlatilishi fikrni yozma formada eng muvofiq ravishda ifodalashga intilish oqibatidir.

Uyushiq bo'laklarning uslubiy xususiyatlari

1. Uyushiq bo'laklar gapga nutqiy ixchamlik, nutqiy ravonlik, ta'sirlilik, musiqiylik bag'ishlaydi. Badiiy-tasviriy vositalardan biri hisoblanadi: Bu ayniqla, poetik asarlarda ko'rindi.

Namangan, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon O'zbekning chamanli, bog'i-bo'stoni. (G'.G'.)

Sifatlovchilarning tasviriy vositaligi ularning semantikasidan kelib chiqadi. Lekin uyushib kelganda, ularning tasviriy-emotsional xususiyati yanada ortadi. Kishiga zavq-shavq baxsh etadi. Tasvirlanayotgan voqeа-hodisalarni to'laligicha gavdalantirishga yordam beradi.

Uyushish har qanday nutq uslubida uchraydi va so'zlovchining modal munosabatlari uyushuvchilarning turlicha formalarida zuhur etadi.

2. Uyushiq bo'lak ikkita bo'lganda, ko'pincha biriktiruvchi bog'lovchi orqali birikadi: Ayol va bolalar chuvalashib qolishdi. Hasan va Samandar yetib keldi. Agar «va» qo'llansa sanaluvchilar tugaganligi ifoda etiladi. Biroq bunday gaplarda qat'iylik ottenkasi bo'lib, tushuncha chegaralanadi: Aniq va sodda so'zlar lol etadi. Yo'lda ba'zan **oq**, **pushti**, **sariq** va **qizil** gullar uchraydi.

Ikki uyushgan bo'lak «bilan» ko'makchisi orqali birikkanda birlashtirilganda ottenkasi aks etib, chegaralanganlik nisbatan aniqroq bo'ladi: **Turg'un bilan Aqida** keldi. Manavi pulga **kitob bilan daftarni** olib kel (Og'z.so'zl.).

Uyushiq bo'laklarning grammatik forma olishidagi holatlar so'zlovchining nutq jarayonida nimalarga e'tibor berishiga bog'liq:

a) so'zlovchi sanaluvchilarini bitta gruppaga sifatida tasvirlashni nazarda tutib, taalluqlilikning umumiyligini ifodalamoqchi bo'lganda, grammatik forma ko'makchi (kelishik va egalik)ni uyushuvchilarning so'ngisiga qo'shib ishlataladi. Men dalada **Salima**, **Nazira**, **Nigora** va **Nargizani** uchratdim (Jonli nutq). Bu xususiyat uyushiq bo'laklar o'z aniqlovchi-izohlovchilari bilan kengayib kelganda ham mavjud bo'ladi.

Izoh: 1) «**bilan**» ko'makchisi (bog'lovchi emas) uyushiq bo'lakning oxirisidan so'ng qo'llanganda, sanaluvchilarning tugallanganligini ko'rsatadi.

2) «**ham**» ikki uyushiq bo'lak o'rtaida kelganda, bog'lovchi vazifasida bo'ladi va tugallanganlikni ko'rsatadi: o'qidi, yozib ham oldi kabi formada tugallanganlikni qat'iy ko'rsatmaydi, uni davom ettirishi mumkin: ...o'qidi, yozib **ham** oldi, tushunib **ham** yetdi kabi.

b) so'zlovchi sanaluvchilarning har biriga alohida ahamiyat berganda, uni maxsus ta'kidlamoqchi bo'lganda, grammatik forma (larni) uyushuvchilarning har biriga qo'shib ishlataladi: Bunda ko'pincha uyushuvchilar bog'lovchisiz qo'llanadi: **Olmalarini**, asl

nashvatilarni, luchchak shaftolilarni, anjirlarni qarang-a! (Jonli nutq).

Ko'plik ko'rsatkichi **-lar** ning qo'llanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Agar uyushuvchilar barchasi ko'plikda bo'lsa, uni ko'plik formada qo'llamoq lozim va bunda alohida ta'kidlanganlik ottenkasi susayadi: **-lar** ni uyushgan bo'laklarning oxirgisiga qo'shish fikriy noaniqlik holatiga olib keladi: Masalan: Ular ichida **tarixchi, arxeolog, tuproqshunos, tabiatshunos** va **ishchilar** bor gapida **-lar** barcha uyushiq bo'lakka xos deb ham, xos emas deb ham hukm chiqarish mumkin.

3.Uyushiq bo'laklarning ayiruvchi va inkor bog'lovchilari yordamida birikishi maxsus uslubiy-ekspressiv xususiyat kasb etmaydi. Ular, asosan, obyektiv olam voqeа-hodisalari yuzasidan axborot berish vazifasini bajaradi. Biroq ularning yakka holda qo'llanishi ayrim o'ziga xoslikka ega: **-yo (yoki)** takror qo'llanganda ikki voqeа-hodisaning biri ro'y berishi qat'iy bo'ladi, yakka qo'llanganda esa ehtimol tutilganlik ottenkasi ifoda etiladi. Qiyoslang: **Yo o'qiysan, yo ketasan** (ikkidan biri) – **o'qiysan yo ketasan** (har ikkisi bo'lishi ham mumkin). Bu ma'nolar nutq vaziyati va ohang bilan qat'iy bog'liq. Shunga ko'ra takror qo'llanganda ehtimollik, yakka qo'llanganda qat'iylik aks etishi ham mumkin.

«**ham**» yuklamasi takror qo'llansa uyushuvchilardan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Bunda «**ham**»ni uyushuvchilardan oldin qo'llash imkoniyati ham mavjud bo'lib, «**ham**» nisbiy bog'lovchi vazifasida keladi. «Ham so'zi takrorlanib kelganda ikki xil ma'no anglatadi: ham so'zi o'zi aloqador so'zdan keyin kelsa, ayirib ko'rsatish, ta'kidlash, oldin kelsa, faqat ta'kidlash ma'nolari anglashiladi»¹

4. Uyushiq bo'laklar **-u (-yu), -da** yuklamalari, shuningdek, **«balki»** so'zлari bilan birikib kelishi mumkin. Bu vositalar gapda maxsus ottenka ifodalab, nisbiy bog'lovchi vazifasida keladi:

a) **-u (-yu), -da** yuklamalari har qanday holatda ham o'zining asl ma'nosini saqlaydi va o'sha ma'nosini bilan bog'lovchi

¹ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi., – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 183-bet.

vazifasini bajaradi: haqiqat egiladi-yu sinmaydi. Bu gapda **-yu** yuklamasi, asosan, ta'kidlash vazifasidadir, zidlik ma'nosi esa uyushgan leksemalar semantikasidan kelib chiqadi. Yuklama leksema tarkibidagi zidlikni kuchaytiradi. Bu zidlik ikkilamchi kuchaytirilganda, uyushiq bo'lak orasida yuklamadan tashqari **lekin**, **biroq**, **ammo** bog'lovchilari ishlatiladi. Leksemalar semantikasida zidlik bo'limganda, **-u(yu)** mutlaqo zidlik emas, faqat ta'kid, kuchaytiruv ottenkasini ifodalaydi. Bu ma'no uchun **-da** yuklamasi ham ishlatiladi;

b) so'zlovchi o'zi ifodalamoqchi bo'lgan voqeа-hodisaning birini qat'iy inkor etganda (zid qo'ymaydi) «**balki**» so'zidan foydalanadi. Bunda «**balki**» so'zi «**aksincha**» so'ziga sinonim bo'ladi. Oy isitmaydi, balki yoritadi (Gaz.).

Inkor munosabati «**emas**» orqali ham ifodalanadi. Bunda nisbiy uyushish ro'y beradi. «**Emas**» nisbiy bog'lovchilik rolini bajaradi. Bunda ham qat'iy inkor ottenkasi mavjud: ...o'ylash **emas**, ishslash kerak kabi.

Umumlashtiruvchi so'zlarning uslubiy xususiyatlari

Uyushiq bo'lakli tuzilmalarda ba'zan umumlashtiruvchi so'zlarining qo'llanishi barcha nutq uslublarida uchraydi. Umumlashtiruvchi so'zlar uyushiq bo'laklar mazmunini lo'nda ifodalashga, ba'zan esa kuchaytirishga, qisqalikka xizmat qiladi.

Agar umumlashtiruvchi so'zlar uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, so'zlovchi asosiy diqqatni narsa-hodisaning yirik, umumiyliga qaratadi, keyin uyushiq bo'laklar orqali uni detallashtiradi: **Qudratning ikki o'rtog'i:** Karim va Rustam chiqib keldi (K.N) Uni **barcha:** Odil, Halima, Naziralar ko'rib chiqdi. (P.M.)

Agar umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan keyin qo'lansa, so'zlovchi sanaluvchilar turi yana mavjudligini nazarda tutadi, «gapni qisqa qiladi», shu qisqalikda o'sha turning barchasi mavjudligini ifoda etadi: Qo'rбoshilar, boyilar, savdogariar – **bar-chasi** xalqni taladi.

Undalmalarning uslubiy xususiyatlari

1. Undalmalar so'zlashuv uslubigagina xos bo'lib, boshqa nutq uslublarida shu uslubning in'ikosi sifatida ishlatiladi. Buning sababi shundaki, undalma ishtirok etgan gapda, albatta, tinglovchi bo'lishi shartdir. Bu esa undalmalarning til hodisasi emas, sof nutq hodisasi ekanini ko'rsatadi. Tilshunoslikda uning gapdan ajratilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Lekin undalmani uchinchi darajali bo'lak (R.Saydullayev) deganda, uning ana shu xususiyati hisobga olinmaydi. Undalma nutq bo'lagidir, nutqning reallash tiruvchi faol, birinchi darajali bo'lagidir. Gap esa bir butun holda nutq bo'lagidir.

Ichki nutqda ham tinglovchi bo'lishi shartligi inkor etilmaydi. Bunda so'zlovchi o'zini yoki boshqa birovni xayolan ko'z o'ngida gavdalantirib, unga murojaat etadi va shu yo'l bilan ichki histuyg'ularini, modal munosabatlarini ifoda etadi.

Undalmalar ko'proq so'zlashuv, badiiv va publitsistik uslubda ishlatiladi, ilmiy, rasmiy ish uslubida juda kam uchraydi. Inkor va chaqiriqlarda esa juda ko'p qo'llanadi.

2. Undalmalar, asosan, shaxs otlari yoki shaxs bildiruvchi so'z formalari orqali ifodalanib, nutqning kimga tegishli ekanini ko'rsatishga, tinglovchilar ko'p bo'lganda, ulardan birini ajratishga, yatka bo'lganda, uning diqqatini jalb etishga, gapning shu shaxs uchun muhimligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, undalma hurmat va madaniy, muloyim muomala uchun ham xizmat qiladi. Nima dori ichaman, **doktor** gapida undalma hurmat, m:loyimlik ottenkasini ham ifoda etadi.

Undalmaning o'rni so'zlovchi fikr bayonida qaysi bo'lak (o'laklar)ga e'tiborni tortishi bilan bog'liq:

a) so'zlovchi fikrning to'laligicha muhimligini nazarda tutgan-a, undalmani gap boshida qo'llaydi: **Opa**, menga Omonimni qo'y. (H.O.) **Omon**, menga o'zingni anglat (H.O.) **Qulmat**, aravani jo'sh! (A.Q.);

b) so'zlovchi tema /berilgan/ni birinchi o'ringa qo'yib temani alohida ta'kidlamoqchi bo'lganda, undalmani gap ichida qo'llaydi: Menga, **opa**, Omonimni qo'y (bunda gapning tema va rema

tuzilishi o'zgaradi.) Biz, **o'rtoqlar** ishlarimizni qayta qurib olishimiz kerak (Gaz.) So'zla, so'zla, **ko'zgujon**, haqiqatni et bayon! (Ertak);

v) so'zlovchi fikrning kimga taalluqli ekanini eslatmoqchi, umuman ta'kidlamoqchi bo'lganda, undalmani gap oxirida qo'llaydi: Bugun menga qarashib yuborsang, **Otabek** (A.Q.) Samovarni qo'yib yubor, **o'g'lim!** Senga bir mehrimni berdim, lolazorimsan, **Vatan!** (U.)

3. Undalmalarning uslubiy bo'yog'i undalma bo'lib kelgan leksema semantikasi bilan bog'liq. Shaxs bildirmaydigan undalmalarning uslubiy bo'yog'i badiiylik bilan izohlanadi va, asosan, badiiy adabiyotda, goho-goho so'zlashuv uslubida uchraydi.

XULOSALAR

1. O'zbek tili uslubiyatining fan sifatida shakllanishi va rivojida qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, shuningdek jahon tillari stilistikasi muhim o'rinni tutadi.
2. Nutq uslublarining har biri tilning bir butun yaxlit tizimi doirasida ish ko'radi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanadi.
3. Nutq uslublari qaysi formada va qaysi sohada bo'lmasin, milliy adabiy tilning umumiy qonun-qoidalariga rioya qiladi.
4. So'zlashuv nutqining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, u fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik jihatdan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi.
5. Tilshunoslikning leksika qismi uslubiyatda muhim o'rinni tutadi. Mohiyat e'tibori bilan leksik qatlama fikrni to'g'ri, aniq ifodalashning asosiy shartlaridan bo'lib, sintaksisdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Chunki, fikrning aniq va ravshan bo'lishi so'z dan to'g'ri foydalanishga bevosita bog'liqdir. So'zdan to'g'ri foydalanish uchun esa, avvalo, uning leksik ma'nosini anglash zarurdir.
6. Fonetik uslubiyat tilshunoslikning fonetika, fonologiya va morfologiya sohalarining tekshirish obyekti bo'lgan nutq hodisalaridan qanday maqsadlarda, uslubiy-ekspressiv jihatdan nimalarni ko'zlab foydalanish yuzasidan bahs yuritishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.
7. Til morfologik vositalarning uslubiy xususiyatlarini belgilashda, asosan, ekspressiya bilan bog'liq bo'lgan tomonlarni nazarda tutmoq lozim, chunki so'z turkumlarining asosiy formalari, masalan, atoqli ot, turdosh ot, qo'shma ot; sifat, asliy va nisbiy sifat; son va uning turlari; fe'l, fe'l shakllarining bir qismi kabilar ekspressiya jihatdan uslubiy xususiyat kasb etmaydi.
8. Sintaktik qurilish va uning ko'p variantliligi, fikr ifodalash vositalarining boy va xilma-xil formalarga egaligi obyektiv olam voqealari yuzasidan axborot berish, olish, turlichaliga munosabatlarni ifodalashda keng imkoniyatlarni ochib beradi.
9. Kishilik jamiyatida insenlarning til birliklaridan, ya'ni fonetik, grammatik, lug'aviy va frazeologik vositalaridan foydalanishida doimo o'ziga xoslik mavjud bo'lib, bu narsa so'zlovchining o'ziga xos uslub (stil)ini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham «uslub - bu insondir» degan aforizm ma'lum ma nod'a haqiqatga juda yaqindir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi, - Toshkent: Fan, 1983.
2. Abdurahmonov X. Maqol va matallarda takror component-larning qo'llanishi. O'TA, - Toshkent, 1974.
3. Abdusaidov A. Gazeta janrining til xususiyatlari. DDA, - Toshkent, 2005.
4. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi, - Toshkent: O'qituvchi, 1969.
5. Aleyev N.. Analitik maqola yoki jangovor korrespondensiya. Muxtor jurnali, 1973.
6. Boboxonova D. Ofitsialno-delovoy stil uzbekskogo literature-nogo yazika, AKD, - Toshkent, 1987.
7. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. - Toshkent: Fan, 1988.
8. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. I-III qism. Toshkent: Navro'z, 1997, 1999.
9. Boboyev T. Poetik san'at sirlari, Ijodiy jarayon va badiiy induviduallik. Ilmiy asarlar, - Toshkent, 1980.
10. Boboyeva A. Gazeta tili haqida. - Toshkent: Fan, 1983.
11. Bondaletov V. i drug., Stilistika russkogo yazika, Leningrad, 1982.
12. Vinogradov V. V., Stilistika, Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika, - Moskva, 1963.
13. Gvozdev A.N. Ocherki po stilistike russkogo yazika. Moskva, 1965.
14. Gort YA.. Filologicheskiye roziskaniya, 1899.
15. Doniyorov A. Badiiy nutq stilistikasidan materiallar. Guliston, 1988.
16. Ziyodova T., Shamsiyeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili uslubiyati. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003.
17. Ibrohimov S. Kasb-hunar leksikasi. - Toshkent: Fan, 1959.
18. Iminov M. Hozirgi o'zbek tilida kelishik formalarining vazifadoshligi, KD, -Toshkent, 1976.
19. Ishoqov Yo. She'riy san'atlar. O'TA. - Toshkent, 1970.
20. Ishoqov Yo.. Qaytarish san'ati. O'TA. - Toshkent, 1972.
21. Malov S.Ye. Pamyatniki drevnegreckskei pismennosti, - M-A, 1951.

22. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. -Toshkent: Fan. 1990.
23. Ma'rufov A. Nutq madaniyatining ba'zi masalalari. - Toshkent, 1972.
24. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. - Toshkent: Fan, 1984.
25. Mo'minov S., Nurmonova D., Karimova O. Nutq mada-niyati. -Toshkent: Yangi avlod, 2005.
26. Nosirov O., Jamolov S., Ziyoviddinov M. O'zbek klassik she'riyati janrlari. -Toshkent: O'qituvchi, 1979.
27. Nosirov P. O'zbek nutqi madaniyati. Toshkent. Uajbnt markazi, 2004.
28. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek ada-biy tili. - Toshkent: Sharq, 2002.
29. Nu'monov T., Saidova M., Boboxonova D. Maqol va hik-matlar ona tilimiz duru javohirlaridir. -Namangan, 2003.
30. Otaqo'ziyev D., Sobirova M. So'z-ulkan xazina. -Toshkent, 2007.
31. Pardayev A. Hozirgi o'zbek tilida ko'makchilarning funk-sional-stilistik xususiyatlari, KDA, Samarqand, 2005.
32. Rozental D. E. Prakticheskaya stilistika russkogo yazika. Moskva. 1965.
33. Samadov Q., Oybek Bolalik asari va uning tili haqida. O'TA, - Toshkent, 1964, 6-son.
34. Sarimsoqov B., Tajnis. O'TA, -Toshkent, 1971, 6-son.
35. Sobirova M. Davlat tilini o'rgatishga yangicha yondashuv. Namangan, 2005.
36. Solijonov Y. XX asrning 80-90 yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. DDA, -Toshkent, 2002.
37. Tojiyev Yo., Hasanov N., Tojimatov H., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. - Toshkent, 1994.
38. Tojiyev Yo., Hasanov N., Tojimatov H., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari amaliyoti, - Toshkent, 1992.
39. Turobova M. Shevalarda gap bo'laklarining takrorlanishi. O'TA, - Toshkent: 1971, 4-son.
40. Fedin K. Til haqida munozara. Pisatel, Iskusstva, Vremya, M., 1957.
41. Cheremisin P. P. Posobiye po stilistike russkogo yazika, - Moskva, 1971.

42. Shaxmatov A. Ocherki sovremennoogo russkogo literaturnogo yazika. - Moskva, Uchpedgiz, 1941.
43. Sherba L.V. Sovremenniy russkiy literaturniy yazik. - Moskva: Uchpedgiz, 1957.
44. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tilining leksik normalari. Nutq madaniyatiga oid masalalar. -Toshkent: Fan, 1973.
45. Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1983.
46. Shomaqsudov A. O'zbek tili va uning stilistik turlarining tarixiy ildizlari masalasiga doir, O'zbek tili stilistikasi masalalari, Ilmiy asarlar to'plami, 486. - Toshkent, 1975.
47. Yaziki narodov, tom 2. Tyurkskiye yaziki, - M., 1966.
48. O'zbek tili stilistikasi masalalari, Ilmiy asarlar to'plami, 486. - Toshkent: ToshDU, 1975.
49. O'rinboyev B. So'zlashuv nutqi. - Toshkent: Fan, 1979.
50. O'qish kitobi. Eski o'zbek yozushi namunalari, - Toshkent: O'z Davlat o'quv-pedagogik nashriyoti, 1960.
51. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1985.
52. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1993.
53. Qutadg'u bilig. - Toshkent: Fan, 1971.
54. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
55. Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T. O'zbek tilining funksional stillari. Samarcand, 1984.
56. G'ulomov A. Fe'l. -Toshkent: Fan, 1954.
57. G'ulomova G. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti, KDA, - Toshkent, 2005.
58. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

MUNDARIJA

So'zboshi	3
KIRISH	4
NUTQ USLUBLARI	14
So'zlashuv uslubi	16
Rasmiy ish uslubi	17
Ilmiy uslub	19
Publitsistik uslub	20
Badiiy uslub	21
LEKSIK USLUBIYAT	24
Polisemantik va monosemantik so'zlar	27
So'zni ko'chma ma'noda qo'llash	28
Omonimlarning uslubiy xususiyati	30
Sinonimlar	32
Antonimlar	34
Lug'at tarkibining faol va passiv so'zları	36
Qo'llanishi chegaralangan leksik qatlarning uslubiy xususiyatlari	39
Emotsional – ekspressiv leksika	43
FONETIK USLUBIYAT	47
MORFOLOGIK USLUBIYAT	49
Ot formalarining uslubiy xususiyatlari	50
Ko'plik kategoriysi uslubiyati	50
Egalik affikslarining uslubiy xususiyatlari	51
Kelishik affikslari sinonimiyasining uslubiy xususiyatlari	53
Bosh va qaratqich kelishiklariaro sinonimiya	53
Bosh va tushum kelishiklariaro sinonimiya	54
Bosh va jo'nalish kelishiklariaro sinonimiya	55
Bosh va o'rinn-payt kelishiklariaro sinonimiya	56
Bosh va chiqish kelishiklariaro sinonimiya	57
Qaratqich va chiqish formalariero sinonimiya	57
Tushum va jo'nalish formalariero sinonimiya	58
Tushum va o'rinn-payt formalariero sinonimiya	60
Tushum va chiqish formalariero sinonimiya	61
Subyektiv baho formalarining uslubiy xususiyatlari	61
Sifatlarning uslubiy xususiyati	64

Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari.....	64
Son uslubiyati	66
Olmosh uslubiyati.....	68
Ko'rsatish olmoshlari	70
So'roq olmoshlari	71
O'zlik olmoshi	72
Belgilash olmoshlari	73
Fe'l uslubiyati	73
Fe'l zamon formalari	74
O'tgan zamon fe'l formalari.....	74
Kelasi zamon fe'l formalari.....	76
Fe'l mayllari	76
Ijro mayli	76
Buyruq mayli	77
Shart mayli	77
Shaxs-son formalari.....	77
Bo'lishli – bo'lishsizlik formalari.....	80
Ravish uslubiyati	81
Ko'makchilar uslubiyati	82
Yuklamalar uslubiyati.....	85
SINTAKTIK USLUBIYAT	87
Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarining uslubiy xususiyatlari.....	89
Tasdiq va inkor gaplar.....	94
Gap bo'laklari masalasi.....	97
Ajratilgan bo'laklarning uslubiy xususiyatlari	97
So'z tartibining uslubiy xususiyatlari	99
Uyushiq bo'laklarning uslubiy xususiyatlari	100
Umumlashtiruvchi so'zlarning uslubiy xususiyatlari	103
Undalmalarning uslubiy xususiyatlari	104
XULOSALAR	106
Adabiyotlar	107

Iminov M., Nu'monov T., Boboxonova D.

O'zbek tili uslubiyati masalalari

Muharrir: Jamoliddin Muslim

Musahhih: I. E. Jumaboyev

Komp. operatori: I. E. Jumaboyev

Terishga 10.04.2007 yilda berildi. Bosishga 16.04.2007 yilda ruxsat berildi.

Gazeta qog'ozida ofset usulida chop etildi. Bichimi 60x84 1/16.

Hajmi 7 bosma taboq. Adadi 300 nusxa. Buyurtma № 38.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Namangan» nashriyoti, Namangan shahri, A. Navoiy ko'chasi, 36-uy, 3-qavai.

«Faxrizoda» kichik korxonasi (Do'stlik shoh ko'chasi, 2 «A» uy)da tayyorlandi.

